

J.A.Namozov, F.A.Do'smanov

MINTAQAVIY IQTISODIYOT ASOSLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

J.A.Namozov, F.A.Do'smanov

MINTAQAVIY IQTISODIYOT ASOSLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Chirchiq-2023

UO'K 332
K BK 65.049(5V36)
N-17

J.A.Namozov, F.A.Do'smanov/ Mintaqaviy iqtisodiyot asoslari / O'quv-qo'llanma - Chirchiq: «Yangi chirchiq prints», 2023. - 156 bet.

Qo'llanmada mintaqaviy iqtisodiyot fanining nazariy va amaliy ahamiyati, asosiy kategoriya va tushunchalari, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, bozor munosabatlarga o'tish davrida hududiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, unda O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining shakllanishi, mintaqalar (viloyatlar) iqtisodiy rivojlanishi, mamlakatning mintaqaviy siyosati kabi mavzular yoritilgan.

Ushbu kitob geografiya va iqtisodiy bilim asoslari, mintaqaviy iqtisodiyot yo'nalishining bakalavr va magistr'lari, iqtisodiyot fakulteti va oliygohlarining talaba va aspirantlariga, barcha «hududchi iqtisodchilarga» mo'ljallangan. Undan «O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» kursini o'qitishda ham foydalanish mumkin.

Taqrizchilar: g.f.n., dots. Xolmirzayev A.A.
g.f.n., dots. Maxamadaliyev R.Y.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrda 491-sonli buyrug'i bilan nashrga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-751-27-1

© J.A.Namozov va b., 2023
© «Yangi chirchiq prints», 2023

Kirish

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasida ishlab chiqarish kuchlarini, xususan Rekreatsiya va turizm sohasining jadal rivojlantirish masalalariga katta ahamiyat beriladi. Mamlakat iqtisodiy strategiyasining o'zagini tashkil etgan Rekreatsiya va turizm sohasining samaradorligi va uning sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha "Taraqqiyot strategiyasi" III- qismining 5 bandida "Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish: hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'llamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish" masalalari belgilab berilgan.

Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida maqsadli dasturlarni ilmiy asoslash, eng muhim ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bo'yicha kompleks dasturlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega bo'ladi.

Kompleks dasturlar, masalan, agrosanoat tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari eng muhim vazifalar(tarmoqlararo tavsifdagi)ni amalga oshirishda resurslarni jamlash imkoniyatini yaratadi. Ushbu dasturlar o'rta va uzoq muddatli tavsifga ega bo'ladi. Iqtisodiyotdagi hududiy mutanosibliklar va yangi hududlarni industrial o'zlashtirish talablaridan kelib chiqib tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini bozor munosabatlarga o'tkazish va erkinlashtirishda ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil etish, mintaqalar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solib borish katta ahamiyatga ega. Zero, har qanday tizimning, shu jumladan iqtisodiy makonning mukammalligi, barkamol shakllanishi eng avvalo uning tarkibiy qismlariga, hududlardagi mavjud tabiiy, mineral xom ashyo, agroqilimiy va mehnat resurslaridan, infraqurultura hamda moddiy, moliyaviy va fan-texnika yutuqlaridan foydalanishga, joylarda

sog'lom ekologik va ijtimoiy muhitni yaxshilashga, ularning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yuksaltirishga bog'liq.

Mamlakatimizning ma'muriy-hududiy bo'linishi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va poytaxt Toshkent shahridan tashkil topgan. Ularning har biri va birgalikda Respublika qudratini mustahkamlash, uning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon hamjamiyatidagi mavqeiini ko'tarishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmogadalar. Ushbu ma'muriy tuzilmalar bir-birlarini to'ldiradi, o'zaro iqtisodiy aloqalar (integratsiya) asosida mamlakatning yaxlit tizim sifatida shakllanishini ta'minlaydilar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyotning sohaviy (tarmog) yo'nalishi bilan birga uning hududiy (mintaqaviy) jihati ham bor-ki, bu umumilmiy mazmunga ega bo'lgan tizim-tarkib tamoyiliga mos keladi. gollaversa, har qanday rivojlanish ayni paytda va albatta qayerdadir, aniq bir hududda joylanishi orqali sodir bo'ladi. Binobarin, joylashirish, joylanish, hududiy tashkil etish rivojlanishning ajralmas tomoni, doimiy yo'ldoshidir.

Demak, hozirgi zamon talabiga javob beruvchi iqtisodchi hududni atroflicha biluvchi, baholovchi va boshqaruvchi bo'lmog'i lozim. Avvalgi tajribalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotni yurgazishda faqat soha (tarmog) prinsipiga ustuvor ahamiyat berish ko'ngildagi natijalar bermadi, mahalliy imtiyozlar inkor etildi, ijtimoiy va ekologik sohalar jabrlandi, natijada hudud alohida sog'lom majmua shaklida rivojlanmadi. Vaholanki, ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil qilish katta mintaqaviy yoki iqtisodiy geografik samara beradi.

1-mavzu. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining obyekti va predmeti..
2. Mintaqaviy iqtisodiyotning boshqa fanlari bilan aloqasi.
3. Tizim-tarkib metodining mintaqaviy iqtisodiyotda qo'llanilishi.
4. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining ustuvor yo'nalishlari.

Tayanch tushunchalar: *mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy ishlab chiqarish, umumiylikdan xususiylikka, tizim-tarkib, U'lzard, mintaqaviy siyosat.*

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyotini shakllanishida uni tashkil etuvchi mintaqalarining ahamiyati katta. Bozor munosabatlariga o'tish, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, barqaror rivojlanirishga erishish ko'p jihatdan ana shu mintaqalarning, ya'ni mamlakatning turli ichki qismlarining sa-lohiyat va imkoniyatlariga, faolligiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan hozirgi davrda ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil qilish, viloyat va iqtisodiy rayonlarning yer-suv, mineral xom ashyo, yoqilg'i va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga muhim e'tibor qaratilmogda.

Erkin va ochiq iqtisodiyot, uning turli qatlamlarini vujudga keltirish, sog'lom raqobat va investitsiya makonini shakllantirishdek dolzarb masalalarni hududlar xususiyatini hisobga olmasdan hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining rahbariyati mahalliy hokimiyat (viloyat, shahar, tuman hokimliklari) huquq va mas'uliyatlarini kengaytirishga urg'u bermogda. Tabiiyki, bunday sharoitda hududlarni atroflicha o'rganish, ularning imkoniyat va muammolarini chuqur tahlil qilish, ustuvor yo'nalishlarni to'g'ri aniqlashga katta ehtiyoj tug'iladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot yuqoridagi masalalarning hududiy jihatarini tadqiq etadi va aynan shu nuqtai nazardan u boshqa fanlardan farq qiladi. Uning predmetini qisqa tarzda quyidagicha ta'riflash mumkin: *mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, alohida olingan hududlar yoki hudud (region, rayon) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining omil va qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.*

Umuman olganda, mintaqaviy iqtisodiyotning ta'rif ko'p, ammo ular aksariyat hollarda bir-biridan farq qilmaydi. Masalan, A.G.Granberg bu fanning predmeti sifatida, eng avvalo, mintaqalar iqtisodiyoti yoki alohida olingan mintaqaning boshqa mintaqalar (regionlar) bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganishni ko'rsatadi. qizig'i shundaki, S.V.Bershteyn-Kogan ham XX asrning 20-yillarida iqtisodiy geografiyani xuddi shunday ta'riflagan edi.

A.G.Granberg (2000 yil) kengroq ma'noda mintaqaviy iqtisodiyotni alohida mintaga va mintaqalar iqtisodiy aloqalarini, ishlab chiqarish kuchlari va iqtisodiy hayotning mintaqaviy jihlatlarini o'rganuvchi fan, deb hisoblaydi. V.F.Pavlenko bu fanning asosiy predmetini alohida mintaqalar iqtisodiyoti, ularning rivojlanish omillari, qonuniyatlari va muammolari bilan belgilaydi. M.V.Stepanov tahririda chiqqan «Mintaqaviy iqtisodiyot» darsligida bu fanga ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, mintaqalar rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlari hamda mintaqaviy rivojlanish omillarini o'rganadi, deb ta'rif berilgan.

A.Y.Probst mintaqaviy iqtisodiyot predmetini rayon ijtimoiy ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishi, hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanish va rivojlanishini tadqiq qilinishida ko'radi. E.B.Alayev esa mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, rayonlar rivojlanishining xususiyat va qonuniyatlarini o'rganishni uning asosiy predmeti sifatida ko'rsatadi.

O'z mohiyatiga ko'ra mintaqaviy iqtisodiyot, umumiy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya fanlari qitrasida yoki ularning oralig'idan joy oladi. U iqtisodiy geografiya bilan birgalikda hudud xo'jaligini o'rganuvchi fanlar turkumini tashkil etadi.

Albatta, mintaqaviy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya bir-biriga o'xshash va yaqin; ikkisi uchun ham ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish umumiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ammo, iqtisodiy geografiya kengroq va binobarin, umumiyroq, fundamental fan, mintaqaviy iqtisodiyot esa torroq va shuning uchun aniqroq, amaliy fandir. Iqtisodiy geografiya nafaqat rayonlar (regionlar), balki mamlakatlar, jahon xo'jaligining tizimi va tarkibi bilan ham shug'ullanadi, ularning o'zaro farqlari va xususiyatlarini o'rganadi.

Demak, iqtisodiy geografiya umumiylikdan xususiylikka, tizimdan tarkibga, ya'ni mamlakat xo'jaligining tarkibiy qismi bo'lgan rayonlarga o'tadi, global fikrlaydi va mintaqaviy amal qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu fan rayonlar va mamlakatlar majmui bilan ish tutadi. Mintaqaviy iqtisodiyotda esa yondoshuv birmuncha o'zgacha-mintaqaviy fikrlaydi va mintaqaviy amal qiladi. Biroq, shu bilan birga, ushbu mintaqaning kattaroq xo'jalik tizimi, ya'ni mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi ekanligi ham unutilmaydi. Binobarin, iqtisodiy geografiyada fikrlash «yuqoridan pastga» qaratilgan, mintaqaviy iqtisodiyotda u aksincha-«pastdan yuqoriga» yo'naltirilgan bo'ladi; birinchisida ko'proq kichik masshtabli tadqiqotlar an'anaviy bo'lsa, ikkinchisiga o'rta va yirik masshtabli yondoshuv xosdir. Iqtisodiy geografiyada tahlil tarmoq-hudud-tarmog shaklida, mintaqaviy iqtisodiyotda esa bu tartib hudud-tarmog ko'rinishiga ega.

Ko'pchilikning fikricha, iqtisodiy geografiya mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy, metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Chunki, bu fanning fundamental tushunchalari: hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish komplekslari dastavval nazariy jihatdan iqtisodiy geografiya fani doirasida yaratilgan. Hozirgi kunda bu kategoriyalar mintaqaviy iqtisodiyot uchun ham o'zak tushunchalar vazifasini bajaradi.

Ta'kidlash joizki, ushbu fanlarning o'zaro munosabati va predmeti juda munozarali va bahsli. Har holda ularning orasidagi farqdan ko'ra o'xshashliklar ko'proq; mintaqaviy iqtisodiyot geografiylashtirilgan iqtisodiyot bo'lsa, iqtisodiy geografiya iqtisodiyashtirilgan geografiya hisoblanadi. Iqtisodiy geografiya «nima qayerda?» va «nima uchun aynan shu yerda?» savoliga javob berishni o'rgatadi, mintaqaviy iqtisodiyotda esa «qayerda nima va qanday joylashgan, u qanday samara beradi?» savollari muhimroqdir.

Ayni vaqtda, mintaqaviy iqtisodiyot mintaqaviy fanlar uyushmasiga ham kiradi. Bu uyushmani bir vaqtlar, aniqrog'i XX asr o'rtalarida amerikalik olim U.Izard (Ayzard) tashkil qilgan va boshqargan edi. Shu sababdan, uni mintaqaviy yoki regional fanlar «otasi», asoschisi sifatida tan olishadi. Mintaqaviy fanlar uyushmasiga, shuningdek, mintaqaviy demografiya, mintaqaviy sotsiologiya, mintaqaviy geologiya, mintaqaviy ekologiya kabi

«hududiy» va geografiya bilan boshqa fanlar qirrasida vujudga kelgan maxsus fan yoki yo'nalishlar kiradi. Shu nuqtai nazardan mintaqaviy iqtisodiyot yuqoridagi fanlar bilan ham aloqa qiladi, ularning tushuncha va tadqiqot usullaridan foydalanadi.

Shubhasiz, bulardan ham ko'ra mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiyot tarixi, sohaviy yoki tarmoqlar iqtisodiyoti, moliya, mehnat va bandlik iqtisodiyotiga o'xshash fanlar bilan yanada yaqinroq aloqada. Sohaviy iqtisodiyot fanlari o'z mazmuni bo'yicha sof ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol iqtisodiyotidir. Ular ko'proq mahsulot va xizmat sohalarining qanday yaratilishini, arzon yoki qimmatligini, iqtisodiy samaradorlikni aniqlaydi. Bunday samaradorlikka xom ashyo va yoqilg'i, mehnat xarajatlari te'lash, yangi texnologiyalardan unumli foydalanish natijasida erishiladi. Mintaqaviy iqtisodiyotda esa samaradorlik qo'shimcha ravishda ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil qilish, transport va boshqa infrastruktura chiqimlarini, «masofa xarajatlari» qisqartirish, hududiy omillar yordamida vujudga keladi. Bu borada ayniqsa hududiy mujassamlashuv va hududiy hamkorlik, iqtisodiy integratsiya j'atayonlari, aglomeratsiya samaradorligi, hududiy ishlab chiqarish majmualari (komplekslari) ning ahamiyati katta.

Ko'rinib turibdiki, mintaqaviy iqtisodiyotning ham ilmiy va amaliy ahamiyati yuqori. U makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot bilan bir qatorda hozirgi zamon iqtisodiyoti fanining uch tarkibiy qismini tashkil etadi.

E'tiborga olish lozimki, mintaqaviy iqtisodiyot amaldagi mintaqashunoslik bilan ham qisman bog'liq. Biroq, mintaqashunoslik yoki hududshunoslik (регионоведение) kengroq ma'noga ega bo'lib, u nafaqat iqtisodiyot, balki o'sha joyning tarixi, tili, dini, aholisi, uning urf-odati va boshqalarni o'rganadi. Shu jihatdan mintaqashunoslik an'anaviy mamlakatshunoslikka o'xshab ketadi. Farq shundaki, bu yerda mintaga darajasida jahonning yirik qismlari-qit'a va materiklar, ularning katta bo'laklari nazarda tutiladi.

Yana ta'kidlash zarurki, mintaqaviy iqtisodiyotda «mintaga» tushunchasi tabiiy geografiyada qo'llaniladigan mintaga (zona)dan farq qiladi va aynan uning tarjimai emas. Ma'lumki, tabiiy geografiyadagi, masalan, iqlim mintaqalari Yer yuzida kenglik

bo'ylab cho'zilib, tasmasimon birin-кетин, tartibli joy olgan. Mintaqaviy iqtisodiyotda esa bu tushuncha ko'proq «hudud» ma'nosini anglatadi va uning shakli, tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) turlicha bo'ladi. Ammo, «hududiy iqtisodiyot» atamasini qo'llash ham uncha to'g'ri emas. Sababi-mintaqaviy iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan mintaqaviy siyosatni hududiy siyosat ko'rinishida ishlatish boshqa ma'noni ham bildirishi mumkin.

Mintaqaviy iqtisodiyot mamlakat milliy iqtisodiyotining tarkibiy qismini anglatadi. Milliy iqtisodiyot esa jahon xo'jaligi yoki iqtisodiyot tizimining bir qismidir. Mintaqaviy iqtisodiyot, odatda, mamlakat ichida ajratiladigan iqtisodiy rayonlar yoki viloyatlar darajasiga mos keladi. Binobarin, kichik hududlar-shahar, qishloq tumanlari xo'jalik tizimini mintaqaviy iqtisodiyot maqomida ko'rish nodurustdir. Ularni mahalliy yoki munitsipal iqtisodiyot sifatida qarash ma'qulroq.

Shunday qilib, iqtisodiyotning hududiy tarkibi pog'onasimon, ya'ni mahalliy, mintaqaviy iqtisodiyot, milliy iqtisodiyot va jahon iqtisodiyotidan iborat. Bundan tashqari, xalqaro yoki bir qancha davlatlar hududida shakllangan yagona iqtisodiy makomni ham ajratish mumkin. Bunga Yevropa Ittifoqi misol bo'la oladi.

Mintaqaviy iqtisodiyotning fan maqomida shakllanishi uncha katta tarixga ega emas. Umuman, iqtisodiyotning hududiy jihatlarini birinchi marta o'rgangan-nemis olimi I.Tyunen hisoblanadi. U 1826 yilda ma'lum bir iste'mol markazi-shahar atrofida qishloq xo'jaligi tarmoqlarini xalqasimon joylashtirishni asoslab bergan.

Keyinchalik ishlab chiqarishni joylashtirish g'oyalari boshqa nemis olimlari-A.Veber, V.Kristaller, A.Lyosh tomonidan rivojlantirilgan. A.Veber sanoat shandortining asoschisi, V.Kristaller aholiga xizmat ko'rsatish sohalari hududiy tashkil qilishda «markaziy o'rinlar», A.Lyosh esa barcha xo'jalik tarmoqlarini joylashtirish, iqtisodiy landshaftlar bo'yicha tadqiqot olib borgan. Ularning nomi bilan, shuningdek, aglomeratsiya samaradorligi, shaharlar iyerarxiyasi, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillari, iqtisodiy rayonlar kabi tushunchalar bog'liq.

Ammo u davrda yaratilgan g'oyalar majmui alohida fan doirasida umumlashtirilmagan edi. Shu sababli nemis mutaxassislarining ishlanmalari, hozirgi til bilan aytganda,

mintaqaviy iqtisodiyot yoki geoiqtisodiyotga zamin yasadi, xolos. Fan maqomida esa mintaqaviy iqtisodiyot amerikalik U.Ayzard tomonidan XX asr o'rtalarida yaratildi. Albatta, mazkur fan asoslarining shakllanishida g'arb klassik iqtisodchilarning (U.Petti, A.Smit, D.Rikkardo va boshqalar) nazariy ishlamlaridan foydalanilgan.

Mintaqaviy iqtisodiyot fanining rivojlanishida «uzoq xori» mamlakatlar olimlari: Y.Shumpeter, F.Perru, V.Leontyev, T.Xagerstrand, P.Xaget, E.Xeksher, B.Olin, V.Bunge kabilarining xizmati katta bo'lgan. Sobiq Ittifoqda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi Kengash (SOPS) hamda alohida olimlar N.N.Nekrasov, A.YE.Probst, N.N.Kolosovskiy, V.V.Kistanov, S.A.Nikolayev, E.B.Alayev, V.F.Pavlenko, T.M.Kalashnikova, A.I.Chistobayev, R.I.Shniper va boshqalar salmoqli hissa qo'shishgan. O'zbekistonda bu sohada S.K.Ziyodullayev, K.N.Bedrinsev, K.I.Lapkin, Z.M.Akramov, M.A.Abdusalomov, T.M.Axmedov, Sh.N.Zokirovlar samarali ishlar olib borishgan. Bundan tashqari, mazkur yo'nalishda Respublikamizda yagona mintaqaviy iqtisodchilarni tayyorlovchi O'zbekiston Milliy universiteti kafedrası professor-o'qituvchilari ham baholi qudrat izlanishlar olib borishmoqda.

Mintaqaviy iqtisodiyotni o'rganishda qator metodlardan foydalaniladi. Ularga, eng avvalo, balans, taqqoslash, statistik, modelash, kartografi, tarixiy kabi usullar kiradi. Mintaqalar iqtisodiyotini tahlil qilishda N.N.Kolosovskiyning energiya ishlab chiqarish sikkalari, mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda iqtisodiy rayonlashtirish metodlari juda qo'l keladi. Shuningdek, umumilmiy ahamiyatga ega bo'lgan tizim-tarkib hamda maqsadga dasturli yondoshuv metodlari ham ishlatiladi.

Mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy vazifalari quyidagilardan tarkib topadi:

- *Hududlar tabiiy sharoiti va boyliklarini tahlil qilish, ularga iqtisodiy baho berish, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti masalalarini o'rganish;*
- *Mintaqaviy infrastruktura va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tadqiq qilish;*
- *Ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil qilish, ularni davlat tomonidan tartibga solib borish;*

■ *Mintaqaviy siyosatning ilmiy asoslarini yaratish, iqtisodiy rayonlashtirish;*

■ *Mintaqaviy dasturlash va mintaqaviy boshorat, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha Bosh sxemalarni tuzish;*

■ *Erkin iqtisodiy mintaqalar, investitsiya makonini tashkil qilishning ilmiy-amaliy asoslarini yaratish;*

■ *Shaharlar rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni, geokologik muammolarni o'rganish va h.k.*

Mintaqaviy iqtisodiyotning yuqorida keltirilgan vazifalari yoki asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu borada, Respublika Prezidenti I.A.Karimov tomonidan yaratilgan mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tish davridagi 5 asosiy tamoyllari katta metodologik ahamiyatga ega.

Mintaqaviy iqtisodiyot fanini o'rganishda quyidagi tushunchalar (tayanch iboralar) ko'proq ishlatiladi: mintaqaviy siyosat, iqtisodiy rayonlashtirish, milliy iqtisodiyot, erkin iqtisodiy makonlar, geoiqtisodiy makon, investitsiya muhiti, mintaqaviy moliya, mintaqaviy dasturlar, ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va tizimi, mujassamlashuv, ixtisoslashuv, hamkorlik va kombinatlashuv, infrastruktura, aglomeratsiya, mintaqaviy samaradorlik, hududiy ishlab chiqarish majmualari, hududiy mehnat taqsimoti, mehnat bozori, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy integratsiya va boshqalar.

Savol va topshiriqlar

1. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining obyekti va predmetini ta'riflab bering.
2. Mintaqaviy iqtisodiyotning tarmoq iqtisodiyoti hamda iqtisodiy geografya fanlari bilan munosabati qanday?
3. Tizim-tarkib metodining mintaqaviy iqtisodiyotda qo'llanilishini misollar yordamida tushuntiring.
4. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining ustuvor yo'nalishlari qaysilar?

2-mavzu. Mintaqalar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning nazariy asoslari

Reja:

1. Ishlab chiqarish kuchlari xaqida tushuncha.
2. Joylashtirish va uning amalga oshirilishi.
3. Hududiy tashkil qilishning mohiyati.
4. Hududiy tashkil qilish va boshqarish.

Tayanch tushunchalar: ishlab chiqarish, joylashtirish, sanoat, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish kuchlari, hududni tashkil qilish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

Ishlab chiqarish kuchlari ishlab chiqarish vositalari (asbob-uskunalar, xom-ashyo va x.k.) sanoat va qishloq xo'jaligi hamda mehnat resurslarini o'z ichiga oladi. Odatda, ishlab chiqarish asosan sanoat, qishloq xo'jaligi, transport kabi makroiqtisodiy sohalaridan tashkil topadi. Ammo ularning barchasini harakatga keltiruvchi ishchi kuchi, ya'ni inson hisoblanadi. Binobarin, aholi ijtimoiy ishlab chiqarishdek murakkab jarayonning markazidan o'rin oladi. Buni biz demotsentrik prinsip deb yuritishimiz mumkin.

Shu bilan birga ta'kidlash joizki, umuman aholi ishchi kuchi emas va u faqat iqtisodiy tushuncha sanalmaydi. Afsuski, ilgari aholi asosan bosh ishlab chiqaruvchi kuch sifatida baholanardi. Vaholanki, bizning sharoitimizda, hozirgi demografik vaziyatda faqat 48-50 foiz aholi mehnatga layoqatli yoshlardir, xolos.

Ijtimoiy ishlab chiqarish tizimi eng avvalo uch tarkibiy qismdan iborat. Bu ham bo'lsa, bevosita ishlab chiqarish, taqsimot va iste'moldir. Bularning barchasi, albatta, ishchi kuchsiz bo'lmaydi. Ayni paytda ishlab chiqarilgan mahsulot bilan uni iste'mol qilish o'rtasidagi aloqadorlikni amalga oshirishda transportning ahamiyati katta. Shu sababli uni ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining «qon tomiri» yoki harakatga keltiruvchi omili darajasida qarash to'g'riroq bo'ladi.

Demak, ishlab chiqarish kuchlari keng va murakkab iqtisodiy tushuncha, uning tarkibi ishlab chiqarishning obyekti bilan subyekti, ya'ni ishchi kuchidan tashkil topadi. Aholining ishtiroki qisman, mehnat resursi doirasida kuzatiladi. Umuman aholi esa, u ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha hisoblanib, ishlab chiqarish jarayonining qoq o'rtasidan joy oladi. Sababi- aholi (mehnat resurslari) moddiy va

ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi va ayni paytda ularning iste'molchisi hamdir. Biroq, ishlab chiqaruvchilar ozroq, iste'mol qiluvchilar esa barcha aholidan (uning yosh va jinsidan qat'iy nazar) iborat.

Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotda «joylashtirish» tushunchasi juda ko'p ishlatiladi. Tarmoq yoki sohaviy iqtisodiyotda ko'proq «rivojlanish», taraqqiyot, o'zgarish kabilar tilga olinadi. Shu o'rinda qayd qilmoq lozimki, joylashtirish geografiyaning boshqa tarmoqlari, masalan, tabiiy geografiya uchun muhim emas, chunki iqlim, yer usti tuzilishi, tuproq, o'simlik yoki hayvonot dunyosi joylashtirilmagan, ularning hududiy xususiyatlari boshqa omil va qonuniyatlardan bilan ifodalanadi.

Umuman rivojlanishning, har qanday hodisa yoki voqelikning ajralmas, bir payning o'zida (permanent) sodir bo'ladigan xususiyati yoki jihati mavjud. U ham bo'lsa joylanishdir. Zero, u yoki bu voqelik ma'lum vaqtda va aniq joyda yuzaga keladi-ki, biz bu yerda zamon va makon birligining guvohi bo'lamiz. Shundan kelib chiqqan holda e'tirof etish mumkin, rivojlanish va joylanish bir borligining, hodisaning ikki tomonidir yoki boshqacha qilib aytganda, joylanish rivojlanishning hududagi, makondagi in'ikosidir. Binobarin, iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotda ushbu tushunchalarning bir joyda, qo'shaloq ishlatilishi an'ana bo'lib qolgan (masalan: paxtachilikning rivojlanishi va joylanishi, qora metallurgiya sanoatining rivojlanishi va joylanishi, temir yo'l transportining rivojlanishi va joylanishi va h.k.).

Ammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, joylanish va ayniqsa joylashtirish barcha hodisa yoki voqeliklarga tegishi emas. Misol uchun, okeanda balliqni, yer ostida qazilma boyliklarni, atmosferada bulutlarni hech kim joylashtirmagan. Demak, joylashtirish deganda, uning kimdir (subyekt) tomonidan amalga oshirilganligi nazarda tutilganligi sababli baliq yoki ko'mirning geografiyasini boshqacha izohlash kerak. Shu bois, geografiya faqat joylashuvigina emas, balki u hodisa va voqeliklarning hududiy tarkibi va tizimi, bir joyning ikkinchi joydan farqini o'rganadi.

Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot uchun ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish umumiy tushuncha, obyekti hisoblanadi. Hatto mintaqaviy iqtisodiyotni ishlab chiqarish

kuchlarini joylashtirish haqidagi fan sifatida ta'riflaydilar. Qolaversa, sobiq Ittifoq davridagi iqtisodiyot universitetlarining iqtisodiy geografiya kafedralarini nomlari avval ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga, undan keyin esa mintaqaviy iqtisodiyotga o'zgartirildi.

Mazkur fanlarda «ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish» bilan bir qatorda «ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish» tushunchasi qo'llaniladi. Chindan ham bu ikki tushuncha bir-biriga juda o'xshash. Ayniqsa, «joylashtirish» hududiy tashkil qilishga yaqin, chunki bu ma'lum bir subyekt (shaxs, davlat) tomonidan amalga oshiriladi.

Hududiy tashkil qilish joylashtirish, joylanishning yuqori, mukammal shaklidir. Uning eng muhim xususiyati boshqaruv, nazorat (monitoring)-da o'z ifodasini topadi. Shu sababli hududiy tashkil qilish umumiy ahamiyatga ega bo'lgan tizim yoki tizim-tarbiy g'oyasiga asoslanadi.

Ma'lumki, har qanday tizimga, asosan murakkab tizimlarga quyidagilar xos:

- ❖ Ikki va undan ortiq element va qismlardan iborat bo'lish;
- ❖ Ichki va tashqi, tik va gorizontaal aloqalar;
- ❖ Ko'p bosqichlik, iyerarxiyalik;
- ❖ Mustaqil amal qilish, faoliyat ko'rsatish;
- ❖ Tartib va tarkiblilik;
- ❖ Boshqaruvchanlik va h. k.

Aynan ana shu jihatlarga ko'ra hududiy tashkil qilish joylashtirishga nisbatan ma'qulroq, afzalroq va amaliyroqdir. Masalan, talabalarining o'z hoxishlaricha sinfda o'tirishlari yoki yangi uyga mebel va boshqa jihozlarni tartibsiz o'rinishlarini, bu tub mohiyati bilan joylashtirish yoki hududiy tashkil qilish emas; bu jarayonni o'qituvchi yoki uy bekasi boshqaradi.

Boshqarish hamma vaqt tartibni, tashkil qilishni, ma'lum maqsadga qaratilishni nazarda tutadi. Binobarin, o'qituvchi o'z darsini samarali o'tkazish maqsadida sinfni tashkil qiladi. Aniqrog'i talabalar o'tirishini, ya'ni kim-kim bilan va qayerda joylashishini sinfda tartibga soladi, boshqaradi, nazorat qilib boradi. Xuddi shunday, uy bekasi ham yangi uyga keltirilgan jihozlarni hududiy tashkil qiladi, tartibli joylashtiradi.

Yuqoridagi misollar qulayroq bo'lishi uchun ular soddaroq tarzda, kichik hududlar darajasida keltirildi. Bu o'rinda aytilish mumkinki, eng avvalo ana shu kichik hududda yirik masshtabli tadqiqotlarni o'tkazish, «mikroiqtisodiyotni» chuqur o'rganib, so'ngiga katta hududlarga o'tish kerak. Zero: «kichik kait katta eshikni ochadi», deyishadi; kichikda kattani, kattada kichikni ko'ra bilish muhimdir.

Hududiy tashkil qilishda hudud o'zgarmas (constant), bazis bo'lib xizmat qiladi; turli obyektlar – sanoat korxonalari, qishloq xo'jalik ekinlari, aholi va h. k. o'zlarining xususiyatlariga qarab ma'lum hududda joylashtiriladi. Bu yerda, hududda joylashtiriladi deyish mumkin, ammo hududiy joylashtirish uncha to'g'ri emas, chunki har qanday joylashtirish o'z-o'zidan ma'lumki hududiydir (to'g'ri, kamdan-kam hollarda, masalan avtobuslar qatnovini yoki dars jadvalini muayyan vaqt va soatlarda joylashtirish, taqsimlash mumkin).

Ayni paytda «hududni tashkil qilish» tushunchasi ham mavjud. U ko'proq rayon planirovkasida, sotsiologiyada yirik va o'rta masshtabli tadqiqotlarda qo'llaniladi. Bu yerda joylashtiriladigan obyektning emas, balki hududning xususiyati, imkoniyati («dili, tili, nafasi») hisobga olinadi. Boshqacha qilib aytganda, nimani qayerda joylashtirish emas, qayerda nimani joylashtirish nazarda tutiladi. Umuman olganda esa hududiy tashkil qilish bilan hududni tashkil qilishni o'zaro muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirish qulay va yaxshi samara beradi.

Hududiy tashkil qilish hududiy tarkib (struktura), hududiy tizim (sistema), iqtisodiy rayon tushunchalari bilan chambarchas bog'liq va ular mintaqaviy iqtisodiyot hamda iqtisodiy geografiyaning o'zak tushunchalarini tashkil qiladi.

Har qanday sistemaning ikki jihati, ya'ni uning xususiyligi va hududiyligi borligidek, ishlab chiqarishni tashkil qilish ham ijtimoiy hamda hududiy shakllardan iborat. Ijtimoiy tashkil qilish ixtisoslashuv, mujassamlashuv, kooperatsiya va kombinatlashuvdan iborat bo'lsa, hududiy tashkil qilishda sanoat markazi va tugunlari, sanoat parklari, texnopoliylar, hududiy ishlab chiqarish majmualari mavjud. Ijtimoiy va hududiy shakllar turli xo'jalik tarmoqlarida har xil. Shuning uchun ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash katta ahamiyatga ega.

Savol va topshiriqlar

1. Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish kuchlari nima?
2. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha ekanligini tushuntirib bering.
3. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish va joylashtirish o'rtasida qanday o'xshashlik va farqlar mavjud?
4. Sistema (tizim) g'oyasining mohiyati va uning hududiy tashkil qilishda qo'llanishi nimada o'z ifodasini topadi.

3-mavzu. Mintaqalar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari, tamoyillari va omillari

Reja:

1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarning ta'siri.
2. Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilishning asosiy qonuniyat, prinsip va omillari.
3. Joyning ekologik sig'imi va uning ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishga ta'siri.
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirish xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: ishlab chiqarish tarmoqlari, tabiiy sharoit, agroiklimiy resurslar, xom-ashyo omili, transport omili, energetika omili, ekologik omil.

Ishlab chiqarish tarmoqlari o'z-o'zidan, tasodifan hududiy tarqalmaydi, balki ma'lum shart-sharoitlar va omillarni hisobga olgan holda joylashtiriladi yoki hududiy tashkil etiladi. Bu omillarni yaxshi bilish ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va tizimining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga asos bo'ladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish ma'lum qonuniyat, prinsip va omillar asosida amalga oshiriladi. qonuniyatlar, eng avvalo, omillarning o'zaro aloqadorligi, ishlab chiqarish korxona va tarmoqlarining ma'lum hududiy va texnologik majmua shaklida tashkil etilishi, bu tarmoqlar rivojlanishidagi mutanosibliklardan kelib chiqadi. Masalan, hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini o'zining qonuniyatlari mavjud. Ishlab chiqarishga nisbatan iste'mol, taklifga ko'ra talabning ustunligi, erkin raqobat, ochiq iqtisodiyot yurgizish, uni liberalashtirish shular jumlasidandir. Bular, albatta, ishlab chiqarishni joylashtirishga, iqtisodiy makonning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Prinsip yoki tamoyillar qo'yilgan strategik maqsadlarga erishishdagi, dastlabki yoki birlamchi asoslar hisoblanadi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatning bozor munosabatlarga o'tish davriga mos besh asosiy prinsip ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. O'z navbatida ular ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishga ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, bu davrda vaqt va mablag'dan unumli foydalanish, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi sohalarini jadatroq rivojlantirish, tabiiy va mehnat resurslarini ishga solish, mintaqalararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Albatta, bu borada ishlab chiqarishni xom ashyo bazasiga, elektr manbai va iste'mol rayonlariga yaqinlashtirish prinsipi o'z kuchini saqlab qoladi. Biroq, unumlaslik lozimki, barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini bir vaqtning o'zida ham xom ashyo, ham ishchi kuchi, ham iste'mol rayoniga yaqinlashtirish qiyin (yo unisi, yoki bunisiga yaqinlashtirish mumkin, ammo hammasiga emas). Binobarin, bu tamoyilni har xil tarmogga nisbatan aniq qo'llash talab qilinadi.

O'tish davrida barcha hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish prinsipi ham avvalgidек, «sotsialistik ruhda» talqin qilinmaydi. gollaversa, bu davrda mintaqalararo tafovut saqlanib va, hatto biroz kuchayib borishi mumkin. Shu bois davlatning mintaqaviy siyosati bu farqlarni iloji boricha qisqartirishga yo'naltiriladi. Bunday hududiy nomutanosibliklarning o'ziga xos rivojlanish omili sifatida (hududiy raqobat) ma'lum darajada saqlanib qolinishining sababi shundaki, bir vaqtning o'zida barcha tarmoqlarni bir darajada rivojlantirish aslo mumkin emas. Xuddi tarmoqlar tarkibida bo'lganidek, ishlab chiqarishning hududiy tuzilmasida ham rivojlanish navbatna-navbat, ustuvorlik prinsipi, raqobat asosida olib boriladi. Tabiiyki, iqtisodiyot tarmoqlari hamda mintaqalarning rivojlanishi turli xil omil va sharoitlarga ham bog'liq bo'ladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xom ashyo, yoqilg'i, elektr quvvati, suv va iqlim sharoitlari, mehnat resurslari, iste'mol va transport, iqtisodiy geografik o'rin kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ekologiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi roli ham oshib bormoqda.

Ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar juda ko'p. Modomiki bu omillar ko'p ekan, demak:

- ularning ta'sir darajasi har xil bo'ladi;
- bu omillarni guruhlash talab etiladi;

- omillar va ishlab chiqarishni joylashtirishni o'rganishda kompleks (ya'ni har tomonlama) yondoshuv zarur.

U yoki bu omilning ta'sir darajasi uning mahsulot chiqarishdagi «solishtirma og'irligi» bilan o'lchanadi yoki uning mahsulot birligi bilan nisbati hisobga olinadi. Albatta, jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika rivoji va boshqa sabablar tufayli omillarni ta'sirchanligi o'zgarib boradi. Chunonchi, agar ilgari tabiiy sharoit, xom ashyo, ishchi kuchi kabilarning ahamiyati katta bo'lgan bo'lsa, hozir ilmiy-texnika taraqqiyoti, ekologiya, bozor, iste'molning kuchayishi va turfanishi muhimroq bo'lib qolmoqda, ishlab chiqarish ko'proq mablag'talab va ilmtalab bo'lib bormoqda.

Shu bilan birga ma'lum omilning ta'sirchanligi, ya'ni uning ko'p sarflanishi asta-sekin kamaytirilib boriladi. Masalan, mahsulot birligiga nisbatan sarflanadigan xom ashyo, yoqilg'i, elektr quvvati, ishchi kuchi va boshqalar muntazam ravishda tejraladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligining oshib borishiga olib keladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, «ko'p sarflanadi» degan so'z o'z-o'zidan isrofgarchilikni va, binobarin, atrof-muhit ekologiyasiga ham salbiy ta'sirni anglatadi. Jumladan, xom ashyo ko'p sarflanadigan yoki «suv talab» korxonalarida shunga mos ravishda xom ashyoni to'la ishlalimasligi, uning chiqindiga ketishi, suvning ifloslanishi kabi holatlar yuz beradi. Demak, bu borada tejamkorlik ham iqtisodiy, ham ekologik ahamiyatga ega bo'ladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda barcha shart-sharoitlar, omillardan kelib chiqiladi. Lekin ma'lum tarmoqni hududiy tashkil etishda hamma omil emas, ulardan faqat ayrimlari yetakchi, hal etuvchi rol o'ynaydi. Buning uchun yaratiladigan mahsulot birligiga, masalan, suv yoki elektr quvvati, ishchi kuchining qay darajada sarflanishini aniqlash talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, «kasr maxrajida» mahsulot birligi, uning suratida esa alohida-alohida omillar (masalan, 1 tonna shakar olish uchun qancha xom ashyo, ya'ni qand lavlagi ishlatiladi, qancha elektr quvvati yoki mehnat sarflanadi va h.k.) turadi. qaysi omil bo'yicha yirik son chiqsa, uning ahamiyati shuncha yuqori bo'ladi va u ko'rilayotgan ishlab chiqarish tarmog'ini joylashtirishda belgilovchi, aniqlovchi vazifani o'taydi.

Alohida shuni qayd etish lozimki, ma'lum tarmogga kiruvchi barcha korxonalar xili yoki kichik «tarmoqchalar» uchun bittagina omil

tegishli bo'lmaydi. Jumladan, mashinasozlik tarmog'iga tegishli ba'zi bir korxonalarni joylashtirishda xom ashyo (metall) ko'proq ahamiyatga ega bo'lsa, boshqasi uchun malakali ishchi kuchni muhim hisoblanadi.

Endi yuqorida ko'rsatilgan asosiy omillarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tabiiy sharoit va agroiklimiy resurslar. Xo'jalikning barcha tarmoqlari, shuningdek, aholining joylashuvida tabiiy sharoitning roli katta. Bu borada ayniqsa yer, suv, harorat, tuproq kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Yerning ishlab chiqarishni joylashtirishdagi o'рни uning maydoni, katta-kichikligi, geomorfologik xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Yer jamiyat rivojlanishining eng qadimiy, eng birlamchi omilidir. Ksenofont (e.o.430-355 yy.-) «Yer insonni sog'lom, to'q va adolatli qiladi», deb yozgan edi. Ingliz iqtisodiyoti va statistikasining asoschilaridan biri U.Petti (1623-1687yy.) fikricha, mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasidir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, agar yer ko'pgina xo'jalik tarmoqlari-sanoat, transport va boshqalar uchun oddiy sharoit sifatida xizmat qilsa, u qishloq xo'jaligida bebaho boylik, muhim resurs hisoblanadi. Ayni vaqtda sanoat korxonalarining (masalan, yirik metallurgiya, kimyo yoki mashinasozlik zavodlari) katta maydonlarni egallashini ham unutmashlik kerak. Shuningdek, bunday maydonlar aeroportlar uchun ham talab etiladi.

Suv resurslarining ham ahamiyati ko'p funksiyali. Sanoatda suv xususan suv va issiqlik elektr stansiyalari, qora va rangli metallurgiya, sellyuloza-qog'oz, gidroliz, sintetik tola ishlab chiqarishda, to'qimachilikda ko'p sarflanadi (ayrim ma'lumotlarga ko'ra, sanoat butun xalq xo'jaligida sarflanadigan suvning 40 foizini iste'mol qiladi). Masalan, 1 tonna sintetik tola ishlab chiqarish uchun 2000 m³, 1 tonna ip gazlamasiga 1260 m³, 1200 ming kVt quvvatga ega bo'lgan issiqlik elektr stansiyasi uchun esa 1200 mln³ suv sarflanadi. Demak, bu va shunga o'xshash sanoat korxonalarining suv sig'imi juda yuqori. Mazkur omilning qishloq xo'jaligi va, ayniqsa sug'orma dehqonchilikdagi o'рни yanada yuqori va an'anaviyroq. Zero, dastlabki madaniylashgan, rivojlangan joylar aynan Yer yuzining sug'orma dehqonchilik rayonlarida, vohalarda vujudga

kelgan (Nil deltasi, Mesopotamiya, Hind-Gang pasttekisligi, Xuanxe daryosining o'rta qismi, Movarounnahr va b.).

Issiq iqlim sharoitida sanoat korxonalarini ochiq usulda qurish, suv va boshqa alkogolsiz ichimliklar, ip gazlama ishlab chiqarishga o'xshash tarmoqlarni ko'proq rivojlantirish talab etiladi. Ob-havo va iqlim transportning ko'pgina turlarini rivojlantirish va joylashtirishga ham ta'sir qiladi. Shuningdek, tabiiy geografik sharoitlar rekreatsiya va turizm sohalarini tashkil etishda ham katta ahamiyatga ega.

Suv mo'l bo'lgan hududlarda, odatda, sholi, sazarot kabilar ekladi. Paxta ham ancha suv talabdir. qizig'i shundaki, yer maydoni bor joyda, suv yetishmaydi va, aksincha suv ko'p tog'li hududlarda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish mushkul. To'g'ri, har ikkalasi muhayyo bo'lgan joylar ham yo'q emas. Ammo bunday joylarda havo harorati yetishmasligi mumkin. Demak, qishloq xo'jaligi va ayniqsa uning serdaromad tarmog'i dehqonchilik uchun uch asosiy omil: yer, suv va harorat zarur. Albatta, bu mazmunda yer faqat oddiy ekin maydoni mazmunidagina emas, balki uning tuproq qatlami bilan ahamiyatidir. Binoqarin, agroiklimiy resurslarni harorat, suv va tuproq birligida ko'rish yanada to'g'riroq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining yer boyligi ancha katta (maydoni 448,9 ming kv.km.). Uning iqlim sharoitlari ham qulay-ba'zi qishloq xo'jalik mahsulotlarini bir yilda 2-3 marta hosilini olish mumkin. Biroq, qishloq xo'jaligida mavjud yerlardan unumli foydalanish uchun irrigatsiya va melioratsiya, agroinfrastruktura tizimini rivojlantirish, ekologik muammolarni hal qilib berish talab etiladi.

Xom ashyo omili. Tabiiyki, mahsulot xom ashyosiz yaratilmaydi. Ammo ayrim mahsulotlarni olish uchun xom ashyo boshqalariga qaraganda ko'proq sarflanadi. Shuning uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoqlar va korxonalar mumkin qadar xom ashyo rayonlariga yaqin joylashtiriladi.

Sanoatning barcha tarmoqlari, masalan, tog'-kon, o'rmon, baliqchilik o'z-o'zidan ma'lumki, xom ashyo bo'lmagan rayonlarda rivojlanmaydi. Bunday sanoat tarmoqlarining joylashuvi bevosita foydali qazilmalar yoki tabiiy boyliklar geografiyasi bilan bog'liq. Boshqa sanoat tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi esa biroz murakkabroq. Masalan, 1 tonna paxta to'lasini olish uchun taxminan 3

tonna xom paxta, 1 tonna paxta yog'i uchun 5 tonna chigit, 1 tonna pista yog'iga 3 tonna kungaboqar, 1 tonna shakarga 7 tonna qand lavlagisi ishlatiladi. Ushbu raqamlarni nisbiy ko'rinishda berish foydadan xoli emas. Chunonchi, paxta tolasini oq paxtadan chiqishi 32-33 foiz, paxta yog'ining chigitdan olinishi 19-20 foiz, shakarni qand lavlagidan olish 14-15 foiz va shunga o'xshash. Demak, bu korxonalar xom ashyo rayonida yoxud unga yaqin joylashiriladi.

Mineral o'g'itlar ichida kaliy o'g'itini ishlab chiqarish geografiyasi batamom xom ashyo omili bilan belgilanadi, chunki uni olish uchun ko'p miqdorda kaliy tuzi sarflanadi. Ayni paytda azot (selitra) o'g'itini ishlab chiqaruvchi korxonalar ancha «erkin» joylashadi. Bunday korxonalar qora metallurgiya markazlariga, suv manbalariga yaqin, neft va gaz sanoati rivojlangan rayonlarda o'rnatilishi ham mumkin. Fosfor o'g'iti ishlab chiqaruvchi korxonalar xom ashyo va iste'mol rayonlarida joylashiriladi. Xom ashyo sifatida apatit, fosforitlar xizmat qiladi. Shuningdek, bu o'g'itni ishlab chiqarishda olingugurt kislotasi ham talab etiladi. Shu bois ular rangli metallurgiya markazlarida ham tashkil etiladi. O'zbekistonda azot yoki selitra Chirchiq, Navoiy, Farg'onada, superfosfat Qo'qon va Samarqandda, ammosos yoki azot va fosfor o'g'itlarining birlikmasi Olmalikda ishlab chiqariladi.

Xom ashyoga ko'proq asoslangan sanoat tarmoqlarining joylashuvini o'rganish eng avvalo mamakat tabiiy sharoiti va boyliklarini bilishni talab etadi. Turli xil qazilma boyliklarning ma'lum hududdagi birligi bu yerda ishlab chiqarishni kompleks tashkil qilishga, hududiy majmualarni shakllantirishga, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish samaradorligini oshirishga sabab bo'ladi.

Yozilgan issiqlik elektr stansiyalari uchun hamda qora metallurgiya sanoatining dastlabki-cho'yan eritish bosqichini joylashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Ammo uning ta'siri hamma vaqt ham yetakchi kuchga ega emas; issiqlik elektr stansiyalari yoki metallurgiya zavodlari ayrim hollarda iste'mol rayonlarida ham joylashtirilishi mumkin. Bu masala ayniqsa, neft va uning mahsuloti mazut, tabiiy gaz asosida ishlovchi issiqlik stansiyalarini qurishga tegishlidir.

Biroq, qora metallurgiya zavodlarini joylashtirish qonuniyatlari bir xil bo'lmaydi. Ma'lumki, qazib olinadigan temir

rudasining taxminan 48-50 foizi foydalidir, ya'ni ulardan deyarli shuncha cho'yan olish mumkin (1 tonna cho'yan ishlab chiqishda taxminan 2 tonna temir rudasi va 1,2 tonna kokslanuvchi ko'mir sarflanadi). Ammo bu «o'rtaacha» raqam hamma joyda ham bir xil emas; ayrim konlarda temirning qazib olinadigan rudadagi ulushi atigi 17-19 foizni tashkil etadi, xolos. Bunday konlarga Uraldagi qo'shqanorni yoki qoragalpog'iston Respublikasidagi Tebinbuloqni misol qilib ko'rsatish mumkin. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, bu yerda qazib olinadigan rudani bevosita domna pechlarida eritib bo'lmaydi, chunki kerakli mineraldan ko'ra keraksiz jinslar ko'proq. Shuning uchun bu ruda albatta dastlab boyitilishi va uning tarkibidagi foydali mineralning hisssasi oshirilishi lozim.

Boyitilgandan so'ng ruda tarkibidagi (rangli metallar uchun boyitish jarayoni ayniqsa muhim, chunki ularning tog'-kon jinslaridagi ulushi juda past) metall miqdori bir necha barobar ko'payadi. Ammo bundan keyin ham uning hisssasi yetarlicha bo'lmaydi. Shuning uchun metallurgiya korxonalari ko'proq xom ashyo rayoniga yaqinroq joylashiriladi.

Yer yuzida «boy» konlar ham yo'q emas, jumladan, Kursk magnit anomaliasiga kiruvchi Belgorod yaqinidagi konlarda temirning rudadagi ulushi 60-65 foizgacha yetadi. Binobarin, bundan qazib olinadigan xom ashyoni bevosita boyitmasdan domna pechlarida eritisa bo'ladi. Modomiki shunday ekan, ularni tashib borish uchun transport xarajatlari va pirovard natijada eritilgan cho'yaning tannarxi uncha yuqori bo'lmaydi. Bu esa korxonalarni yozilgan rayonida yoki unga yaqin joylarda qurishni taqozo etadi.

Qozog'iston Respublikasidagi qarag'anda to'liq siklli metallurgiya kombinati bevosita ko'mir havzasi rayonida joylashtirilgan. Novokuznetsk, Lipetsk, Tula (Rossiya), Krivoy Rog (Ukraina) kombinatlari esa xom ashyo, ya'ni temir rudasi konlariga yaqin qurilgan. Ayrim hollarda metallurgiya zavodlari xom ashyo va yozilgan rayonlari o'rtasida joylashgan, zero mazkur sanoat tarmog'i uchun bu ikki omilning ahamiyati bir xil. Bunga misol sifatida Cherepovets metallurgiya kombinatini (Rossiya Federatsiyasi) keltirish mumkin. U Pechora kokslanuvchi ko'mir havzasi bilan Kola yarim oroli temir rudasi konlarining deyarli o'rtasida qurilgan. Lekin ushbu korxona aniq ikki oraliq masofada emas, u bir oz K'arabga «tortilgan». Buning sababi, Sankt-Peterburg va Moskva

shaharlarining yirik mashinasozlik korxonalarini po'lat va prokatga bo'lgan ehtiyojidir.

Shuningdek, ko'mir va temir rudasini bir-biri bilan hududiy almashuv tamoyili asosida har ikkala rayonda shakllangan qora metallurgiya markazlari ham mavjud. Bu borada 30-yillarda amalga oshirilgan Ural-Kuznetsk kombinatini (UKK) eslash kifoya. Mazkur mintaqaviy dastur hududiy ishlab chiqarish majmuini dastlabki ko'rinishi bo'lib, uni hayotga tatbiq etishda ham xom ashyo rayonida-Janubiy Ural temir rudasi konlari asosida ham yoqilg'i rayonida-Kuznetsk toshko'mir havzasida, ya'ni Novokuznetskda bunday ulkan korxonalar qurilgan edi.

Ma'lumki, Donetsk-Dneprbo'yi rayoni Ukrainaning asosiy yoqilg'i va qora metallurgiya bazasi hisoblanadi. U ilgari dunyoga dong'i ketgan Uralni o'rgada qoldirib, o'tgan asrning oxirgi choragida kapitalistik tuzum asosida gurkirab rivojlangan, o'sha paytdagi Janubiy sanoat rayoni deb atalmish o'lka sifatida mashhur bo'lgan. Hozirgi davrda bu yerda qora metallurgiyani ixtisoslashtirgan rayon shakllangan, ular bir-birlari bilan xom ashyo va yoqilg'i almashuvi negizida amal qiladilar. Bu ham bo'lsa Donbass va Dneprbo'yidagi bir guruh korxonalar uyushmasidir. Donbassda kokslanuvchi ko'mir, Dneprbo'yida temir rudasi (Krivoy Rog havzasi). Mazkur mintaqada uchinchi, lekin oldingilarga qaraganda kichikroq metallurgiya rayoni, aniqrog'i markazi ham shakllangan. U Mariupoldagi korxonalar birliklari bo'lib, Donbass ko'miri va Kerch yarim orolidagi qamishburun temir rudasi negizida ishlaydi.

Elektr energetika omili. Hozirgi zamon ishlab chiqarishini elektr quvvatisiz tasavvur qilish qiyin. Ushbu sohaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u yaratgan mahsulotni, ya'ni elektr quvvatini jamg'arib, omborxonalarga yig'ib bo'lmaydi, undan ayni paytning o'zida, sinxron ravishda foydalanish kerak. Bundan tashqari, elektr quvvati yuqori kuchlanishi elektr tarmoqlari orqali uzoq masofalarga ham uzatilishi mumkin.

Odatda elektr quvvati omilini ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida eng avvalo uning arzon xillariga urg'u beriladi. Arzon elektr quvvati suv stansiyalaridan olinadi, chunki suv suvligicha GESdan keyin ham qolaveradi, issiqlik elektr stansiyalarida esa ko'mir, mazut yoki tabiiy gaz tamomila sarflanadi.

Elektr energetika omiliga quyidagi misollarni keltirish mumkin. 1 t. galay yoki titan ishlab chiqarish uchun (titan po'latdan bir necha marta yengil va ayni paytda undan ancha chidamliroq) 40-50 ming kVt/soat, xuddi shu miqdordagi alyuminiyga va natirga 14-18 ming kVt/s, misni rafinatsiyalash (tozalash), elektr pechlarida po'lat eritishda ularning har bir tonnasi 8-10 ming kVt/s atrofida elektr quvvati sarflanadi. Shuningdek, temir qotishmalari (ferrosplav), magniy, qo'rg'oshin, sintetik tola va kauchuk kabllarning ham elektr energiyasiga talabi katta. Tabiiyki, bunday korxonalar arzon elektr energiyasi manbalariga yaqin joyda qurilishi kerak.

Juda qiziqarli hol: Rossiyaning bir qator shaharlarida GES va alyuminiy zavodlari «qo'sh kulcha»dek aynan bir joyda, bir markazda uchraydi. Masalan, Bratsk GESi va Bratsk alyuminiy zavodi, Krasnoyarskdagi GES va alyuminiy zavodi va h.k. Bunday «juftliklar» yoki elementar hududiy ishlab chiqarish majmualari Ukraina, Armaniston, Fransiya va boshqa joylarda ham mavjud. O'rta Osiyo mamlakatlarida yagona bo'lgan Tursunzoda (Regar) shahridagi Tojikiston alyuminiy zavodi ham Norak GESiga yaqin joyda qurilgan. Olmalikda yirik rangli metallurgiya va kimyo korxonalari shu yerdagi IEM hamda Yangi Angren IESidan, Chirchiq sanoat majmuasi Chirchiq kaskad GES quvvatlaridan foydalanadi. Farg'onadagi kimyo, neftni qayta ishlash va boshqa sanoat korxonalari bu shahardagi yirik IEMdan elektr energiyasini oladi.

Demak, elektr quvvati omil sifatida bir qator sanoat tarmoqlarini o'z atrofida «yig'ar» ekan. Shu sababli, u katta yirik rayon va hududiy majmua hosil qilish qudratiga ega. Bizning sharoitimizda elektr quvvati yangi yerlarni o'zlashtirish uchun ham kerak. Jumladan, qarshi dasturning asosiy qismi Tollimarjondagi bir qator nasos stansiyalari vositasi bilan sug'oriladi. Elektr quvvati Norak-Tursunzoda-/uzor orqali keladi. Hozirgi kunda esa shu yerning o'zida juda yirik, mahalliy tabiiy gaz asosida ishlaydigan Tollimarjon IESI qurilmogda.

Respublikamizda bulardan tashqari Sirdaryo, Angren, Toshkent, Navoiy, Taxiatoosh IESlari, Andijon, Chorboq, Xo'jikent, Tuyamo'yin va boshqa GESlar mavjud. Ular yiliga 50 mlrd kVt/soatdan ko'prog elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Bu esa

rangli metallurgiya, kimyo kabi «energiyatilab» tarmoqlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichida eng muhimi aholi va mehnat resurslaridir. Albatta, har qanday ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchi siz sodir bo'lmaydi. Ammo bu o'rinda ikki holni qayd etish lozim: birinchidan, shunday korxonalar borki, ularga son jihatidan ko'p ishchi kerak. Masalan, tikuv fabrikasi, konserva zavodi, paxta yetishtirish, uni qayta ishlash korxonalarining mehnat sig'imi katta va h.k. Ayni bir paytda boshqa bir korxonalarga mehnat resurslarining miqdori ko'p bo'lishi shart emas, aksincha, «oz bo'lsa ham, soz bo'lsin» ma'nosida ularga malakali, ya'ni sifati ishchi kuchi talab qilinadi. Mazkur korxonalar va tarmoqlar radio yoki priborsozlik, aniq mashinasozlik va shunga o'xshash, odatda, malakali ishchi kuchi mavjud bo'lgan shaharlarda joylashtiriladi. Bunday ixtimalab korxonalarni tashkil etishda ba'zi rivojlangan mamlakatlarda maxsus texnopolis va fan shaharlari yaratiladi.

O'zbekistonda mahalliy aholining tabiiy ko'payishini nisbatan yuqoriligi va uning migratsion harakatining faolisizligi mehnat zahiralarini ko'plab shakllanishiga olib keladi. Shu sababli Respublikada mehnatga layoqati aholi soni miqdoran juda ko'p. Ularning soni, ayniqsa, qishloq joylarida va sust rivojlangan kichik shaharlarda yuqori. Binobarin, bunday joylarda ish o'rinlarini kengaytirish, yangi sanoat va boshqa korxonalar, madaniy-maishiy muassasalarni qurish, mehnat bozorini shakllantirish kerak.

Aholi, albatta, faqat ishchi kuchi emas, u balki ko'proq darajada iste'molchi hamdir. Bu omilning roli esa hozirgi kunda xalqning yashash sharoiti va darajasini yaxshilash doirasida keskin oshib bormoqda. Muvaqqat ijtimoiy qiyinchiliklarni yengillashtirish uchun aholining kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va uning boshqa ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlarni yetarli darajada ishlab chiqarish talab etiladi. Shu bois iste'mol omili oziq-ovqat korxonalarini o'ziga «tortadi», ya'ni bunday zavod yoki fabrikalar, aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari qishloq va shaharlarda joylashtiriladi.

Iste'mol omili faqat xalq ehtiyoji bilan belgilanmaydi. Ishlab chiqarishning o'zini talabi, boshqa xil mahsulotlarning keng miqdorda sarflanishi, ularning transportda keltirishning noqulayligi ham bunday korxonalarning iste'mol rayonlarida qurilishini taqozo

etadi. Masalan, qishloq xo'jaligi mashinasozligi o'sha mintaqaning ishlab chiqarish ixtisoslashuviga muvofiq shu yerning o'zida rivojlantirilishi zarur. Umuman, qaysi rayon nimaga ixtisoslashsa, o'sha mashinasozlik tarmog'i bu yerda yaxshi rivojlangan bo'lishi qonuniy bir holdir. O'zbekistonda paxta teruvchi, Belorussiyada kartoshka, Ukrainada g'alla yig'uvchi, qirg'izistonda pichan taxlovchi, Gruziyada choy teruvchi mashinalarni ishlab chiqarish bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xuddi shunday rayonlarning ma'lum bir sanoat tarmoqlariga ixtisoslashuvi o'sha sohalariga tegishli mashina, asbob-uskuna, jihozlar ishlab chiqarilishini talab etadi. Chunonchi, Uralda metallurgiya sanoati uchun, Bokuda neft, Donbassda ko'mir, Petrozavodskda o'rmon, O'zbekistonda to'qimachilik mashinasozligi rivojlangan.

Ayrim boshqa sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ham aholi yashab turgan joylarda o'rinishitirish maqsadga muvofiq. Masalan, ko'p iste'mol qilinadigan, qishloq xo'jalik mahsulotlari-sut, pivoz, karam va boshqalar shahar atrofi xo'jaligi doirasida yetishtiriladi. Boshqa misol: neftni keltirib, undan benzin, kerosin, mazut va shunga o'xshash turli mahsulotlarni olish, kimyo sanoatini rivojlantirish ma'qulmi yoki mahsulotlarning har birini alohida-alohida keltirish-mi? Tabiiyki, bu yerda birinchi variant ma'qulroq. Xuddi shunga o'xshash: boshqa joylardan g'alla keltirib, undan har xil mahsulotlar-un, suxari, pechenye, makaron, vermishel kabiylarni ishlab chiqarish qulay va arzonroq.

Go'sht sanoatini joylashtirish ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bu sanoat bevosita chorvachilik rayonlarida rivojlantirilsa, unda iste'molchiga faqat muzlagan go'sht keladi. Bunday go'shtdan esa kolbasa, konserva, qiyima go'sht yoki boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarib bo'lmaydi. Aksincha, agar go'sht sanoati iste'mol rayonlarida o'rnatilsa-chi? Unda molni keltirishi kerak, ammo bu davrda biroz bo'lsada u o'z tirik vaznini yo'qotadi. Bundan tashqari, go'sht mahsulotini ishlab chiqarish molning juni va terisi, qoni va suyagidan shu joyning o'zida foydalanish imkonini bersa-da, mazkur zavodlarni shahar ichida o'rnatirish ekologik nuqtai nazardan yaxshi emas.

Bir vaqtlar yirik go'sht kombinati Toshkentning Beshyog'och dahasida, Bo'zsuv arig'i bo'yida qurilgan edi. Bu korxona o'z

navbatida ko'pchilik, poyafzal sanoatining aynan shu rayonda shakllanganligiga sabab bo'lgan. Keyinchalik kombinatning shahar ichida joylashtirilishini ko'p jihatdan noma'qulligi sezilib qoldi. Natijada, u Zangiota tumaniidagi O'rtaovu shaharchasiga chiqarildi. Demak, bu korxona ko'pincha chorvachilik rayonida ham, yirik shaharda ham emas-ekologik bexatar, iste'molchiga nisbatan yaqin joyga qurildi.

Transport omili juda muhim, chunki u ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmog'i hisoblanadi. Transport infrastrukturasi bo'lmasa xom ashyo ham keltirilmaydi, mahsulot ham is'molchilarga yetkazilmaydi, hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmaydi. Shuning uchun transportning ahamiyati barcha boshqa omillar ta'siri bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketadi va uni «sof» holda ajratib olish qiyin. Shu bilan birga transport masalasi iqtisodiy geografik o'rin omili bilan ham chambarchas bog'liq. Zero, bu o'rin obyektning eng avvalo tashqi iqtisodiy munosabatlarini anglatadi.

Ishlab chiqarishni joylashtirishning «qulayligi» ko'p jihatdan uning arzonligi, arzonligi esa asosan transport xarajatlarning kamaytirilishi demakdir. Shuning uchun ham ishlab chiqarishni joylashtirishdagi klassik g'oyalari: I.Tyunenning qishloq xo'jaligi shtandorti, A.Veberning sanoat shtandorti, V.Kristallerning «markaziy o'rinlari», A.Leshning «iqtisodiy landshaftlarin» transport omilisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Transport iqtisodiyot tizimining qon tomiri, harakatlantiruvchi kuchidir. U pirovard natijada ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning samadorligini ta'minlaydi.

Ayni vaqtda transport tarmog'ining o'zini ham joylashtirish qonuniyatlari va omillari mavjud. Ular tabiiy geografik, iqtisodiy va siyosiy mazmunga ega.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda **ilmiy-texnika taraqqiyotining** ahamiyati ham juda yuqori. Ushbu omilning ta'siri bir qator tarmoqlarni hududiy tashkil etilishida aniq va ravshan ko'rinadi. Masalan, «Ilmtalab» mashinasozlik zavodlari yuksak darajada fan-texnika salohiyatiga ega bo'lgan yirik shaharlarda joylashtiriladi.

Yuqorida ko'rilgan omillarning ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishga ta'siri ularning barchasi «ekologik omil» bilan

muvoqlashtirilishi kerak. Zotan vujudga kelgan vaziyat buni qat'iylilik bilan talab etadi.

Ekologik jihatdan va eng avvalo kimyo, sellyuloza-qog'oz, go'sht, vino, konserva, charrn zavodlari, issiqlik elektrostansiyalari «nomaqbul» hisoblanadi. Binobarin, ular aholi joylashgan markazlardan uzoqroqda bo'lgani yaxshiroq.

Ekologik omilning ishlab chiqarishning hududiy tashkil etishiga ta'sirini kimyo sanoati misolida ko'rish ayniqsa namunaviydir, chunki bu sanoat korxonalarini joylashtirilishi juda erkin xususiyatga ega. Sababi-ular o'simlik, hayvonot, mineral xom ashyosi, suv, havo asosida, boshqa sanoat chiqindilari (qora va rangli metallurgiya) negizida ham rivojlanishi mumkin.

Shunday qilib, kimyo sanoati korxonalarini istagan joyda qurish imkoniyati bor. Ammo, bu masalaning bitta nozik tomoni bor-bu ham bo'lsa ekologik omildir va u bilan ayniqsa hozirgi kunda hisoblashmasdan iloj yo'q. Zero, Yer yuzida ekologik sog'lom joyning o'zi juda sanog'li.

Yuqoridagilardan tashqari bozor iqtisodiyoti omilini ham unutmasilik kerak. Sodda qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti-bu ishlab chiqarish erkinligi, raqobat va ochiq iqtisodiyot yurgizishdir. Bunday sharoitda ko'p ukladi iqtisodiyot, mulkchilikning turli shakllari va raqobat, qulay investitsiya makonini vujudga keltirish, monopoliyaga qarshi kurash muhim ahamiyat kash etadi. Shu bois bozor iqtisodiyoti omilini ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etishga nisbatan tahlil etar ekannimiz, unda bu boradagi ilgirigi an'anaviy fikr yuritishlar tamomila o'zgarib ketishi kerak. Chunki, bu sharoitda aksariyat narsani, shu jumladan nimaga ixtisoslashuvni va qayerda joylashtirishni pirovard natijada bozor, raqobat, talab belgilaydi, davlat esa o'zining mintaqaviy siyosati orqali bu jarayonni boshqarib, tartibga solib turadi.

Hozirgi kunda infrastruktura tizimining mavjudligi ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Yo'l, yer osti va yer usti qurilmalari, elektr uzatuvchi shaxobchalar, turar joy, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari muhayyo bo'lgan joylar yangi ishlab chiqarishni, qo'shma korxonalarini o'ziga jalb qiladi. Xorijda bunday joylarni sanoat parki deb atashadi.

Infrastruktura tizimida xususan transportning o'zni yuqori. Chunki, transportisiz ishlab chiqarish jarayonining o'zi ham

bo'lmaydi, transport xarajati esa mahsulot tannarxiga kiradi. Shuningdek, ijtimoiy infraqurktura tarmoqlari ham ishlab chiqarishni joylashtirishda muhimdir.

O'tish davrida ayniqsa bozor infraqurkturasining ahamiyati katta. Bozor iqtisodiyotining o'zi esa ishlab chiqarishni joylashtirishda hal qiluvchi omildir. Sababi- bozortalab sohalargina rivojlanadi; bozori chaqon mahsulotlarni ishlab chiqargan tadbirkorlar yengadi.

Bozor (talab va taklif), erkin raqobat, u yoki bu mahsulot ishlab chiqaradigan makoni, bozor muhitini belgilaydi. Shu bois, talabning nafqat miqdor jihatdan o'sib borishini, balki uning xususiyashuvini, sifatini e'tiborga olish, ixcham, harakatchan, boshqarishi oson bo'lgan kichik va o'rta korxonalarini joylashtirish o'tish davri uchun ayniqsa xosdir. Bu davrda vaqt va makondan unumli foydalanish o'ta zarur.

Hozirgi vaqtda qulay investitsiya makonini yaratish ham katta mazmun kasb etadi. Infraqurktura va boshqa sharoitlarning mavjudligi, huquqiy va tashkiliy masalalarning hal etilganligi, kafolatlanganligi xorijiy sarmoyadorlarning kirib kelishiga qulaylik yaratadi. Ko'pincha investorlar huquqiy jihatdan kafolatlangan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, arzon ishchi kuchi bo'lgan hududlarni qidiradilar. qurilgan qo'shma korxonalar esa mintaga va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga, uning tarmoqlar va hududiy tarkibiga sezilarli o'zgarishlar kiritadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu borada tadbirkor albatta foydani, qo'shimcha daromadni ko'zlaydi, davlat esa ish o'rinlarini ko'paytirish, mehnat resurslarini band qilish, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish, hududlar rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirishga intiladi. Demak, bunday vaziyatda har ikki yo'nalishni muvofqlashtirgan holda masalani yechish talab etiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar ta'sirini misollar yordamida tushuntirib bering.

2. Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilishning asosiy qonuniyat, prinsip va omillari o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?

3. Joyning ekologik sig'imi va uning ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishga ta'siri nimalarda o'z aksini topadi?

4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirish qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?

4-mavzu. Mintaqalar aholisi va mehnat resurslari

Reja:

1. Aholini o'rganishdagi uch asosiy xususiyati.
2. O'zbekiston aholisining o'sishi dinamikasi.
3. Respublika aholisi joylanishining xususiyatlari.
4. Mamlakatda urbanizatsiya darajasi.

Tayanch tushunchalar: *aholi, ishlab chiqaruvchi kuch, aholi dinamikasi, urbanizatsiya, aglomeratsiya, mehnat resurslari, tug'ilish, o'lim, migratsiya.*

Amerikalik mashhur olim U.Ayzard fikricha, u yoki bu hududning xo'jaligi murakkab jumboq bo'lib, uni yechishni aynan aholi bo'g'inidan boshlamog kerak. Darhaqiqat, aholi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tushunchadir, u bilan ishlab chiqarish "boshdan oyoq", chambarcham bog'liq. Chunki, mehnat resurslarisiz ishlab chiqarish bo'lmaydi, ishlab chiqarish esa aholi uchun kerak; moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi ham, ularni iste'molchisi ham aynan ana shu aholi, ya'ni kishilarning ma'lum hududdagi birligidir.

Aholini iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida o'rganishda uning uch asosiy xususiyati e'tiborga olinishi zarur:

✓ aholi – ishlab chiqaruvchi kuch (aholining iqtisodiy funksiyasi);

✓ aholi – asosiy iste'molchi (ijtimoiy, sotsial funksiyasi);

✓ aholining o'z-o'zini takror barpo qilishi (demografik jihat).

Albatta, ushbu fan nuqtai nazaridan eng avvalo aholining birinchi va ikkinchi xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular aholini ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya ekanligini o'zida uyg'unlashtiradi. Qolaversa an'anaviy iqtisodiy geografiya fanining evolutsion tarzda "iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" maqomini rasmiy olishi ham aynan inson omili, aholi va uning ijtimoiy rivojlanishining hududiy jihatlarini tadqiq qilish natijasidan kelib chiqqan. Aholining uchinchi xususiyati, ya'ni uning takror barpo bo'lishi esa bevosita demografiya fanining tadqiqot obyekti bo'lib, ushbu jarayonning hududiy tafvutlarini o'rganish demogeografiya yoki geodemografiya yo'nalishiga mos tushadi.

O'zbekiston Respublikasi aholi soni bo'yicha dunyo miqyosida o'rtaacha demografik salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Uning aholisi, 1 yanvar 2022 yil ma'lumotlariga binoan 35,2 mln.

kishidan ziyodrog'ni tashkil etadi. Bu borada, u MDH mamlakatlari orasida Rossiya va Ukrainadan keyingi uchinchi va Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa birinchi o'rinni egallaydi.

Mamlakatimizning demografik tarixi uning aholisini turli davrlarda har xil sur'atlarda o'sib borganligi bilan tavsiflanadi. Masalan, 1897 yilda o'kazilgan Umumrossiya aholi ro'yhati ma'lumotlari bo'yicha hozirgi O'zbekiston hududida 3948 ming kishi istiqomat qilgan. 1913 yilga kelib, ya'ni 15 yildan so'ng bu raqam 4331 mingga yetgan. 1926 yil aholi ro'yhai natijalari esa bu yerda 4629 ming kishini qayd etgan va o'tgan davr mobaynida aholi soni yiliga o'rtaacha 2,1 ming kishidan ortib borgan.

Keyingi davrlarda respublika aholi sonining o'sishiga sobiq Ittifoqda yuz bergan siyosiy va iqtisodiy voqealar jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Ikkinchi jahon urushi arafasida (1939 y.). O'zbekiston aholisi 6347 ming kishini tashkil etgan holda, u 20 yildan so'ng, ya'ni 1959 yilda 8119 ming kishidan iborat bo'lgan. Bu davr oralig'ida umumiy ko'payish 1772 ming kishi, o'rtaacha yillik ko'payish esa 88,6 ming kishiga teng bo'lgan. Ushbu qiyosiy raqamlar respublika aholi soni o'sishining birmuncha jadallashganidan dalolat beradi (nisbiy ko'rsatkichlarda yillik o'rtaacha ko'payish 1,25 %). Tabiiyki, urush jarayonida front va front orqasida aholi o'limi ko'p bo'lmaganda respublika aholisi bundan ham tezroq o'sib borgan bo'lar edi.

Navbatdagi ikki aholi ro'yhati oralig'ida (1970-1979 yy.) O'zbekiston aholisi 11774 ming kishidan 15389 ming kishiga yetgan; mutloq ko'payish 3615 ming, o'rtaacha bir yillik ko'payish 402 ming, nisbiy o'sish 130,7 %, o'rtaacha yillik ko'payish esa 3,00 foizga barobar bo'lgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston aholisining eng tez (intensiv) ortib borishi aynan shu davrda qayd etiladi.

Sobiq Ittifoqda o'kazilgan so'nggi aholi ro'yhati (1989 y.) O'zbekiston hududida 19780 ming kishini ko'rsatgan. 1979-1989 yillar mobaynida respublika aholisi 4391 ming kishiga ortgan va yillik o'rtaacha ko'payish 2,55 foizni tashkil qilgan. Bu esa oldingi davrga qaraganda 0,45 foizga kam demakdir.

O'zbekistonda demografik jarayonlarning rivojlanishi yoki o'zgarib borishi keyingi yillarda ikki asosiy siyosiy-iqtisodiy omillar tufali yuz bergan. Bu ham bo'lsa O'zbekiston Respublikasining 1991

yilda siyosiy mustaqillikka erishishi va uning milliy iqtisodiyotini bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tishidir.

1989-2000 yillarda mamlakat aholisi 123,8 foizga o'sgan, bir yillik ko'payish pasayib borish jarayonida davom etib, 1,95 foizga barobar bo'lgan. Shu davrda demografik rivojlanish bo'yicha respublikamizning janubiy mintaqalari – Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari yetakchilik qilgan. Ularda umumiy o'sish, mos ravishda, 139, 2 va 136,0 foiz bo'lgan. Ushbu hududlarda aholi sonining tez ko'payib borishi (boshqa viloyatlarga qaraganda) keyingi yillarda ham davom etib, mamlakat aholisi hududiy tarkibida uning janubiy yo'nalishda birmuncha "surilishga" olib kelgan.

Ko'rilayotgan davrda Namangan, Xorazm, Jizzax, Andijon hamda Samarqand viloyatlarida ham aholi sonining o'sib borishi respublika o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqoriroq darajada kechgan. Ayni vaqtda Navoiy, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida bu ko'rsatkich pastroq bo'lgan: poytaxt – Toshkent shahrida esa o'sish juda sust bo'lib, bu yerda bir yillik ko'payish atigi 0,10 foizga teng bo'lgan, xolos.

2001-2021 yillar davomida respublika aholi o'sish sur'atining pasayishi yanada intensivlashgan. Ba'zi yillarda bir yillik ko'payish hatto 1,10-1,15 foizga ham tushib qolgan, eng so'nggi yillarda esa bu ko'rsatkich birmuncha ko'tarilib, 1,40-1,50 foizga yetgan. Biroq, shunga qaramasdan umumiy xulosa qilish mumkinki, respublikamiz aholisining ko'payish sur'ati o'tgan asrning 70 yillariga qaraganda 2,0-2,2 marta qisqargan.

3-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, 2001-2021 yillarda aholi soni mutloq o'sishda davom etgan bo'lsada, uning sur'atlari yanada pasayib borgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bunday jarayon butun jahon aholisida ham kuzatilmog'da; qator Yevropa mamlakatlari esa aholi sonining qisqarishi, ya'ni depolyatsiya jarayonini boshdan kechirmog'da. Bunday vaziyat MDH mamlakatlarida ham, xususan Rossiya, Belarus va Ukrainada keskin tus olgan. Tahlillar ko'rsatishicha, o'ziga xos "geodemografik to'liqlar" hatto qo'shni Qozog'iston Respublikasining deyarli barcha viloyatlarida ham kuzatilmog'da va bu mamlakatda asosan uning O'zbekistonga tutash hududlari, ya'ni Janubiy Qozog'istonda

aholi sonini mutloq ko'payishi yoki uning turg'unlashuvi kuzatilmog'da, xolos.

Respublikamizda ham bunday geodemografik to'liqlar kuzatiladi. Bu yerda aholi soni o'sish sur'atining pasayishi avvalo Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qayd etilib, mamlakatning boshqa hududlarida bu jarayonning asta-sekin so'nib borishi yoki tezligining qisqarishi qayd etiladi. Boshqacha qilib aytganda, O'zbekistondagi yangi demografik o'zgarishlar (tug'ilish va tabiiy ko'payishning pasayib borishi) markazda boshlanib, ma'lum vaqt davomida u bosqichma-bosqich boshqa viloyatlarga tarqaladi; Toshkent shahri va poytaxt viloyatida kuzatilgan vaziyat respublikaning janubiy viloyatlari – Surxondaryo va Qashqadaryoda birmuncha vaqt o'tgandan so'ng kuzatiladi yoki takrorlanadi. Qayd etish joizki, bu ikki "demografik qutb" o'rtasida jarayon o'zgarishining tezlik muddati tobora qisqarib bormog'da.

Aholi salmog'i ko'ra Samarqand viloyati birinchi, Farg'ona – ikkinchi, Toshkent viloyati uchinchi o'rinda turadi. Demografik salohiyatning eng past miqdori Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida (1-jadvalga qarang) kuzatiladi. Umuman olganda, respublikaning 5 ta viloyatiga (Samarqand, Farg'ona, Toshkent, Qashqadaryo va Andijon) jami aholining deyarli 40 foizi to'g'ri keladi.

So'ngi yillarda mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Buxoro, Sirdaryo, Toshkent viloyati va Toshkent shahri aholisining o'sishi mamlakat o'rtacha darajasidan past bo'lgan va ularning jami respublika aholisidan ulushi qisqargan. Aholining nisbatan jadal o'sishi Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand kabi viloyatlarda kuzatiladi. Natijada, bu hududlarning demografik salohiyati yanada ko'tarilgan.

Respublika hududining tabiiy sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarining turli-tumanligi aholi joylashuviga ham ta'sir qiladi. Mamlakat bo'yicha aholi joylashuvining o'rtacha zichligi 1 km² va 78,5 kishidan iborat bo'lgan holda, u Navoiy viloyatidagi 9,3 kishidan Andijon viloyatida 752,9 kishiga farq qiladi. Bu boradagi ichki tafovut yoki geografik koeffitsiyent 79,9 marta teng.

Tarixan aholi mamlakatimizning sug'oriladigan voha va vodiylarida zich joylashgan. Chunonchi, bu ko'rsatkich Farg'ona, Namangan, Xorazm viloyatlarida ham ancha yuqori.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Navoiy viloyati O'zbekiston hududining 61,9 foizini tashkil qilsada, bu yerda mamlakat aholisining atigi 8,9 foizi yashaydi; shu bois, aynan ana shu ikki ma'muriy birlik respublika aholisi joylashuvining o'rtaacha ko'rsatkichiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval
O'zbekiston Respublikasi aholisining hududiy tarkibidagi o'zgarishlar

№	Hududlar	2001	2021	2001-2021 yillar	Zichlik, 1 kv.km. ga kishi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1527	1939,5	127,0	11,6
2	Andijon	2216,5	3237,3	146,1	752,9
3	Buxoro	1437,7	1968,3	136,9	48,8
4	Jizzax	991,5	1434,9	144,7	67,7
5	Navoiy	791,1	1028,3	130,0	9,3
6	Namangan	1953,2	2914,2	149,2	393,8
7	Samarqand	2710	4088,5	150,9	243,4
8	Sirdaryo	649,9	873,8	134,5	203,2
9	Surxondaryo	1770,4	2726,1	154,0	135,6
10	Toshkent	2370,2	3000,1	126,6	196,1
11	Farg'ona	2697,5	3878,1	143,8	570,3
12	Xorazm	1347,7	1914,5	142,1	313,9
13	Qashqadaryo	2212,5	3388,9	153,2	118,5
14	Toshkent sh.	2137,9	2840,9	132,9	7102,3
	O'zbekiston Respublikasi	24813	35233,4	142,0	78,5

Manba: Jadval O'zR Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Buxoro va Jizzax viloyatlarida ham aholi zichligi uncha yuqori emas, Surxondaryo va Qashqadaryoda esa u o'rtaacha ko'rsatkichdan birmuncha yuqori. Biroq shunga qaramasdan, hatto bu hududlarning ham ichki, qadimdan sug'oriladigan rayonlarida (masalan, Vobkent, Shofirkon, G'ijduvon, Shahrisabz, Kitob, Qarshi, Yakkabog' tumanlarida) aholi ancha zich joylashgan. Umumiy tarzda

respublika aholi joylashuvi ko'p jihatdan gidrografik shahobchalar-sug'oriladigan daryo va irrigatsiya inshootlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, yirik shaharlar, ayniqsa Toshkent aglomeratsiyasi doirasidagi qishloq tumanlarida ham aholi joylashuvi juda zich (1 km² ga 800-850 kishini tashkil etadi).

2022 yil ma'lumotlariga binoan O'zbekiston Respublikasining 51,0 foiz aholisi shahar joylariga to'g'ri keladi. Shahar aholisining oldingi yillardagi miqdori quyidagicha bo'lgan (ming kishi hisobida): 1926 y. - 1002; 1939 y. - 1470; 1959 y. - 2729; 1970 y. - 4327; 1979 y. - 6348, 1989 y. - 8059 va 2000 yilda 9166 ming kishi. Shahar aholisining o'sish sur'ati ayniqsa 70-80 yillarda yuqori bo'lgan. Bunga sabab - 1972 yilda aholi manzilgohlarining shahar maqomiga o'tkazish uchun talab etiladigan eng kam aholi miqdorini 10 mingdan 7 mingtagacha tushirishi va buning oqibatida shaharlar sonining nihoyatda tez ko'payishidir (agar 1970 yilda respublikada 42 shahar mavjud bo'lgan bo'lsa, 1979 yilda ularning soni 90 taga yetgan).

1989-2009 yillarda shaharliklar sonining o'sishi ancha susaygan. Natijada umumiy urbanizatsiya ko'rsatkichi 40,7 foizdan 35,8 foizga tushib qolgan. Viloyatlar darajasida mazkur jarayon ayniqsa Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Xorazmda sezilarli bo'lgan va u faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax hamda Namangan viloyatlarida birmuncha ko'tarilgan.

2009 yilni respublikamizda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligiga yil" deb e'lon qilinishi munosabati bilan urbanistik vaziyatda keskin o'zgarish yuz berdi. Yangi urbanistik siyosat tufayli O'zbekistonda birdaniga 966 qishloq aholi punktiga shaharcha shaharcha maqomi berildi. Ularning hozirgi real holatini hisobga olib, "agrosaharlar" yoki "qishloq shaharlari" deb atash mumkin.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, eng ko'p yangi shaharchalar Farg'ona viloyatida tashkil etilgan - 196 ta. Shuningdek, bunday manzilgohlar Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan viloyatlarida ham ancha ko'p - har birida yuztadan ortiq. Birmuncha kamroq yangi shaharchalar Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etiladi. Umumiy urbanizatsiya darajasining eng yuqori ko'rsatkichi Namangan viloyatida - 64,3 %. Bu ko'rsatkich Farg'ona va Andijon viloyatlarida ham o'rtaachadan yuqori. Nisbatan urbanizatsiyalashmagan

mintaqalar Xorazm, Surxondaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlari hisoblanadi.

Urbanizatsiya jarayoni va uning yakuniy ko'rsatkichi, odatda, hududlar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi, shahar hosil qiluvchi omillarning mavjudligiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan Qorqalpog'iston va qisman Navoiy viloyatida mazkur ko'rsatkichning birmuncha yuqoriligi ko'rilayotgan hududlar sanoat salohiyatidan emas, balki bu joylarda intensiv qishloq xo'jaligini rivojlantirish sharoitlarining cheklanganidan darak beradi. Faqat poytaxt – Toshkent viloyatida u haqiqiy real vogelikni aks ettiradi, chunki bu yerda, boshqa viloyatlarga qaraganda, sanoat tarmoqlari nisbatan yaxshiroq rivojlangan. Ammo bunday xulosani Namangan va Farg'ona viloyatlari uchun qo'llash uncha to'g'ri bo'lmaydi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini shaharlar to'ri va tizimi ham yaqqol ifodalab beradi. Aksariyat hollarda shaharlar sonining ko'pligi, yirik shahar va shahar aglomeratsiyalarining mavjudligi hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining yuqoriligini ko'rsatadi. 2021 yil ma'lumotlariga ko'ra, respublikada 119 shahar va 1065 shaharcha mavjud. Shaharlar soni bo'yicha Qorqalpog'iston Respublikasi (12), Qashqadaryo (12) va Toshkent (16) viloyatlari ajralib turadi. Ayni vaqtda hududiy urbanistik tarkib Jizzax, Xorazm va Sirdaryo viloyat ularning to'ri lixxaz, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida yaxshi rivojlanmagan.

Iqtisodiyotning asosan qishloq xo'jaligi hamda qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashganligi sababli bu yerda kichik shaharlar to'ri juda keng tarqalgan. Jumladan, respublikada katta shaharlar (100 ming aholi va undan ortiq) 17 ta, o'rta shaharlar (50-100 ming kishi) 19 ta, "yarim o'rta" shaharlar (20-50 ming) 69 ta. Qolgan 1063 ta shahar va shaharchalarning har birida 20 ming kishidan kam aholi istiqomat qiladi.

O'zbekistonda 2009 yilda tashkil etilgan yangi shaharchalar

2-jadval

Hududlar	Yangi shaharchalar soni	Urbanizatsiya ko'rsatkichi (2021 y., %)
O'zbekiston Respublikasi	966	51,1

shu jumladan:		
Qorqalpog'iston Respublikasi	11	49,8
viloyatlar:		
Andijon	78	53,1
Buxoro	60	38,3
Jizzax	34	48,0
Navoiy	30	43,4
Namangan	109	64,3
Samarqand	76	36,8
Sirdaryo	16	41,3
Surxondaryo	107	36,5
Toshkent	79	49,5
Farg'ona	196	57,4
Xorazm	51	33,7
Qashqadaryo	119	43,4

Manba: Jadval O'zR Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.

O'zbekistonda jami 17 ta katta shahar mavjud bo'lib, ularga respublika shahar aholisining 39,5 foizi to'g'ri keladi. Aholi soniga ko'ra Toshkentdan keyingi o'rinlarda Namangan, Samarqand, Andijon, Buxoro, Nukus, Qarshi shaharlari turadi. Shuningdek, Chirchiq, Olmaliq, Angren, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarining ham har birida 100 mingdan ziyod aholi bor. Ayni vaqtda Sirdaryo viloyatining ma'muriy markazi – Gulistonda atigi 61,4 ming kishi yashaydi. Shu bilan birga, yirik markazlar negizida shaharlar hududiy tizimining murakkab shakllari ham vujudga kelgan. Chunonchi, Toshkent Samarqand, Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyalari shular jumlasidandir.

Boy tarixga ega bo'lgan, urbanizatsiya jarayonining "osiyocha" yoki sharqona shakli qishloq xo'jaligining sug'orma dehqonchiligi va u bilan bog'liq shaharlar to'riga asoslanadi. Binobarin, sharq tarixi va sharq madaniyatini sug'orma dehqonchilik hamda qishloq va shaharlarning ajralmas birligi, urbanizatsiyaning o'ziga xos yo'nalishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois ham respublikamiz iqtisodiyoti va demografik salohiyati asosan qishloq xo'jaligi va qishloq aholisidan tashkil topgan.

Joriy ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda 11831 ta qishloq aholi manzilgohlari bor. Qorag'olpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarining har birida mingdan ortiq qishloqlar mavjud, ularning eng kam miqdori esa Sirdaryo viloyatida – 284 ta. Respublikamizda o'rtacha har bir qishloqqa 1300 kishi to'g'ri keladi. Bu jihatdan Namangan va Andijon viloyatlari oldinda turadi. Hududi qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun uncha qulay bo'lmagan Qorag'olpog'iston Respublikasi hamda Buxoro va Navoiy viloyatlarida esa qishloqlar ancha kichik (o'rtacha 640-700 kishi).

2009 yil – "Qishloq farovonligi va taraqqiyoti" yili deb e'lon qilinishi munosabati bilan qishloq joylar ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa qishloq aholisini elektr energiya, ichimlik suvi hamda tabiiy gaz bilan muntazam ta'minlash, aholi bandligi masalalarini hal etish "Qishloqlar rivojlanishi" Davlat dasturida ustuvor vazifalar qilib belgilangan. Shu bilan birga aholisi ko'p, sanoat va qurilish inshootlari mavjud bo'lgan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma shahobchalari yaxshi rivojlangan yirik qishloqlarning ba'zilariga shahar yoki shaharcha maqomi berilmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda yirik qishloqlar xususan Samarqand, Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlarida ko'p. Tabiiy sharoiti xo'jalik yuritish va aholi joylashuvi uchun nisbatan noqulay bo'lgan hududlarda esa ularning soni ozroq. Masalan, respublikamizning "eng tog'li" va "eng qishloqli" viloyati – Surxondaryoda bunday aholi manzilgohlari ancha kam.

Yuqoridagilarga mos ravishda qishloq joylarda mehnat resurslari ham ko'p va hatto ular keragidan ham ortiqcha. Ish o'rnlarning yetishmasligi, ishsizlik, mehnat bozorining faol emasligi aholisi zich joylashgan vo'ha va vodiylarda ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aynan shuning uchun ham respublikada qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishga, qishloq sanoati va infratuzilmasini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng miqyosda rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu dalzab masala davlatning mintaqaviy siyosatida o'z yechimini topmog'i lozim.

O'zbekiston aholisi asosan tabiiy ko'payish natijasida oshib boradi. Bu omilning roli hamnavabt ham yuqori bo'lgan. Eng so'nggi

yillarda esa u aholi soni o'sishining birdan bir manbai bo'lib kelmoqda. Biroq ta'kidlash joizki, 90-yillarda aholining takror barpo bo'lish jarayonida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi; endi respublikamizni an'anaviy holatda tug'ilish yoki tabiiy ko'payish yuqori mamakat sifatida ta'rifiash uncha to'g'ri emas.

Tug'ilish koeffitsiyentining keskin qisqarishi eng so'nggi yillarga to'g'ri keladi. Masalan, tug'ilish 1990 yilda 33,7 promillega teng bo'lgan holda, 1999 yilda u birdaniga 22,3 promillega tushib qolgan, ya'ni bu qisqa davrda mazkur ko'rsatkich 11,4 punktga yoki 1,5 marta kamaygan. 2011 yilda har ming kishiga nisbatan tug'ilish 21,4, o'lim 4,9 va tabiiy ko'payish 16,5 kishini tashkil etadi. O'lim darajasida keskin o'zgarishlar bo'lmaganligi sababli aholining tabiiy ko'payishi asosan uning tug'ilish ko'rsatkichlariga bog'liq.

O'zbekiston sharoitida kichik shaharchalarning ko'pchiligida real demografik vaziyat oddiy qishloqlardagi holatga o'xshab ketadi. Ammo, shu bilan birga ta'kidlash lozimki, ba'zi bir yuqori darajada sanoatlashgan shaharlarda tug'ilish darajasi ancha past. Chunonchi, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, tug'ilish har 1000 aholiga Chirchiq, Yangiobod, Kogon kabi shaharlarda 12-13 kishi atrofida. Hatto tipik sharqona shaharlarimizda ham (Samarqand, Buxoro, Qo'qon va b.) mazkur ko'rsatkich 14-15 promillega teng. Natijada, aholining tabiiy ko'payishi ancha kam – Chirchiq yoki Yangiobodda u 5 promillega ham yetmaydi. Albatta, bunday demografik vaziyat respublikamiz uchun uncha an'anaviy emas. Bu, o'z navbatida, demografik jarayonlarda ham o'ziga xos o'tish davri kechishidan dalolat beradi. Tabiiyki, bu jarayonlar yaqin kelajakda mehnat resurslarining shakllanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Viloyatlar bo'yicha tug'ilish va tabiiy ko'payishning nisbatan katta ko'rsatkichlari Qashqadaryo va Surxondaryoda, ularning past darajasi esa Toshkent va Navoiy viloyatlarida kuzatiladi. Poytaxt viloyatida tabiiy ko'payish 14,3 promilleni tashkil etadi. O'lim ko'rsatkichlarida uncha katta tafovut yo'q; uning eng kam miqdori tug'ilish ancha yuqori bo'lgan Qashqadaryo viloyatida bo'lib, bunday nisbat mazkur hududda aholi sonining tezroq ortib borishiga olib keladi.

Respublika aholisining ko'payishida tashqi migratsiyaning ham roli bor. Ammo bu omilning ijobiy ta'siri ko'proq avvalgi yillarga

to'g'ri kelgan. 70- va, xususan, 80-yillar oxiridan boshlab ushbu jarayon O'zbekiston uchun manfiy natijaga ega bo'lgan. Bu asosan bir vaqtlar O'zbekistonga ko'chib kelganlarning yana o'z vatanlariga qaytib ketishlari natijasida yuz bergan.

Shuningdek, keluvchilar soni muntazam ravishda kamayib borgan, ketuvchilar miqdorida esa aniq, bir yo'nalisidagi jarayon uncha sezilmaydi. Masalan, respublikamizdan tashqariga ketganlarning eng ko'p miqdori 1990 yilda kuzatildi. Biroq, shu yili kelganlar soni ham nisbatan ko'p bo'lgan. Buning natijasida migratsiya qoldig'i (saldosi) minus 121 ming kishini tashkil qilgan. 1994 yilda ketganlar soni avvalgi yillarga qaraganda uncha ko'p bo'lmасаda, ammo kelganlar juda ozchilikni tashkil qilgan (mos ravishda 179 va 38 ming kishi), oqibatda migratsiya qoldig'i ko'rilayotgan davrda eng yuqori bo'lgan (minus 141 ming kishi). 2010 yilda kelganlar 139,8 ming, ketganlar 183,9 ming, migratsiya qoldig'i minus 44,1 ming kishi. 2012 yilda esa bu ko'rsatkichlar 135,9; 182,4 va minus 46,5 ming kishi.

L.P.Maksakova va O.B.Ota-Mirzayev ma'lumotlariga qaraganda, 1991-1997 yillarda respublika shahar joylari bo'yicha netto-migratsiya, ya'ni sof salbiy migratsiya qoldig'i rus millatiga mansub bo'lganlarda 302 ming, tatarlarda 95, yahudiylarda 50, ukrainlarda 28, nemislarda 20 ming kishini tashkil etadi. Ketuvchilarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, O'zbekiston Ukraina va Qozog'iston davlatlari bilan ham bo'lgan aholi aloqalarida ancha ko'p manfiy migratsiya qoldig'iga ega, uning musbat natijasi esa ko'proq Tojikiston hisobidan yuzaga kelgan.

Qayd etish lozimki, tashqi migratsiyada eng avvalo shahar aholisi qatnashadi. Binobarin, migratsiyaning salbiy oqibati ham aynan shaharlarda va, jumladan, rusiyazon xalqlar ko'proq joylashgan sanoat markazlarida kuzatildi. Shuning natijasida, masalan, Chirchiq, Olmalik, Angren kabi shaharlarda aholi soni 1991 yilga qaraganda kamaygan yoki juda oz darajada ortgan. Qolaversa, Toshkent shahrida ham aholi soni uncha ko'p o'smagan.

Tashqi migratsiyadagi vaziyat shahar joylardagi mehnat resurslarining miqdor va sifat jihatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunonchi, migratsiyada asosan katta yoshdagilar va malakali ishchi kadrlarning qatnashganlari sababli mehnat resurslaridan foydalanishda muvaqqat muammolar vujudga kelishi muqarar.

Aholining tabiiy va mexanik harakatidagi o'zgarishlar uning milliy, jins va yosh tarkibiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat, bu yerda 100 dan ortiq millat va elat vakillari teng huquqli bo'lib yashaydilar. 1989 yil aholi ro'yhatiga muvofiq, o'zbeklar jami aholining 71,4 foizini tashkil etadi. 90-yillarda bir vaqtlar ko'chib kelgan boshqa millat vakillarining reemigratsiya qilishi tufayli o'zbeklarning ulushi ko'paymoqda. Respublika aholisining hozirgi milliy tarkibi 3-jadvalda o'z aksini topgan. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda 2010 yilda 23,3 mln ga yaqin yoki jami aholisining 82 foizi respublikaning tub millati – o'zbeklarda to'g'ri keladi.

O'zbekistonning barcha hududlari ko'p millatli. Nisbatan sanovlashgan viloyat va shaharlarda mahalliy xalqlardan tashqari boshqa millat vakillari ham ko'p (Toshkent, Navoiy viloyatlari, Toshkent, Chirchiq, Angren, Olmalik, Zarafshon, Farg'ona va boshqa shaharlar). Shu bilan birga, Xorazm viloyati aholisi asosan bir millatli – 97,3 foiz aholi o'zbeklardan iborat. O'zbeklarning hissasi Toshkent shahri va viloyati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida kamroq, (3-jadvalga qarang).

3-jadval

3-jadval

Yuqilgan ma'lumotlar O'zbek Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Jadval: O'zR Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

O'zbekistonda taxminan 626 ming qoragalpoq millati yashaydi. Ularning aksariyati (94,2 %) Qoragalpog'iston Respublikasida joylashgan. Mamlakatimizda qadimdan tojiklar ham juda ko'p (1,4 mln ga yaqin) yashab kelgan. Ularning asosiy qismi Surxondaryo, Samarqand, Namangan va Farg'ona viloyatlarida joylashgan. Tojiklar, shuningdek, qisman Toshkent, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida ham yashaydi. Qozoqlar ko'proq Qoragalpog'istonda hamda Navoiy va Toshkent viloyatlarida, qirg'izlar Jizzax, Farg'ona va Andijon viloyatlarida, turkmanlar – Surxondaryo va Qashqadaryo, Qoragalpog'istonda joylashgan. Bularidan tashqari, respublikamizda ukrain, tatar, koreys, boshqird, arman, ozarbayjon va boshqa millat vakillari ham bor. Ularning ko'pchiligi shahar joylarida istiqomat qiladi.

Aholining jinsiy tarkibi tenglashib bormoqda; shaharliklar orasida ayollar ko'proq (50,2 foiz), qishloqlarda esa jinslar o'rtasidagi farq deyarli sezilmaydi. O'zbekistonda tug'ilish nisbatan yuqoriligi sababi aholi tarkibida yoshlar ulushi katta. Respublika aholisining taxminan 16 foizini 8 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi. Shuning uchun davlatning ijtimoiy siyosatida sog'lom, barkamol avlod tarbiyasiga, yoshlarga katta ahamiyat berilmoqda.

Respublikada mehnat resurslarining soni ko'p, biroq ularning jami aholi tarkibidagi ulushi oz. Buning sababi tug'ilish va tabiiy ko'payishning yuqoriligidir. Natijada, "demografik yuk" yoki mehnatga layoqati aholi bilan mehnatga layoqatsizlar nisbati o'ziga xos. Masalan, agar Boltiq dengiz bo'yi davlatlarida oilada 3 kishidan 2 kishi ishlasa, bizda, aksincha, 6 kishidan 2 yoki 3 kishi ishlashi mumkin, xolos.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 1.01.2022 yilda O'zbekistonda mehnatga layoqati yoshdagilar jami aholining 64,1 foizini tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi 12286,6 ming kishi, mehnat resurslari 16726,0 ming, iqtisodiyotda band bo'lganlar 11628,4 ming kishini tashkil qiladi. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda, noislahab chiqarish sohasida band bo'lganlar soni tezroq ko'payib bormoqda. Nodavlat sektorida band bo'lganlar 80 foizga yaqin. Barcha tuman va shaharlarda mehnat birjalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular asosan "Bandlik" Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha qator ishlarni bajarishadi. Jumladan, birgina 2010

yilda 600 mingdan ortiq yangi ish joylari tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi korxona va tashkilotlarga, xususan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermer xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Yangi ish joylarining 2/3 qismidan ortiqrog'i qishloq joylarda yaratilmoqda. Bu esa "Qishloq joylar rivojlanishi" dasturini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Aholini o'rganishdagi uch asosiy xususiyati qaysilar?
2. O'zbekiston aholisining o'sishida qanday o'zgarishlar sodir bo'lmog'da?
3. Respublika aholisi joylanishining xususiyatlarini izohlab bering.
4. Nima sababdan mamlakatimizda urbanizatsiya darajasi yuqori emas?
5. Mehnat resurslarining shakllanishiga aholining tabiiy va mexanik harakati qanday ta'sir qiladi?

5-mavzu. Mintaqalarning mineral xom-ashyo resurslari

Reja:

1. Mineral xom-ashyo resurslari.
 2. Foydali qazilmalar kategoriyalari.
 3. O'zbekistonning foydali qazilmalari.
 4. Mineral boyliklardan foydalanish imkoniyatlari.
- Tayanch tushunchalar:** *yoqilg'i boyliklari, qora metal, rangli metal, mineral boyliklar, xom-ashyo, oltin, uran, neft, gaz, ko'mir.*

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan uning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga bog'liq. Ular birgalikda hududning tabiiy-resurs salohiyatini belgilab beradi, bu salohiyat esa foydalanadigan tabiiy boyliklar bilan bir qatorda ulardan foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatlar, zahiralardan tashkil topadi. Binobarin, odatda, tabiiy resurs salohiyat baholanayotganda nafaqat real borliq, balki imkoniyat ham nazarda tutiladi va bu imkoniyatlardan foydalanish mamlakat iqtisodiy rivojlanish istiqbollari asosida yotadi.

Mineral-xom ashyo resurslari har bir mamlakatning eng muhim boylik manbaidir. Undan olinayotgan mahsulotlar insonning xilma-xil ehtiyojini qondiradi. Mineral-xom ashyodan turli metallar, yoqilg'i, qurilish materiallari, ximikatlari, qishloq xo'jaligi uchun o'g'itlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Yer ostidagi mineral hosilalar qidirilmagan va baholanmagan bo'lsa, u holda ular mineral xom ashyosifatida ko'rib chiqilishi mumkin, holbuki ularni aniqlashga va qidirishga mehnat sarflangan. Ammo yer ostidagi bunday mineral xom ashyo zahiralari potensial resurslar hisoblanadi, xolos. Ular yer bag'ridan qazib olingandan keyingina haqiqiy mineral xom ashyo hisoblanadi. Mineral xom ashyo tushunchasi foydali qazilma tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Foydali qazilma - bu ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hozirgi darajasida sanoatda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan er qobig'idagi tabiiy mineral moddalaridir. Ular yer ostidan qazib olingandan keyin mineral xom ashyo ko'rinishiga ega bo'ladi. Shunday qilib, er bag'ridan qazib olingan, xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar mineral xom ashyo deyiladi. Mamlakatda muayyan muddatda qidirilgan, aniqlangan, baholanagan

hamda prognoz qilingan foydali qazilmalar esa mineral resurslar deb ataladi.

Foydali qazilmalar tabiatdagi miqdori, foydalanishdagi maqsadiga ko'ra ma'danli va noma'dan foydali qazilmalarga bo'linadi. Suyuq va gazsimon foydali qazilmalar alohida guruhni tashkil etadi. Konlarning geologik o'rganilish darajasi, geologik tuzilmalari, foydali qazilmalari tarkibi va xossalari o'rganish darajasi, tog' ishlari miqdori va xarakteri hamda ishlab chiqarish texnologiyasiga qarab, kon zapaslari 4 kategoriyaga bo'linadi. Bular: A, V, SI, S2.

A kategoriyaga foydali qazilmalarning turlari va texnologik vositalari o'rganilgan zahiralari kiradi. Foydali qazilmalarning V kategoriyadagi zahiralari ruda jismlarining yotishi hollari, tabiiy turlari va sanoat sortlari aniqlanib hisoblanadi. Bunday zapaslar qidrib topilgan va chegaralangan bo'ladi.

SI kategoriyaga kiritilgan foydali qazilmalar zahiralari konlarning alohida uchastkalaridan olingan texnologik namunalarni o'rganish asosida aniqlanadi, ammo rudalarning xillari, sifati va texnologik xarakteristikasi aniqlanmagan bo'ladi.

Mineral-xom ashyo resurslariga bo'lgan ehtiyoj iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga nisbatan jadal ortib bormoqda. Bu asosan ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirish, uning energetik va texnikaviy qurollanganlik darajasini oshirish uchun ko'p miqdorda tabiiy resurslar zarurligi bilan izohlanadi.

Mineral-xom ashyo resurslari rolining ortib borishi ularga nisbatan ehtiyojning o'sishi bilangina emas, balki ularning o'ziga xos xususiyatlari va mehnat unumdorligiga ta'siri bilan shartlanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishni rivojlantirish sur'atlari va darajasi ko'p jihatdan foydali qazilmalardan foydalanish samadorligi ko'lamlari va darajasiga bog'liqdir.

Foydali qazilmalar. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston yer usuli tuzilishining har xilligi, respublika hududining geologik tarixi geoximik jarayonlar ta'sirida shakllangan qazilma boyliklar, mineral xom ashyo resurslari geografiasini ham belgilab beradi. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston 2700 dan ko'proq foydali qazilma konlari ma'lum bo'lib, ularning faqat tasdiqlangan zahirasi

970 milliard AQSH dollarini, umumiy miqdori esa 3,3 trillion AQSH dollarini tashkil qiladi.

Foydali qazilma konlar zahiralari, ularning geologik o'rganilganligiga qarab turli kategoriyalarga bo'linadi. Yaxshi o'rganilgan zahiralari sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan zahiralari, barcha zoxiralari esa taxminiy yoki prognoz zahiralari deyiladi.

Qazilma boyliklari zahiralari xalq xo'jalik ahamiyatiga ko'ra balans va nobalans zahiralarga bo'linadi. Balans zahiralari qulay geografik o'rin va yaxshi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga (konning umumiy zahirasi, sifati, qatlamlarning tuzilishi va h.k.) hamda ularning qazib olishga ehtiyoj mavjud bo'lganlarni o'z ichiga oladi. Bu talablarga javob bermagan konlar nobalans zahiralari tarkibiga kiradi.

Foydali qazilmalar zahiralari, ularning miqdori, kategoriya va ahamiyati vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi; yangi zahiralari ochiladi, zahiralarning o'rganilganlik darajasi va balans zahiralarni to'ldirish borishi ro'y beradi.

O'zbekiston ayrim foydali qazilma zahiralari bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlari qatoridan joy oladi. Bunga eng avvalo oltin, mis, volfram, uran, tabiiy gaz kabilar kiradi. Jumladan, respublikamiz oltin zahirasiga ko'ra dunyoda 4 chi, qazib olishi bo'yicha esa yettinchi-sakkizinchi o'rinlarni egallaydi (ma'lumot uchun: 2007 yilda Avstraliya, JAR va Xitoyda, ularning har birida 250 tonnadan ziyodroq, AQSHda shunga yaqin miqdorda oltin qazib olingan).

Ma'lumki, har bir mamlakat milliy iqtisodiyoti xavfsizligini ta'minlashda uning yoqilg'i-energetika mustaqilligi katta ahamiyatga ega. Respublikamiz bu borada yirik tabiiy gaz konlariga ega. Ular asosan Qashqadaryo viloyatida (Sho'tang, Muborak, Uchqir, Sho'rxok, Zevardi va b.) joylashgan. Buxoro viloyatida ham tabiiy gaz konlari mavjud (Qandim va b.), biroq ularning ko'pchiligini zahiralari tugashi arafasida. Ayni vaqtda Ustyurtda yangi-yangi gaz konlari topilmoqda. Ularning eng yirigi Surgil koni hisoblanadi.

Garchi dastlabki neft konlari Farg'ona vodiysida ochilgan bo'lsada (masalan, Sho'rsuvda 1886 yilda), hozirgi kunda uning ham asosiy zahiralari Qashqaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Shuningdek, bu

yerdan eng katta kon Ko'kdumaloq sanalanadi va uning asosida Buxoro viloyatining Qorovulbozor shahrida yirik neftni qayta ishlash zavodi qurilgan.

Neft konlari Surxondaryoda (Hovdog', Ko'kaydi, Lalmikor), Farg'ona vodiysida (Janubiy Olamshuk, Polvontosh, Mingbuloq va h.k.). Qoraqalpog'iston Respublikasida (Oqsholov, O'rga, Shoxpaxti va b.) mavjud. Ustyurt platosi, Orol ko'li akvatoriyasi va unga tutash hududlarda yangi neft konlarini aniqlash bo'yicha hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda ("Lukoil" kompaniyasi) geologik-qidiruv ishlari olib borilmoqda. Bunday ishlar Surxondaryo viloyatida Malayziya va Eron mamlakatlari bilan birgalikda ham amalga oshirilmoqda.

Respublikada ko'mir konlari geografiyasi nisbatan keng tarqalmagan. Katta zahiraga ega bo'lgan Angren konida (2 mlrd t.) qo'ng'ir ko'mir asosan ochiq usulda qazib olinadi va u ko'proq issiqlik elektr stansiyalarida ishlatiladi. Toshko'mir konlari esa Surxondaryo viloyatida – Shar'gun va Boysun (To'da) konlaridan olinadi.

Yoqilg'i resurslariga baho berganda quyidagi xulosa chiqarish mumkin: tabiiy gaz bilan mamlakatimiz yaxshi ta'minlangan va u eksport ham qilinadi; neft zahiralarni ko'paytirish kerak; ko'mir zahiralari esa uncha yuqori sifati emas va ularning sanoat ahamiyati kamroq.

O'zbekistonda temir ruda zahiralari ham sanoat ahamiyati cheklangan. Bunday konlar Qoraqalpog'istonning Sulton Uvays tog'ida (Tebimbuloq) hamda Toshkent (Temirkon) va Navoiy viloyatlarida (Surenota) topilgan. Volfram zahirasiga esa respublikamiz birmuncha boy. Uning asosiy konlari Qo'ytosh, Ingichka, Yaxton, Sargardon, Langar va boshqalardir. Marganets Samarqand viloyatida, molibden koni Hisor, Nurota va Choqpol tizmasida topilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mamlakatimiz oltin, mis, kumush, qo'rg'oshin zahiralari bo'yicha ham ajralib turadi. Oltinning eng yirik koni Murotlov va Ko'kpatas hisoblanadi. Shuningdek, Marjonbuloq, Qizilolma, Chodov, Zarmetan kabi oltin konlari ham mavjud. Jami oltin zahirasining 4/5 qismidan ko'prog'i Markaziy Qizilqumda joylashgan; hozircha respublikada aniqlangan oltin

konlarining taxminan 1/4 qismi, o'rganilgan konlarning yarmiga yaqini ishlatilmoqda, xolos.

Mis Olinaliq atrofiga (Qalmoqgir, Dalnoye, Sarichex), polimetal rudalar (Xonjiza, Uchquloch, Lashkarak) zahiralari ham katta sanoat ahamiyatiga ega. Shu bilan birga, respublikada qo'rg'oshin, qalay, vismut konlari ham bor, alyuminiy xom ashyosi – kaolin esa Angren qo'ng'ir ko'mir qatlamlari orasida juda katta zahiralarga ega. O'zbekiston uran konlariga boy; uning asosiy konlari Markaziy Qizilqumda, Navoiy va Toshkent viloyatlarida joylashgan.

Mamlakatimizda turli tog' kimyosi xom ashyolarining katta zahiralari mavjud. Ular eng avvalo Tubekatan kaliy, Xo'jaikon osh tuzi, Boybichekan tosh tuzi hamda Qoraumbet, Borsa Kelmas, Qo'ng'iro't yaqinidagi turli tuz konlaridir. Fosforitning yirik zahirasi Navoiy viloyatida – Markaziy Qizilqumda topilgan va undan hozirgi paytda foydalanilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda har xil qurilish materiallari – qum, gips, granit, marmar konlari bor. Marmar Samarqand, Qashqadryo, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'istonda qazib olinadi (G'ozg'on, Langar, Omongo'ton, Kitob va b.). Nometal foydali qazilmalar – flyuorit, dala shpati, grafit, asbest, talk, bentonit gillarining ham zahiralari mavjud.

Shunday qilib, respublikamizda foydali qazilmalar asosan Navoiy, Qashqadryo, Surxondaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlarida joylashgan. Farg'ona vodiysi va, xususan, Sirdaryo hamda Xorazm viloyatlari bu borada deyarli ko'zga tashlanmaydi.

Rangli, nodir va qimmatbaho metal konlarida "yo'ldosh" minerallar ko'p uchraydi. Binobarin, bunday rudalarni iloji boricha to'liq, kompleks qayta ishlash talab etiladi. Umuman olganda, mamlakatimizning foydali qazilmalari yoqilg'i, rangli metallurgiya, kimyo hamda qurilish materiallari sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qulay imkoniyatlar yaratadi. Boshqa sanoat tarmoqlari, ayniqsa qora metallurgiyani keng miqyosda rivojlantirish uchun esa tegishli sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan resurs salohiyati mavjud emas.

Savol va topshiriqlar

1. Foydali qazilmalarning qanaga kategoriyalari mavjud?

52

2. Mamlakatimizda qanaga mineral xom ashyo resurslari mavjud?

3. Yoqilg'i boyliklarining qanday turlari tarqalgan?

4. Rangli metallardan foydalanishning hududiy xususiyatlarini tushuntiring.

53

6-mavzu. Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasi

Reja

1. Ishlab chiqarish va uning tarmoqlari, uning turlari.
2. Sanoat tarmoqlari va uning tarkibi.
3. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari.
4. Transport tarmoqlari.

Tayanch tushunchalar: *Ishlab chiqarish, tarmoqlar, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, og'ir sanoat, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, dehqonchilik, chorvachilik, avtomobil, temir yo'l.*

Infratuzilma - har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo'lishi shart hisoblangan tarkibiy qismi. So'zma-so'z ifodalaganda, infratuzilma bu iqtisodiy tizimning asosi, poydevori, ichki tuzilmasi demakdir. «Infratuzilma» atamasi lotincha «infra» - quyi, osti; «struktura» - tuzilma, joylashuv so'zlaridan paydo bo'lgan.

«Infratuzilma kompleksi iqtisodiyotimizning butun tuzilmasi tayanadigan poydevordir. Respublika butun xalq xo'jalik kompleksi ishining uyg'unligi, uning samaradorligi, shuningdek, chet el sarmoyalarini jalb qilish va o'zlashtirish imkoniyati butunlay infratuzilma tizimi rivojining holatiga va darajasiga bog'liqdir».

Infratuzilma besh bo'g'indan iborat va ular quyidagilardan iborat:

1. Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma - transport, aloqa, ombor xo'jaligi, yo'l xo'jaligi, suv va energetika ta'minoti kabilar. Ular bozor iqtisodiyotidan oldin ham mavjud bo'lgan, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu infratuzilma tizimini tijorat yo'lga o'tkazishga to'g'ri keldi. Chunki, ular yaxshi ishlab o'zini-o'zi moliyalashi zarur edi.

2. Tovar va xizmatlar muomalasiga, ya'ni savdo-sotiq ishlariga xizmat qiluvchi infratuzilma - birjalat, savdo uylari, aukstionlar, reklama firmalari va agentliklari, davlatning savdo-sotiqni nazorat qiluvchi tashkilotlardan iborat. Totalitar tizim sharoitida mazkur infratuzilmaning ko'p unsurlari bo'lmagan, shu boisdan ular islohotlar natijasida yaratilgan.

3. Moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma-tijorat banklari, o'zini-o'zi kreditlash idoralari, mikrokredit


tashkilotlari, sug'urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish mahkamalari, har xil fondlar. Totalitar tizim sharoitida mazkur infratuzilmaning ko'p unsurlari bo'lmagan, shu boisdan ular islohotlar natijasida yaratilib boriladi.

4. Aholiga xizmat qiluvchi yoki ijtimoiy infratuzilma - uy-joy, kommunal va transport xizmati, maorif, madaniyat hamda sog'liqni saqlash tizimi sub'ektlari, aholini ishga joylashtirish firmalari, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, aholiga huquqiy xizmat ko'rsatish kabilar. Ularning aksariyati bozor iqtisodiyotidan avval ham mavjud bo'lgan, lekin ularni isloh etib, bozor sharoitida pulli xizmat ko'rsatish, ya'ni tijorat yo'lga o'tkazildi.

5. Axborot xizmati - iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan har xil axborotlar-ma'lumotlar, xabarlarini to'plash, umumlashtirish va sotish bilan shug'ullanuvchi turli xil kompaniya va firmalar, huquqiy va iqtisodiy maslahat xizmatlarini ko'rsatish firmalari. Bu sohada yuqorida keltirilgan infratuzilma yo'nalishlarida amalga oshirilgani kabi mustaqilligimizning o'tgan bu davrida ko'p ishlar qilingan bo'lsa-da, huquqiy va iqtisodiy axborotlar tadbirkorlik uchun suvday zarur bo'ladi, unga qarab o'z ishini rejalashtirish, munosabatlarning huquqiyasosini to'liq anglagan holda pulni qaerga, nima uchun sarflash, qancha tovar ishlab chiqarish, munosabat ishtirokchilari tomonidan majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda o'z manfaatini himoya qilish tadbirlarini belgilash kabi huquqiyva iqtisodiy hatti - harakatlar amalga oshiriladi.

Infratuzilma elementlari yo'nalish vazifalariga ko'ra qaysi guruhga mansub bo'lmasin, jamiyat iqtisodiyotining bozor munosabatlari shartlari asosida uzviy harakatlanib o'sib borishini ta'minlashda ishtirok etuvchi sub'ektlarga bevosita yoki bilvosita bog'likda ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir natijasida jamiyatda ichlab chiqarichni barqaror rivojlantirish, ko'plab sifati tovarlar yaratish, ularga bo'lgan talabni qondirish, tejamli xo'jalik yuritish asosida to'kinchilik yaratib, xalqni farovon turmush sari yo'llash, halol va samarali mehnatni qadrlash, adolatni o'rnatish uchun zamin yaratiladi. Bozor iqtisodiyotining asosiy sharti ham iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi umuminsoniy faoliyat bo'lgan shaxsiy-insoniy va moddiy ashyoviy omillarga asoslangan ishlab chiqarish faoliyati

uzviyligini ta'minlash ko'p jihatdan infratuzilma va uning tarkibiy elementlarining o'zaro bog'liqlik va uzviylikda harakatlanishiga bog'liqlidir. Infratuzilma va uning tarkibiy elementlarining o'zaro bog'liqlik va uzviylikda harakatlanishi jamiyat hayotining asosi bo'lgan ishlab chiqarishda uzviylikni keltirib chiqaradi va natijada iqtisodiy o'sish yuz berib jamiyatda farovon hayotga erishiladi (1 - rasm).



1-rasm. Infratuzilma va uning tarkibiy elementlari

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, yo'nalish vazifalariga ko'ra guruhlangan infratuzilma elementlari sohaga oid faoliyat olib borilishiga ixtisoslashgan bo'lsa-da, ularning hech biri bir - biri bilan bog'lanmagan holda alohida-alohida harakatlanishi mumkin emas. Aks holda bozor munosabatlari ishtirokchilari faoliyatidagi uzviy bog'lanishga putur etib iqtisodiy taraqqiyot analga oshmasligi mumkin. Jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning asosiy omili bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish masalalari, uni

bus - butun majmua va o'zaro bog'liqlikda harakatlanuvchi elementlar yig'indisi sifatida o'rganilmog'i lozim. Chunki, soha sub'ektlarining yaxit bir majmuaning tarkibiy elementlari sifatida o'zaro bog'liqlikda uzviy harakatlanishi hayotiy zaruriyadir.

Ishlab chiqarish — jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish jarayoni. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Kishilik jamiyati taraqqiyotining hamma bosqichlarida ishlab chiqarish zarur. Uning mazmunini mehnat jarayoni belgilaydi. Ishlab chiqarish jarayoni 3 element — mehnat, mehnat ashyolari va mehnat vositalari bo'lishini taqozo etadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish va iste'mol buyumlari ishlab chiqarishdan tashkil topadi. Bu bo'limlarning har biri ko'plab xo'jalik tarmoqlaridan iborat bo'lib, ularida turli ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari yaratiladi. Birinchi bo'limning ikkinchi bo'limga nisbatan ustunligi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish iqtisodiy qonunining ifodasidir. Ishlab chiqarish faqat mahsulot ishlab chiqarishdan iborat bo'lmay, balki taqsimot, ayirboshlash va iste'molni ham o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi, avvalo, ishlab chiqarish qurollarining o'zgarishi va mukammallashtirishdan boshlanadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi jamiyat hamma a'zolarining farovonligini muntazam oshira borish va har tomonlama rivojlantirishga imkon beradi.

Odatda, ishlab chiqarish asosan sanoat, qishloq xo'jaligi, transport kabi makroiqtisodiy sohalaridan tashkil topadi. Umuman tarmoq deganda korxonalarining ma'lum o'xshash xususiyatlariga ko'ra guruhlanishi tushuniladi.

Sanoat tarmoqlari odatda uch asosiy mezon asosida ajratiladi.

Ular:

- ❖ Xom ashyo birligi bo'yicha ajratilgan sanoat tarmoqlari (mashinasozlik va metallni qayta ishlash, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati va h.k.);

- ❖ Iste'mol birligi, ya'ni muayyan maqsadda mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar (yengil va oziq-ovqat, qurilish, elektr energetika va b.);

❖ Texnologik jarayon asosida tashkil etilgan sanoat tarmog'i (kimyo sanoati)

Sanoatning tarmoqlar tizimi nihoyatda murakkab va u borgan sari o'zgarib bormoqda. Eng yirik tarmoqlar sifatida yoqilg'i, energetika, qora va rangli metallurgiya, kimyo va neftni qayta ishlash, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qurilish, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash, sellyuloza-qog'oz, yengil, oziq-ovqat, poligrafiya va boshqalar ajratiladi. Ular ham, o'z navbatida, tarmoq turianishi ayniqsa boy, faqat transport mashinasozligining o'zi bir nechta qismlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi tarmoqlar orasida eng an'anaviy, qadimiy tarixga ega bo'lgani, shubhasiz, yengil (to'qimachilik) sanoatidir. U dastavval manufakturdan boshlanib, so'ngra yirik mashina turtki berdi. Albatta, oziq-ovqat, metallni qayta ishlash sanoatlari ham ancha qadimiy. Ayni vaqtda mashinasozlik, elektr energetika va kimyo nisbatan «yangiroq» bo'lib, ular hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyotini aks ettiruvchi tarmoqlar jumlasiga kiradi.

Sanoat tarmoqlari og'ir va yengil, ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi yirik guruhlariga (A va B) ajratiladi. Biroq bunday ajratish shartli xususiyatga ega bo'lib, ular orasidagi farq borgan sari qisqarib, «yupqalashib» bormoqda.

So'nggi yillarda sanoat tarmoqlari tarkibida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'lmogda:

- sanoat tarmoqlarining yanada parchalanib borishi, yangi-yangi tarmoqlarning vujudga kelishi;
- tarmoqlar orasida integratsiya jarayonlarining rivojlanishi, tarmoqlararo majmualarning shakllanishi;
- fan-texnika yutuqlari bilan bevosita bog'liq tarmoqlarining tezroq rivojlanishi.

Sanoatning tarmoqlar tizimini baholashda eng avvalo uning turli turlarini (diversifikatsiyalashuvini) hamda yangi texnologiyalarga asoslangan, «yuqori qavat» tarmoqlarining mavjudligini e'tiborga olish kerak. Ba'zi rayonlar faqat tog'-kon, xom ashyo qazib olishga ixtisoslashgan, boshqalarida esa asosan

ta'mirllovchi sanoat korxonalari bo'lishi mumkin. Tabiiyki, bunday rayonlarning sanoati yaxshi rivojlanmagan.

Ba'zi olimlar fikricha, jamiyat asosan uch bosqichda rivojlanib borgan: sanoatgacha, sanoat va sanoatdan keyin ("postindustrial") davr yoki jamiyat. Respublikamiz iqtisodiyoti, umuman olganda, ikkinchi, ya'ni sanoat bosqichida turibdi. Shu bois, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish ko'p jihatdan aynan ishlab chiqarish jarayonining sanoatlashuviga bog'liq.

Sanoat, qisqacha aytganda, asosan tabiatdan olingan xom ashyoga qayta ishlov berish natijasida o'zining dastlabki holatini o'zgartirgan mahsulot turlarini o'z ichiga oladi. Dastlabki sanoat tarmoqlari bevosita tabiat va uning resurslari bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, tog'-kon sanoati, baliqchilik, qurilish materiallari sanoati shular jumlasidandir.

Hozirgi davrda sanoat korxonalari va ular yaratadigan mahsulot nihoyatda xilma-xil. Ularning turlari innovatsiya jarayonida va o'zgaruvchan (egiluvchan) iste'mol ehtiyoji ta'sirida yanada ortib bormoqda. Binobarin, bunday murakkab tarkibga ega bo'lgan sanoat ishlab chiqarishini boshqarish va o'rganish uchun sanoat korxonalari turli guruhlariga ajratiladi. Ularning eng asosiyi sanoat tarmoqlaridir. Sanoat tarmoqlari ma'lum mezonlarga asoslanadi; bu tarmoqlar xom ashyo birligi, mahsulotni qaysi maqsadda yaratilganligi hamda texnologik jarayonning umumiyligiga ko'ra asoslanadi.

Sanoat tarmoqlari, o'z navbatida, og'ir va yengil, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi yirik guruhlariga birlashtiriladi. Bozor munosabatlarga o'tgan davrlarda esa, sanoat korxonalari mulkchilik shakliga qarab davlat va nodavlat tasarrufidagi korxonalarga bo'linadi.

Sanoat korxonalari va tarmoqlari qator omillar ta'sirida joylashtiriladi yoki hududiy tashkil etiladi. Bu omillarning asosylari xom ashyo, elektr energiya, transport, mehnat resurslari iqtisodiy geografik o'rin va boshqalar hisoblanadi. Shu bilan birga, hozirgi davrda ilmiy-texnika, iste'mol, ekologiya, bozor iqtisodiyoti kabi omillarning ahamiyati ham oshib bormoqda. Umumiy jarayon shundan iboratki, sanoat ishlab chiqarishining xom ashyo, energiya va mehnat talabligi tobora kamayib bormoqda. Bu esa mazkur soha

iqtsodiy samaradorligini oshirishning eng muhim omilidir. Ayni vaqtda sanoat tarmoqlarining ilmtalab, kam metal, xom ashyo va ishchi kuchi talab qiluvchi xususiyatlari kuchayib bormoqda

O'zbekiston hududida qadimdan ba'zi sanoat turlari mavjud bo'lgan (tog'-kon sanoati, metal eritish, to'qimachilik va b.). Ular bu yer uchun an'anaviy sanalgan hunarmandchilik asosida rivojlanib borgan. Hozirgi zamon sanoatining dastlabki korxonalari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan. Masalan, Farg'ona vodiysida neft konlarining topilishi va ishga tushirishi, paxta tozalash, ko'hnchilik zavodlari shular jumlasidandir.

O'tgan asrning birinchi yarmida yengil, oziq-ovqat sanoatiga katta e'tibor berilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikamiz hududida og'ir sanoat korxonalari ham barpo etilgan. Ular front chizig'idan ko'chirilgan yoki front ehtiyoji uchun qurilgan korxonalar bo'lgan (mashinasozlik, kimyo zavodlari, Bekobod metallurgiya zavodi va h.k.). Angren ko'mir koni ham huddi shu davrda topilib, undan yoqilg'i olish yo'lga qo'yilgan.

20 asrning ikkinchi yarmi, eng avvalo, rangdor metallurgiya, neft-gaz (xususan gaz), kimyo, elektr energetika kabi og'ir sanoat tarmoqlarining faol rivojlanib borishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, bu davrda qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat (to'qimachilik, yog'-moy, konserva, vino va noalkogol ichimliklar ishlab chiqarish va b.) sanoati korxonalari ham ko'plab qurilgan. 80-yillarda yirik korxonalarning, masalan, to'qimachilik kombinatlarining qator filliallari Qoragalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Farg'ona viloyatlarida barpo etilgan va ular mahalliy xom ashyo hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq Ittifoqning parchalanishi, "gorizontal" ishlab chiqarish alohalarining buzilishi natijasida sanoat ishlab chiqarishida, ayniqsa og'ir sanoatda muvaqqat muammolar vujudga keldi. Bu muammolar iqtisodiyotni davlat rejalashtirish tizimidan bozor munosabatlarga almashtirish (o'tkazish) bilan ham bog'liq bo'ldi. Biroq shunga qaramay, bu davrda qisman xorijiy investitsiyalar asosida yirik zamonaviy korxonalar barpo etildi. Asaka avtomobil zavodi, Buxoro (Qorovulbozor) neftni qayta ishlash zavodi, Qo'ng'iro't soda zavodi,

Tolimarjon IES, Sho'r'tan gaz-kimyo majmuasi yuqoridagilarga misol bo'la oladi. Respublikamizning qator tuman va shaharlarida to'qimachilik korxonalari ("teks"lar) vujudga keldi, yirik korxonalar qayta ta'mirlandi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishida uning ijtimoiy tashkil etish shakllari, xususan mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatlashuv, bozor munosabatlari sharoitidan kelib chiqqan holda, rivojlanib bormoqda. Kichik, ixtisoslashgan va bozor konyukturasiga tez moslashadigan korxonalar soni ko'paymoqda.

Aytish mumkinki, O'zbekiston sanoati yaqin o'tmishdagi qiyinchiliklar davridan barqaror rivojlanish bosqichiga o'tdi. Eng so'nggi yillarda mamlakatimizning milliy iqtisodiyotni sanoatlashtirish siyosati, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni mahalliyashtirish ("lokalizatsiya"), diversifikatsiya va modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirish negizida sanoat ishlab chiqarishi yanada tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Masalan, 2010-2011 yillarda u 8,3 foizdanga ko'paydi.

Sanoatning respublika yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi muntazam o'rib bormoqda. Hozirgi vaqtda uning 1/4 qismiga yaqini sanoat ishlab chiqarishiga to'g'ri keladi. Makroiqtisodiyotning mazkur tarmog'i 16 mingdan ziyod korxonalarni birlashtiradi, ularda 620 ming kishiga yaqin ishchi-xizmatchilar band. Bu korxonalarning ko'pchiligi oziq-ovqat, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, yengil hamda qurilish materiallari sanoatidan iborat. Demak, aytish mumkinki, aynan shu tarmoqlar korxona darajasidagi mujassamlashuvining nisbatan past ko'rsatkichlariga ega. Bu tabiiy hol, chunki hozirgi sharoitda o'ta yirik korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligi uncha yuqori emas.

Sanoat tarmoqlari orasida eng qadimgilaridan biri yengil sanoatdir. Hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishining negizini ham aynan shu tarmoq tashkil qiladi. Dastlab manufaktura shaklida amalga oshirilib, so'ngira u yirik sanoat industriyasiga asos solgan, sanoat inqilobiga turtki bo'lgan.

Takidlash joizki, sanoat ishlab chiqishining vatani – Angliya sanoatining rivoji ham to'qimachilik sanoatidan boshlangan. U, o'z navbatida, boshqa sanoat tarmoqlari rivojlanishini taqozo etgan.

Chunki, to'qimachilik sanoatining tarqiqiyoti turli xil asbob uskunalar, to'qimachilik mashinasozligini, u metallurgiyani, metallurgiya esa yoqilg'i (ko'mir) sanoati rivojlanishini talab qilgan va bu jarayon "janjirsimon" yuz bergan. Temir yo'l transportining rivojlanishi ham qisman shu omil bilan bog'liq bo'lgan.

Yengil sanoat xalq iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi asosiy sanoat tarmog'idir. Uning mahsuloti nisbatan arzon, katta kapital mablag' talab qilmaydi va ishlab chiqarish jarayoni ham texnologik jihatdan uncha murakkab emas. Eng muhimi – yengil sanoat, jumladan, uning yetakchi tarmog'i bo'lgan to'qimachilik sanoati mahsulotining iste'mol qilish "zichligi" juda yuqori. Sababi, bu mahsulotlar barchaga kerak va ko'p kerak; chunki bir kishi bir yilda yoki mavsumda bir necha kiyim-kechak, poyafzal kiyadi. Demak, bunday mahsulotlarning aylanma harakati yuqori. Binobarin, daromad manbai oz bo'lsada, tez ko'payib boradi. Yengil sanoat tarmoqlari kam kapital mablag', ammo ko'p ishchi kuchini talab qiladi. Shu sababdan uning "mehnatlabligi" boshqa sanoat tarmoqlariga qaraganda ancha katta. Ayni vaqtda yengil sanoatning xom ashyo bazasi ham keng – u o'simlik va hayvonot mahsulotlari, shuningdek, kimyoviy tolalar asosida ham rivojlanib boraveradi.

Yirik to'qimachilik korxonalari sobiq Ittifoq davrida barpo etildi. Chunonchi, Farg'ona to'qimachilik kombinati 1927 yilda, Toshkent to'qimachilik kombinati o'tgan asrning 40-nchi yillarida ishga tushirildi. 70-80 nchi yillarda Andijon, Nukus, Buxoro to'qimachilik kombinatlari va ularning filiallari tashkil etilgan. Biroq, bu korxonalarning barchasida yetishtirilgan paxta tolasiyning bor-yo'g'i 9 foizi qayta ishlangan, xolos, qolgan asosiy qismi esa respublikadan chetga chiqarilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach yengil, shu jumladan to'qimachilik sanoatida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. "O'zbekengilsanoat" Davlat aksionerlik kompaniyasi, 80 dan ortiq qo'shma korxonalar ishlab turibdi. Bu korxonalar asosan chet el kompaniyalari bilan birgalikda (Janubiy Koreya, Turkiya, AQSH, Shveysariya va b.) qurilgan. Hozirgi kelib mahalliy paxta tolasiyning taxminan 32-33 foizi respublikaning o'zida qayta ishlanadi (kelajakda ushbu ko'rsatkichning 50 foizga yetkazilishi ko'zda tutilmoqda). 2010 yilda ishlab chiqilgan jami paxta tolasi 1125 ming

tonnaga teng. Bu ko'rsatkich har yili paxta hosiliga qarab o'zgarib turadi.

O'zbekistonda yillar davomida to'qimachilik-industrial energiya ishlab chiqarish sikli shakllangan. U o'z tarkibiga paxta va pilla xom ashyosini qayta ishlash, ip va ipak gazlama ishlab chiqarish va uning asosida tikuv hamda trikotaj korxonalarini oladi. Bu sikl, shuningdek, buyoq, par (bug') va to'qimachilik mashinalarini ishlab chiqarish bilan ham bog'liq.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining eng qadimgi tarmoqlaridan biri. U hozirgi kunda jahon, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot tarkibida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Biroq ushbu makroiqtisodiyot tarmog'ining rivojlanishi turli mamlakatlarda turlicha kechadi; rivojlanayotgan davlatlarda qishloq xo'jaligi, xususan dehqonchilik ko'proq ekstensiv xarakterga ega bo'lsa, yetakchi mamlakatlarda u intensiv rivojlanib bormoqda. Shunga mos holda agroiqtsodiyotning samaradorligi, mehnat unumdorligi ham geografik jihatdan farqlanadi.

Odatda, qishloq xo'jaligi deganda asosan uning ikki tarkibi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik tushuniladi. Bu iqtisodiyot fani nuqtai nazaridan tug'ri, ammo iqtisodiy geografik jihatdan esa uni qishloq joylar mashg'uloti, xo'jaligi ma'nosida ham e'tirof etish mumkin. Tabiiyki, qishloq joylarda ham bu tarmoq turlanib, diversifikatsiyalanib bormoqda. Masalan, bu hududlarda ham sanoat, transport, rekreatsiya, turizm, ijtimoiy sohalar keng tarqalmogda. Demak, qishloq xo'jaligi, bir tamondan faqat dehqonchilik va chorvachilik emas, ikkinchidan, u hududiy nuqtai nazardan jahon xo'jaligi, milliy xo'jalik, mintaqaviy va mahalliy (munitsipal) xo'jalikdan keyingi taksonomik birlik sanaladi. Iqtisodiyotning bunday hududiy tarkibi xuddi shunday iyerarxik ko'rinishga ega bo'lib, tizim-tarkib yondoshuviga mos keladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, shahar xo'jaligi ham o'ziga xos talqin qilinadi. U ko'proq komunal xo'jaligi, ichki transport, maishiy sohalarni o'z ichiga oladi. Aslini olganda esa, shaharni shahar qiluvchi asosiy tarmoq (shahar hosil qiluvchi tarmoq) eng avvalo sanoat, tashqi savdo va transport, fan kabilar hisoblanadi. Shu bilan birga, shaharlarda ham, xususan bizning sharoitimizda, qisman qishloq xo'jaligi mavjud bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi rivojlanishi va hududiy tashkil etilishining quyidagi xususiyatlari mavjud:

eng qadimgi, an'anaviy xalq mashg'uloti;
mavsumiy xarakterga ega;

qishloq xo'jaligining rivojlanishi ob-havo, iqlim sharoitlariga bog'liq;

qishloq xo'jaligining holati, o'z navbatida, sanoatga, ayniqsa yengil va oziq-ovqat sanoat rivojlanishiga kuchi ta'sir ko'rsatadi;

ushbu tarmoqning hududiy tashkil etilishi areal xarakterga ega (sanoat nuqta shaklida, transport chiziqsimon, tasmasimon);

qishloq xo'jaligining, odatda, mehnat unumdorligi sanoatga nisbatan past;

qishloq xo'jaligi aholini iste'mol mollari bilan, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlaydi;

qishloq xo'jaligi korxonalari uchun xom ashyo kerak emas, uning asosi agroiklimiy resurslar, ya'ni harorat, namlik va tuproq hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligining yuqoridagi xususiyatlari ushbu tarmoqning asosiy iqtisodiy va iqtisodiy geografik ko'rsatkichlarini, rivojlanishi va joylanishini belgilab beradi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning zimmasiga yalpi ichki mahsulotning 1/6 qismiga yaqini to'g'ri keladi. So'nggi yillarda respublikamizda iqtisodiyotni sanoatlashtrish dasturini amalga oshirish natijasida qishloq xo'jaligining nisbiy ko'rsatkichlari, ya'ni ulushi pasayib borish tendensiyasiga ega. Shu asosda mamlakatimiz iqtisodiyoti agrar-industrial shakldan tobora, asta-sekin industrial-agrar yo'nalish kasb etmoqda.

Sobiq Ittifoq davrida respublika qishloq xo'jaligi asosan paxtachilikka ixtisoslashgan, markaziy hududlar sanoatini xom ashyo bilan ta'minlovchi monokultura ko'rinishidagi rayon edi. Mustaqillikka erishgach bu soxada tub isloxo'tlar o'tkazildi, qishloq xo'jaligi deyarli to'liq nodavlat sektoriga o'tkazildi, fermer va dehqon xo'jaliklari tashkil etildi, paxta yakka hokimligiga barxam berildi, don (g'alla) mustaqilligiga erishildi va xokazo. Ayni vaqtda noto'g'ri siyosat olib borish oqibatida maydonlari keskin qisqarib ketgan uzumchilik va bog'dorchilik tarmoqlari tiklanmoqda. 2009

yilda qabul qilingan "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" Davlat dasturida qishloq joylarda agroikqtisodiyot soxasi bilan bir qatorda transport, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya, sport kabllarini rivojlantirishga, uy-joy qurilishiga katta ahamiyat berilgan.

Qishloq xo'jaligi, yuqorida ko'rsatilgan jixatlaridan kelib chiqqan holda, yillar davomida bir xil yoki barqaror rivojlanib bormaydi. Bunga ijtimoiy-siyosiy omillar bilan birga iqlim sharoitlari ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'sish darajasi o'tgan 20 yil mobaynida umumiy yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlariga nisbatan goh past (1991,1994,1996,2005,2010 yy.), goh yuqori (asosan qolgan yillarda) bo'lgan. Demak, xuddi shu yillarda agroikqtisodiyotning milliy iqtisodiyot o'sishiga ta'siri ham har xil kuzatiladi. Ko'rilyotgan davrda sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi nisbat ham o'ziga xos. Masalan, sanoatning o'sish ko'rsatkichi 1991, 1993, 1994, 1996, 1999-2002 va 2004-2010 yillarda yoki 20 yildan 15 yilda ustuvorroq bo'lgan. Eng muhimi shundaki, xususan so'nggi 10 yilda qishloq xo'jaligining nisbiy rivojlanish darajasi sustroq kechgan (3-iltova). Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotni sanoatlashtrishdan darak beradi.

Transport makroiqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri, iqtisodiyotning qon tomiri, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. U ishlab chiqarish bilan iste'molni bog'lab, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Ta'kidlash lozimki, transport sanoat va qishloq bo'jaligiga nisbatan geografiyada kam o'rganilgan yoki o'rganilyotgan yo'nalish ekanligi bilan ajralib turadi. Vaholanki, transportsiz hech narsani tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki transport harakat, masofani kesib o'tish, u yoki bu narsani (yuk, yo'lovchi, axborot) tashish, jo'natish demakdir. Iqtisodiy geografiyada transport liniyalari, yo'l, yo'laklar sifatida uning qolgan obyektlarini - areal, tugun va markazlarni bog'lab turadi. Transport to'ri va tizimi har qanday hududning rivojlanganlik, o'zlashtirganlik ko'rsatkichi, hududiy mehnat taqsimotini amalga oshiruvchi, iqtisodiy rayon va ishlab chiqarish majmualarining shakllantiruvchi muhim omilidir. Qolaversa, "arzon", "qimmat", "qulay", "noqulay" tushunchalarining namnida transport omili yotadi, transport geografik o'rin esa

iqtsodiy geografik o'rinning asl mohiyatini aks ettiruvchi asos hisoblanadi.

Odatda, transport deganda uning quyidagi jihatariga e'tibor qaratiladi:

Transport – bu vosita, xarakatlantiruvchi kuch;

Transport – xalq xo'jaligi tarmog'i;

Transport, aniqrog'i transport yo'llari – bu ishlab chiqarish infratuzilmasining yetakchi tarmog'i, xo'jalik tarmoqlari va aholining joylashuvda muhim omil (yo'li yaxshi mamlakat boy bo'ladi, boy mamlakatlarning yo'llari esa hamnavaq ham yaxshi bo'lavermaydi);

Transportning uzatuvchanlik, bog'lovchilik funksiyasi borligi sababi u aloqa tizimi bilan juda yaqindan aloqador, binobarin, aloqa tizimidagi yangi o'zgarishlar (tele-radio aloqalari, internet va b.) an'anaviy transport tarmoqlarining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashgan. Bu yerda "joylashgan" degan so'z ayni vaqtda uning transport geografik xususiyatini, o'rnini ham belgilab beradi. Darhaqiqat, respublikamizning bunday transport geografik o'rnini, uning markaziyligini, kesuvchanligini (ya'ni tranzitligini) aks ettiradi, shu bilan birga, mamlakatimizning jahon okeanidan uzoqda, ichkarida joylashganligini bildiradi.

Qadimda, respublikamizning hozirgi hududida quruqlik transporti, aniqrog'i karvon yo'llar yaxshi rivojlangan bo'lgan. Xususan uning Buyuk ipak yo'lida joylashganligi yurtimizda savdo, madaniyat, hunarmandchilikning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Temir yo'llar esa bu yerda XIX asrning oxirida va XX asr boshlarida qurilgan. Bular Kaspiy orti temir yo'li, ya'ni hozirgi Turkmanboshi (Krasnovodsk) – Andijon hamda Orenburg – Toshkent yo'llaridir. Keyinchalik boshqa mahalliy va xalqaro yo'llar ham qurildi, ayniqsa Quyi Amudaryo yo'nalishida barpo etilgan temir yo'l, masalan Qo'ng'iro't, Beynau – Makat – Aleksandrov Gay (Saratov obl.) muhim ahamiyat kasb etdi.

Biroq, respublikamiz transport to'ri uning turli hududlarini bog'lash nuqtai nazaridan yagona tizimni tashkil etmasdi. Shu bois, mustaqillik yillarida transport xavfsizligiga ham jiddiy e'tibor

qaratildi, qisqa muddat maboyinida Uchquduq – Miskin – Nukus, Toshg'uzar – Boysun – Qumqo'rg'on temir yo'llari qurilib ishga tushirildi. Natijada, hozirgi kunda Quyi Amudaryo mintaqasi va Surxondaryo viloyatiga borish uchun avvalgidek Turkmaniston hududiga chiqish talab etilmaydi. Shuningdek, temir yo'llarni elektrlashtirish, tez yurar yo'nalishlarni joriy qilishda ham yutuqlarimiz talaygina (masalan, Toshkent – Samarqand oraliqida qatnaydigan "Afrosiyob" tez yurar poyezdi).

Avtomobil yo'llarini qurish ham mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Shu bois, magistral yo'llarni qayta qurish, ta'mirlash, yo'l bo'yi infratuzilma va yo'l bo'yi iqtisodiyotini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, transportning boshqa turlari – havo, quvur transporti ham rivojlanib bormoqda. Respublikamiz poytaxti hamda Urganch, Navoiy, Samarqand, Buxoro shaharlarida xalqaro aeroportlar qurilgan.

Tanqidi rus olimi N. N. Baranskiy fikricha, yo'llar va shaharlar har qanday hududning iqtisodiy asosini ("govurg'asini") tashkil qiladi. Chindan ham aynan ular birgalikda joyning iqtisodiy salohiyatini, geografik jihatdan o'zlashtirilganlik darajasini yoki, boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotning "geografik geometriyasini" iqtisodiy geografik asosini o'zida aks ettiradi. Mamlakatimiz iqtisodiy xaritasida bunday o'ziga xos geometrik shakllar vujudga kelgan. Masalan, ular jumlasiga Samarqand (Juma) – Buxoro (Kogon) – Qarshi (Qashqadaryo st.), Sirdaryo – Jizzax – Xovos uchburchaklari, Farg'ona xalqasi (Qo'qon – Namangan – Andijon – Marg'ilon) kabilar kiradi. Ba'zan, bu yo'nalishlarda temir va avtomobil yo'llar birgalikda joylashgan bo'lib, ular birgalikda hududni yanada mustahkamroq birlashtiradi ("mixlaydi").

Savol va topshiriqlar:

1. Ishlab chiqarish va uning turlariga ta'rif bering.
2. Ishlab chiqarishning qanaga tarmoqlari mavjud?
3. Sanoat tarmoqlari va uning rivojlanish bosqichlari.
4. Qishloq xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishi.
5. Transport tarmog'ining xususiyatlari.

7-mavzu. Mintaqalarda sanoat tarmog'ini rivojlantirishning hududiy jihatlari

Reja:

1. Sanoatni respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.
2. Yoqilg'i-energetika majmui.
3. Metallurgiya va mashinasozlik sanoati.
4. Sanoat tarmoqlarini takomillashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
5. Yengil va oziq-ovqat sanoati.

Tayanch tushunchalar: og'ir sanoat, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, yoqilg'i energetika, metallurgiya, mashinasozlik.

O'zbekiston xalq xo'jaligini yirik tarmoqlaridan biri sanoat bo'lib unda ish bilan band bo'lgan aholining 1/8 faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoat ko'p tarmoqli soha, O'zbekistonda uning yuzdan ortiq tarmog'i mavjud. Yalpi ichki mahsulotning 24,1%i sanoatda yaratiladi. Mamlakatimiz sanoati korxonalarida elektr energiyasi, gaz, neft, ko'mir, benzin, po'lat, avtomobillar, qishloq xo'jaligi mashinalari, elektrodvigatelalar, akkumulyatorlar, kabellar, ekskavator, yigiruv mashinalari, samalyotlar, mineral o'g'it, sun'iy tola, olingugurt kislotasi, turli qurilish materiallari, gazlamalar, un, paxta moyi, guruch, kiyim-kechak va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Tarmoqlarning sanoatda tutgan o'rni har xil.

Sanoat mahsulotlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi (% da).

4-jadval

1	Tarmoqlar	1995	2015
2	Butun sanoat	100	100
3	Yoqilg'i energetika majmui	18,3	33,9
4	Metallurgiya	13,9	11,6
5	Kimyo va neft	5,2	5,3
6	Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	8,8	19,2
7	O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza qog'oz	1,0	1,4
8	Qurilish materiallari sanoati	4,5	6,4
9	Yengil sanoat	18,6	14,1

1	Oziq-ovqat sanoati	9,8	20,9
0			

Mamba: O'zbekiston raqamlarda 2022 y.

Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmua xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan yetakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog'moy va boshqa sanoat turlaridir. Shu bilan birga kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika, metallurgiya, yengil va qurilish materiallari sanoati jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

Sanoat taraqqiyotida yoqilg'i-energetika majmuasining o'rni alohida. Uning tarkibiga gaz, neft qazish va ularni qayta ishlash, ko'mir qazish va elektr quvvati ishlab chiqarish kiradi. Bu majmuaning mamlakat sanoat ishlab chiqarishidagi hisssasi 33,9%dan iborat. O'zbekiston jahondagi 10 ta yirik gaz ishlab chiqaruvchi mamlakatlar jumlasiga kiradi. Respublikada qudrati gidroelektr stantsiyalari va issiqlik elektr stantsiyalari mavjud.

Metallurgiya majmuasi tarkibiga ma'dan xom ashyosini, qora va rangli metallarni qazib chiqaruvchi, boyituvchi va qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi. Oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molbden, litiy, uran, alyuminiy xom ashyosi, nodir metallar va boshqa qator qazilma boyliklarning aniqlangan zahiralari ko'p. O'zbekistonda oltinning 30 ta koni topilgan. Qazib olinadigan oltinning umumiy miqdori bo'yicha O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida ikkinchi, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux va chiqarish bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston jahon hamjamiyatida oltin ishlab chiqarish miqdori bo'yicha sakkizinchi, uni aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo'yicha esa beshinchi o'rinda turadi.

Kimyo va mashinasozlik majmualari sanoatning muhim sohalaridir. Sanoat tarmoqlarida chuqur tarkibiyqayta qurishlar amalga oshirilmoqda. Ular mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Ishlab chiqarilayotgan iste'mol mollarning uchdan bir qismi yengil sanoat korxonalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu yerda an'anaviy yetakchi soha to'qimachilikdir.

Yoqilg'i-energetika sanoati tarmoqlaridagi o'zgarishlar turli darajada kechmoqda. 1990-2014 yillarda yoqilg'i-energetika

sanoatida mahsulot ishlab chiqarish 3 marta o'rdi. Ushbu tarmoqning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 18,3 foizdan 33,9 foizga chiqdi, mamlakatning yoqilg'i-energetika mustaqilligi ta'minlandi va tarmoqning qayta ishlash salohiyati kengaydi. Ayniqsa, neft va gaz kondensatini qazib olish yillik hajmi 1990 yilga nisbatan 2014 yilda 1,8 marta, tabiiy gaz ishlash chiqarish hajmi 1,8, yonuvchi gaz ishlash chiqarish esa mazkur davrda 15,6 barobar o'sdi. Bu sanoat tarmog'i gaz, neft, ko'mir qazib chiqarish, neftni qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berishni o'z ichiga oladi. Shulardan biri elektro energetikadir. O'zbekiston rivojlangan elektr energetika tizimiga ega. Respublikada umumiy quvvati 11220 mVt ga teng 37 elektrostansiya ishlaydi. Shundan 9800 mVt issiqlik stantsiyalariga, 1420 mVt gidroelektrostantsiyalariga to'g'ri keladi. Barcha elektrostansiyalar salohiyati bir yilda 56-57 mlrd kVt/s ga teng elektroenergiya ishlab chiqarishga imkon beradi.

Suv elektr stansiyalari orasida eng kattasi Chorboq' GES hisoblanadi (quvvati 660 ming kVtdan ortiq). Issiqlik elektrostansiyalari ichida Sirdaryo, Yangi-Angren, Toshkent va Navoiy IESlari har birining quvvati 1000 mVtdan oshadi. O'rta Osiyoda eng yirik – Tolimarjon IESining qurilishi davom etmoqda, bir necha yuz kilometrlik elektr uzatuvchi liniyalari ishga tushirildi. Yangi Angren IESining 7-energiya bloki qurib ishga tushirildi. Sirdaryo IESi modernizatsiya qilindi. Toshkent, Sirdaryo, Navoiy, Taxiotosh kabi yirik issiqlik elektrostansiyalari respublikadagi asosiy elektroenergiyani hosil qilmoqda. Toshkent IESining quvvati 1920 ming kVt ga yaqin, Yangi Angren IESniki 2400 ming kVt (Nurobod shaharchasi). Shuningdek, Angren shahrida Angren - 1 IES (600 ming kVt) ham ishlab turibdi. Mazkur issiqlik elektr stantsiyalari ko'mir, mazut va gaz asosida ishlaydi. Bugungi kunda mamlakatdagi gidroelektrostantsiyalarining umumiy quvvati 1420 megavatni, elektr tarmoqlarining uzunligi 224 ming kilometrni tashkil etadi. Chorvoq, Xojikent, G'azalkent, Farhod GESlari elektroenergiyaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Aynan elektr energiya hosil qilish va uni iste'mol qilish bo'yicha O'zbekiston MDH davlatlari ichida Rossiya, Ukraina, Qozog'istondan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. 2008 yilda ishga tushirilgan uzunligi

165 kmlik Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi-"O'zbekiston" yuqori kuchlanishi elektr uzatish liniyasi barpo etildi. Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini "So'g'diyona" kuchlantirish stansiyasi bilan bog'laydigan, G'uzor-Surxon yuqori kuchlanishi elektr uzatish liniyalari va Toshkent shahri elektr ta'minoti obyektlari loyihalarini amalga oshirish ishlari davom etmoqda.

Neftni qazib olish va neftni qayta ishlash sanoatining tashkil etilishi respublika energetika xavfsizligini ta'minlay boshladi. Mazkur yoqilg'i sanoati tarmog'ining asosiy korxonalari Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida qurilgan. Chunki, respublikadagi 160 dan ortiq neft va gaz konlarining 115 tasi Buxoro-Xiva geologik provinsiyasida, 27 tasi Farg'ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan.

Respublika hududidagi Farg'ona, Oltiariq va Buxorodagi Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodlari, Muborak va Sho'trandagi gazni qayta ishlash zavodlari xilma-xil neft va gaz mahsulotlari ishlab chiqarmoqda va hatto ayrim neft mahsulotlari chetga eksport ham qilinmoqda. Sho'trang neft-gaz zavodida yiliga 125 ming tonna polietilen, 140 ming tonna suyuqlashtirilgan gaz, 130 ming tonna yengil kondensat, 4 milliard kub metr dan ziyod gaz va 4 ming tonna olingugurt olinadi.

Gazni qayta ishlaydigan zamonaviy zavod qurishni o'z tarkibiga olgan Qandim guruhi konlarini, shuningdek Xauzak va Shodi konlarini o'zlashtirish, istiqbolli uglevodorod xom ashyo konlarida geologiya-qidiruv ishlari olib borish bo'yicha yirik loyihalar mavjud. Mazkur loyihalardan tashqari Surg'il koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etilishi, Qalmoqgir konini kengaytirish va rekonstruksiya qilish, Navoiy issiqlik elektr stantsiyasida bug'-gaz moslamasini qurilishi, Yangi Angren issiqlik elektr stantsiyasining beshta energiya blokini yil davomida ko'mir asosida ishlash tizimiga o'tkazilishi strategik jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Yoqilg'i-energetika majmuida ko'mir sanoatining o'rni ham bor. Angren qo'ng'ir ko'mir koni va Surxondaryodagi Sharq'un, Boysun toshko'mir konlarining yoqilg'i balansida ulushi katta. Ularning umumiy zabirasi 2 milliard tonna. Angren qo'ng'ir ko'mir koni O'zbekistonda chiqariladigan jami ko'mirning 95 foizini beradi.

Ushbu kondagi ko'mir qatlamlari orasida joylashgan kaolin asosida "Kaolin" qo'shma korxonasi ham ishlab turibdi.

Sanoat tarmoqlar majmuida metallurgiya va mashinasozlik alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida ushbu tarmoqning jami sanoatdagi ulushi 21,4 foizdan 30,8 foizga o'sdi. Qolaversa, 1990-2015 yillarda mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ining o'sish sur'ati umumiy 13,0 barobarga teng bo'ldi. Bu barcha sanoat tarmoqlari ichida eng katta ko'rsatkichdir. Metallurgiyada rangli metallurgiya yetakchi mavqei egallaydi. Respublikada ushbu sanoat tarmog'i asosan mahalliy xom ashyoga tayangan holda rivojlanmoqda. Shunday korxonalar qatorida rangli, qimmatbaho va nodir metallar ishlab chiqaruvchi Olmaliq, Zarafshon, Chirchiq, Navoiy va boshqa shaharlardagi Olmaliq, metallurgiya kombinatlari ajralib turadi. Toshkent viloyatining Angren-Olmaliq tog'-kon sanoati, Navoiy viloyati Murotlov oltin koni, Jizzax viloyati Marjonbuloq, Samarqand viloyatidagi Ingichka konlari va boshqa konlar mazkur tarmoqning negizi hisoblanadi.

Toshkent viloyatining Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Ohangaron-Olmaliq tog' kon sanoatida joylashgan mis, qo'rg'oshin, rux, polimetall konlari negizida shakllangan. Chirchiqda o'tga chidamli va qattiq qotishma metallar kombinati, Ingichka volframi va Qo'yto'sh volfram-molibden konlari rudalari va mis rudalaridan ajratib olinadigan molibden tayanib ishlaydi va 100 ga yaqin mahsulot ishlab chiqaradi. Bulardan, "Olmaliq TMK" OAJda mis mahsuloti, sink, oltin, gurgurt kislotasi, Chirchiqdagi "Chirchiq metall qurilmalari" OAJda metall konstruksiyalar ishlab chiqarilmoqda. Hozirda "Xonjiza" konida polimetall rudalarga ishlov berish yo'lga qo'yildi. Navoiykon-metallurgiya kombinatining yangi obyektlari barpo etildi. Rangli metallurgiyadan farqli ravishda qora metallurgiya tarmog'i nisbatan kam rivojlangan. Sababi, respublikada yirik temir ruda konlarining yo'qligi, 1944 yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan yagona Bekobod qora metallurgiyaning kombinatining faqat to'plangan temir-tersaklarni qayta ishlash orqali po'lat va tayyor prokat hamda turli xil maishiy ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashishiga olib kelgan. O'zbekiston iqtisodiyot tarmoqlari ichida mashinasozlik bugungi kunda o'ta muhim tarmoq hisoblanadi. Mashinasozlik sanotining

100 dan ortiq korxonalarida turli xil mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, ya'ni paxta teruvchi mashinalar, yerga urug' qadadvigan, to'quv-yigiruv, sug'orish mashinalari, turli xil stanoklar, televizor, audio va videomagnitofonlar tayyorlanadi. Oxirgi 10 yilda yengil avtomobil ishlab chiqarish hajmi 7,1 martaga, avtobuslar 2,6 martaga, yuk mashinalari 12,9 martaga ko'paydi.

Mashinasozlik sanoatida avtomobilsozlik alohida o'rin tutadi. Avtomobilsozlik avtomobillar, avtomobil dvigatellari, avtomobillarga ehtiyoj qismlar, turli jihozlar va boshqa asboblari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Dastlabki yengil avtomobil zavodi 1996 yilda Andijon viloyatining Asaka shahrida Janubiy Koreya bilan hamkorlikda bunyod etilgan edi. Bu "Uz Deu avto Ko" qo'shma korxonasi "Damas", "Tiko", "Neksiya" va "Matiz" rusumdagi avtomobillarni chiqara boshladi. Natijada, O'zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaradigan 28 chi mamlakat bo'ldi.

Bugungi kunga kelib, Asaka shahrida AQShning "Jeneral motors" kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobil ishlab chiqarilmoqda. Shuningdek, Andijonda yana "GM O'zbekiston" QK, "Pritsep" AJ, "UzKodji", "UzTong Xong KO", "Uz Dong Yang Ko", "Uz Sam Yung Ko", "Uz Dong Yung Ko" qo'shma korxonalari mavjud (aksariyati Janubiy Koreya respublikasi bilan hamkorlikda yaratilgan). "Uz Dong Yang Kompani" qo'shma korxonasi avtomobil ichki jihozlari o'rindiq g'iloplari, Farg'onadagi "Yevraziya Tapo-Disk" qo'shma korxonasi avtomobil diskleri tayyorlashga ixtisoslashgan. Toshkent viloyatining "Chirchiqqishmash" zavodida kultivator KXU-4B, plugboronalar ishlab chiqariladi. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat tarmog'iga qarashli qator tajriba va ta'mirlash mexanika va boshqa zavodlar ham faoliyat yuritadi ("Marhamat - ETZ", "Andijonkabel", Avia mexanika zavodi va h.k.).

Mutlaqo yangi texnologik platforma negizida "Spark", "Orlando" yengil avtomobil yaratildi. Shu bilan birga katta hajmda yuk tashiydigan "MAN" (Germaniya) avtomobillarini Samarqandda, energiya tejaydigan lampalar, "ELIJ" rusumidagi jahonga mashhur xolodilniklari ishlab chiqarilmoqda. Natijada, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1990-2022 yillarda 11,6 martaga ortdi. 2011 yildan AQShning "Jeneral motors" kompaniyasi bilan hamkorlikda yiliga 225 ming

dona avtomobil kuchlanish agregatlarini ishlab chiqaradigan korxona qurilib topshirildi.

2022 yilda respublikada jami bo'lib 220313 dona avtomobil ishlab chiqarildi shundan, 250,7 dona yengil avtomobil, 1217 dona avtobus, 2,2 ming dona traktor, bundan tashqari 241669 dona televizorlar, 68236 dona konditsioner mahsulotlari ham tayyorlandi.

Germaniyaning "Klass" kompaniyasi bilan hamkorlikda zamonaviy, ish unumi yuqori bo'lgan traktorlar, g'alla o'rish kombaynlari va boshqa qishloq xo'jalik texnikalarini ishlab chiqish bo'yicha hamkorlik o'rnatilgan. Respublikada temir yo'l mashinasozligi ham yaxshi rivojlangan. Bularga, Toshkent temiryo'lmashta'mir korxonasi, Andijondagi "Uzeldormash" birlashmasi qoshidagi mexanika zavodlari kiradi. Bularidan Andijondagi "Uzeldormash" birlashmasi qoshidagi mexanika zavodida yangi vagon sisternalari va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Joriy yil boshidan buyon 3440 yangi ishlab chiqarish quvvati ishga tushirildi. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish va zamonaviy infratuzilma obyektlarini barpo etishga qaratilgan umumiy qiymati 888 mln.dollardan ziyod 76 yirik investitsiya loyihasi foydalanishga topshirildi. "GM-Uzbekiston" aksiyadorlik jamiyatining "Xorazm viloyatida "Labo" avtomobillari ishlab chiqarishni tashkil qilish, "Pomik" siquv kompressor stantsiyasini modernizatsiya qilish", "Qultog" konini takomillashtirish orqali "Motor zavodi" aksiyadorlik jamiyatining bo'sh turgan ishlab chiqarish maydonlari bazasida alyumin va plastmassa buyumlari, maishiy texnika uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarishni tashkil etish, "Jizzax" maxsus industrial zonasi hududida telekommunikatsiya uskunalari ishlab chiqarishni tashkil qilish shular jumlasidandir.

Sanoat tarmoqlarini takomillashtiruviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlari tuzilmasini o'zgartirish va takomillashtirish iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy siyosatning asosiy negizi bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar hamda

sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ilmiy-texnik taraqqiyot tovarlarga bo'lgan talabning qondirilishiga, tovarlar sifatining yaxshilanishiga olib boradi. Aholini sifati mahsulotlar bilan ta'minlash uzviy ravishda sanoat ishlab chiqarish tarmoq tuzilmasining o'zgarishi hamda yangi tarmoqlarning vujudga kelishi, mavjudlarini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Bu orqali iqtisodiy tizimda, u yoki bu tarmoqda ijobiy siljish sodir bo'ladi, hamda iqtisodiyotning rivojlanish dinamikasi o'zgaradi.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlar orasida mutanosiblik o'rnatish;

ishlab chiqarish tuzilmasining prognoz va tendensiyalarini ishlab chiqish;

tarmoqlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirish;

ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish;

shaxsiy va ijtimoiy iste'molni o'rganish hamda aholini sanoat mahsulotlari bilan to'la ta'minlash;

tarmoqlarda xom ashyo va resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirib borish.

Tarmoqlar tuzilmasini shakllantirishda asosiy e'tibor iqtisodiy rayonlarning barcha tarmoqlarini resurslar, kapital mablag'lar, xom ashyo va materiallar bilan ta'minlash, mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoq tuzilmasining rivojlanish darajasi talabga javob bermaydi. Tarmoqlarning ichki qurilmasini qayta qurish, mahsulot ishlab chiqarish va aholining turmush darajasini oshirish, chet el korxonalari bilan iqtisodiy hamkorlik qilish, chet el investitsiyalari hamda ilg'or texnologiyalarini sifati sanoat mollari tayyorlashga safarbar qilish vazifalarini xalq etish lozim.

Asosiy fondlar strukturasi quyidagi ko'rinishda tasavvur qilish mumkin:

- ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarmaydigan asosiy fondlar;
- asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismi;

- alohida elementlar ulushi.

Sanoat ishlab chiqarish tuzilmasi to'la-to'kis ishlab chiqarish omillari tarkibidan va shu tarkibni tashkil etuvchi elementlarning oqilona variantidan iboratdir. Ana shu omillarning umumiyliigi yoki bog'liqligining muntazam buzilishi milliy iqtisodiyotning barcha bo'g'inlariga yomon ta'sir qiladi, ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barkamollashtirishda inson omili alohida o'rin tutadi. U iqtisodiyot tuzilmasining jadallashirishning qo'shimcha sharoiti sifatida ishtirok etadi, shunda u aholining daromadiga, ishchilarning malakasini oshirishga va boshqa ijtimoiy jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatadi, mutlaqo yangi malakali va ma'lumoti tuzilmani shakllantiradi. Bu masala qanchalik muhim bo'lmasin, lekin u ham iqtisodiyotni o'rganish va rejalashtirish amaliyotida o'z aksini topadi, chunki shu vaqtgacha sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish jarayonida faqat son qiymatiga e'tibor berilib sifati hisobga olinmagan.

Hozirgi sharoitda, ya'ni iqtisodiyot rivojlanish sur'atini jadallashirish va xalq turmush darajasini oshirishda tarmoqlararo va sanoat ishlab chiqarishi sohaları bo'yicha resurslar, kapital mablag'lar va mehnat resurslarini taqsimlashning shunday yo'nalishini izlash lozimki, bu yo'nalish qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga mumkin qadar samarali erishish uchun imkon bersin.

Respublika sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mintaqadagi tarmoqlarni har tomonlama tahlil qilish ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda yengillashiradi. Bunday tahlil qilish nafaqat moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini baholashga imkon beradi, balki iqtisodiyotni qayta qurish, ishlab chiqarish strukturasi rivojlantirish va strukturaviy o'zgartirishlar yo'nalishini ham belgilab beradi.

Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish samaradorligi tarmoqlar salmog'ining oshirishini va sof mahsulotning o'sishini ta'minlaydi. Bu esa milliy daromadga ijobiy ta'sir qiluvchi boshqa omillarni inkor etmaydi.

Milliy daromadning o'sishiga uch xil yo'l bilan erishish mumkin:

- bandlik tarkibining o'zgarishi;

76

- sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini o'sishi, oshishi;
- tarmoqlardagi asosiy fondlar va investitsiya qiymatining ko'payishi.

O'zbekistonda ko'p miqdorda foydalanilmagan zahiralar hamda mehnat resurslari mavjud ekan, demak ishlab chiqarish samarasini ko'paytirishda intensiv omillar bilan birga ekstensiv omillardan ham foydalanish lozim bo'ladi.

Tarmoq tarkibini respublikamiz miqyosida qulaylashuvi yuqori sur'atdagi iqtisodiy rivojlanishi, aholining turmush darajasini oshirishni hamda bir birlik mahsulot ishlab chiqarishning darajasi va yakuniy mahsulotning ko'payishiga umuman ijobiy strukturaviy siljishlarga sabab bo'ladi. Demak, tarkibiy o'zgarishning o'zi ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligi o'sishining qo'shimcha omili bo'lib maydonga chiqadi.

Shular bilan bir qatorda yuqoridagi barcha omillar o'zaro bog'liqdir. Tarmoq faoliyati natijalarining strukturasi ishlab chiqarish omillari funksiyasidan iborat:

$$V = f(F1, Is)$$

Bu yerda F-asosiy fondlar

Is-ishchilar soni

$$\text{yoki } V = f(F1, F2, \dots, Fn), Is(1, 12, \dots, In))$$

Bu yerda Fn-fondlar tarkibi;

In-ishchilarning bandlik strukturasi.

O'zbekiston yengil sanoati ko'p tarmoqli bo'lib, unda paxta tozalash, to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, ko'n-poyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqariladi. O'zbekiston yengil sanoat tarmog'ining o'sish sur'ati 1990-2014 yillarda 3,7 martani tashkil etdi. Respublikada 1990 yilga nisbatan 2014 yilda paxtadan ip gazlama ishlab chiqarish 2,4 martaga oshdi. Gilam va gilam mahsulotlari 2014 yilda 21 mln m² ni tashkil etdi yoki 2000 yilga nisbatan 13,6 marta ko'p ishlab chiqarildi. Jumladan, ip gazlama Toshkent, Farg'ona to'qimachilik va Buxoro ip gazlama kombinatlarida ishlab chiqarilar edi. Hozirda bukorxonalariningayrimlari o'zishfaoliyatinito'xtagan. Buxoro shahrida "DEUtekstil" to'qimachilikkompleksi, Toshkentviloyatida "Xaytekabel" qo'shma korxonasi, "Spentex Toytepa tekstil"

77

qo'shma korxonasi, Olmaligshahrida gilamfabrikasi, "DEU tekstil interneyshl" QK, "Osivoteks" va "Xumo", Buxorodagi "Buxoro brilliant shilk"; "O'zkarpet" gilam korxonasi, "Ramstar", "Qorako'feks" qo'shma korxonalari; Farg'onadagi "Quva tekstil", "Rishton teks", "Rus-O'zbekteks" to'qimachilik qo'shma korxonalari, "Vodiy Toshloq tekstil", "Alesta - Glass" "Orshahev tekstil" mchi (paypoq maxsulotlari) va Xitoy texnologiyasi yordamida Xorazmda uskunalari bilan jihozlangan Bog'otdagi tibbiy paxta (momig) ishlab chiqaruvchi fabrika, Rossiyaning Kamishin fabrikasi bilan hamkorlikda Xongada ip kalava va ip gazlama ishlab chiqaruvchi korxona, "Gurlantekstil", Xiva gilam kombinati mashhur. Yengil sanoat korxonalaridan Andijondagi "Investeks" qo'shma korxonasi trikotaj buyumlar va trikotaj mato, Toshkent shahridagi "Toshkayatekstil qk" kalava, trikotaj polotnosi, paxta-chit matosi, "Sikechi tashstekstil" qk, "Trendyoland" qk, "Konteks-tashkent" xk lari trikotaj mahsulotlari, kalava, trikotaj polotnosi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Shuningdek, Toshkent viloyatida joylashgan "Billur tekst" korxonasi trikotaj mahsulotlari yiliga - 550 ming dona, "Yangiyo'l paxta tozalash" zavodi paxta tolasini 10800 tn, "Elmur end Ruslan" qo'shma korxonasi yiliga - 5000 dona tikuvchilik mahsulotlarini yaratmoqda. Ip gazlamadan tashqari ipak gazlama ham bir vaqtlar respublikaning mashhur mahsulotlaridan biri bo'lgan. Hozirda Farg'onadagi pillakashlik fabrikalarida mahsulot chiqarish qisqarib ketganligi munosabati bilan, asosiy ipak gazlama mahsulotlari Samarqand viloyatida tayyorlanmoqda. Mayjud pillakashlik fabrikalari ham to'liq quvvat bilan ishlayotgani yo'q. Toshkentdagi chinni-fayans buyumlar ishlab chiqaradigan "Mikond" zavodi (Oniks birlashmasi) yengil sanoatning yetakchi korxonasidir. Bu zavodda bir yilda 10500 dona maishiy qandillar, qandil idishlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Yengil sanoatda ko'pchilikning alohida o'rni bor. Ko'pchilik sanoati Toshkent, Samarqand, Qo'qon va Farg'ona viloyatlarida rivojlangan. Bu korxonalar asosan mahalliy xom ashyoni qayta ishlash va ishlov berishga tayanadi.

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati ko'p tarmoqlarga ega bo'lib geografyasi kengdir. Undagi mavjud yirik korxonalar respublikaning barcha viloyatlarida uchraydi. 1990-2014 yillarda

oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 5,4 martaga o'sdi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari orasida Buxorodagi Kogon yog' - ekstraksiya zavodi, shuningdek, Buxoro yog'-ekstraksiya zavodi, "Yevrosnar" qo'shma korxonalari, "Andijon yog'-moy" zavodi muhim hisoblanadi. Ayni vaqtda, tarmoqda "Xorazm shakar" qo'shma korxonasi va Samarqand choy fabrikasi, Guliston yog'-ekstraksiya zavodi alohida o'rinni egallaydi. Aynan shakar ishlab chiqarish respublikada 2000 yilda 10169 tonna bo'lgan bo'lsa, 2014 yilda 425,5 tonnaga yetdi. Andijon, Toshkent, Farg'ona viloyatlaridagi yog'-moy kombinatlari, Kattaqo'rg'on, Qo'qon shaharlarida va Uchqo'rg'on tumanidagi yog'-ekstraksiya zavodlari respublika aholisining yog'-moy, sovun mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi. Birgina, Toshkent yog'-moykombinatida qadoqlangan yog', o'simlik yog'i, mayonez, margarin mahsulotlari tayyorlanadi. Shuningdek, Toshkent viloyatidagi "Yangiyo'l yog'-moy" zavodi respublikada yog', sheluxa, kombikorma, sovun ishlab chiqarish bo'yicha mashhur korxonalardan biridir.

Savol va topshiriqlar:

1. Sanoat tarmoqlari qanday guruhlariga bo'linadi?
2. Undiruchi sanoat tarmoqlari qaysilar?
3. Qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari?
4. Agrosanoat majmua qaysi tarmoqlarni o'z ichiga oladi?
5. Yoqilg'i-energetika majmuiga kiruvchi asosiy tarmoqlarni ta'riflang?
6. Sanoat tarmoqlari tuzilmasini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari qaysilar?
7. O'zbekistonda eng sifatli ko'mir qaysi konda qazib olinadi?

8-mavzu. Mintaqalarda yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish

Reja:

1. Yer resurslari haqida umumiy tushuncha.
2. Yer resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.
3. Yer fondi va uning turlari.
4. Suv resurslarining agroiqtisodiyotda tutgan o'rni.
5. Mintaqalarning suv resurslari bilan ta'minlanganligi.

Tayanch tushunchalar: yer resurslari, qishloq xo'jaligi, yer fondi, suv resurslari, yer turlari, O'zbekiston, Markaziy Osiyo, yer va suv resurslaridan foydalanish.

Yer resurslari xo'jalikda asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib, u boshqa ishlab chiqarish sharoitlaridan avvalo tabiiy hosila ekanligi bilan ajralib turadi. U har qanday faoliyatning birlamchi asosi hisoblanadi va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida uning o'rni kattadir. Yer resurslari borasida har xil sohalar, turlicha qarashlar mavjud. Umuman olganda, yer resurslariga berilgan quyidagi ta'riflarga e'tibor qaratilsa, ular orasidagi farqlarni ilg'ash qiyin emas.

Yer resurslari – ma'lum bir davlat, mintaq, viloyat, tuman yoki hududdagi tabiiy-tarixiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan, aniq bir xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yerlardir. Ushbu ta'rifda nisbatan kengroq, umumiy xo'jalik doirasida fikr bildirilgan. Ya'ni bu yerda iqtisodiyotning har bir tarmog'i uchun xos bo'lgan yer resurslari mavjudligi nazarda tutilgan.

Yer resursi bu – yer fondining tarkibiy qismi bo'lib, u o'ziga xos tuproq sifati, iqlim, relyef, gidrogeologik xususiyatlari bilan tavsiflanadi, jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichida undan asosan zarur mahsulotlar yetishtirishda va boshqa maqsadlarda foydalaniladi. Bunda asosan yerdan qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish nuqtai-nazaridan kelib chiqib ta'rif berilgan.

Yerning ishlab chiqarish vositasi sifatidagi eng asosiy xususiyati uning tuproq unumdorligidir, hamda bu xususiyati bilan yer sayyorada hayot mavjudligining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tuproqqa shu vaqtgacha rus tuproqshunos olimi

V.V. Dokuchayev tomonidan berilgan ta'rif eng maqbul hisoblanadi. Ya'ni "tuproq – iqlim, organizmlar, grunt, mahalliy relyef va o'lkaning yoshi kabi omillarning birgalikdagi faoliyati ta'sirida paydo bo'ladigan tabiiy-tarixiy hosiladir. Demak yer yoki yer resurslarini bevosita qishloq xo'jaligi bilan bog'lab turgan vosita bu tuproqdir. Tuproqni esa qishloq xo'jaligidagi foydalilik jihati uni baholash orqali aniqlab olinadi. Bunda 100 ballik bontet (baho) dan foydalaniladi. Tuproq boniteti – yer resurslarining (tuproqning) sifat jihatdan qiyosiy baholanishidir. Tuproq sifati uning foydalilik darajasi (ko'effitsiyenti) bo'lsa, qiyosiy baho esa, uni (aynan) biror hudud doirasida amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

Jahon miqyosida yer resurslaridan foydalanishda ularni ma'lum bir turlarga, ya'ni yer fondiga ajratib o'rganiladi. Yer fondi bu ma'lum hududda, uning chegaralari ichidagi (mamlakatda, viloyatda, tumanda va hokazo) xo'jalik yuritish, mulkka egalik qilish, foydalanish, ijara obektlari hisoblangan barcha yerlarning yig'indisidir. O'zbekistonda ham yerdan foydalanishni tartibga solish maqsadida yer fondi tashkil etilgan.

Yer fondi, mamlakatimizda qaysi maqsadda foydalanishiga ko'ra, 8 toifaga bo'linadi. Ularning eng asosiy qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar hisoblanadi. Ushbu toifadagi yerlar mamlakatimizda 20236,3 ming ga bo'lib, u jami yer fondining 45 foizini tashkil etadi.

Aholi turar joylari yerlariga shahar va shaharchalar, ma'muriy chegaralarida bo'lgan hamda qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari foydalanayotgan yerlar tarkibiga kirmagan qishloq aholi punktlari kiritilgan. Uning yer maydoni 2021 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra 221,4 ming gektar yoki jami yerlarning 0,49 foizini tashkil qiladi.

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlariga belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar kiradi. Bu toifadagi yerlarning maydoni 2021 yilda 866,3 ming gektar yoki jami yerlarning 1,9 foizini tashkil etdi.

Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 710,4 ming gektardir. Bu muhofaza etiladigan tabiiy hududlar

egallagan, ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlardan iborat. Ularning asosiy qismini qo'riqxonalar va milliy bog'lar egallaydi. Davlat tabiiy qo'riqxonalarini tabiatni muhofaza qilish, ilmiy-tadqiqot va ekologik-maorif muassasalari bo'lib, maqsadi – tabiiy jarayon va hodisalarni, o'simlik va hayvonot dunyosi genetik fondini, o'simlik va hayvonlarning ayrim tur va turkumlarini, tipik va noyob ekologik tizimlarni tabiiy holatda saqlab qolish va o'rganishga qaratilgan.

Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik, ya'ni yerlar - moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlarning umumiy maydoni 2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 14,5 ming gektarni tashkil qiladi.

O'rmon fondi yerlariga o'rmon bilan qoplangan, shuningdek o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyotlari uchun berilgan yerlar kiradi. Bu toifadagi yerlar maydoni 11199,5 ming gektarni yoki jami yerlarning 24,9 foizini tashkil qiladi. O'rmon hududlarining tabiatni muhofaza qilish xususiyatlari va o'rmonzorlarni qayta tiklash jarayoni uzoq kechishini hisobga olingan holda ularni muhofaza qilish va ko'paytirish muammosiga katta e'tibor berilishini talab qiladi. Shu sababdan 1991 yildan boshlab qishloq xo'jalik korxona va tashkilotlari foydalanishida bo'lgan, o'rmon bilan qoplangan yaylov va pichanzorlar maydonlari belgilangan tartibda o'rmon fondi yerlari toifasiga o'tkazilgan. Bu esa o'rmon fondi yerlari maydonini ko'paytirish va shu asosda tuproqlarning degressiyalanish va xo'jalik maqsadlarida o'rmon daraxtlari kesilishining oldini olishda muayyan darajada qulay sharoit yaratadi.

Suv fondi yerlariga suv obyektlari, inshootlari egallagan yerlar hamda suv xo'jaligi ehtiyotlari uchun berilgan suv inshootlari yogasidagi himoyalashish zonalarini kiradi. Suv fondi yerlari maydoni 836,9 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 1,87 foizini tashkil qiladi.

Zahira yerlarga egalik qilish, foydalanish va ijara maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan hamda boshqa yer toifalarida hisobga olinmagan barcha (shu jumladan, suv osti) yerlar kiradi. Zahira yerlar maydoni respublikamizda 10807,1 ming gektar yoki umumiy yer maydonining 24 foiziga teng.

Suv resurslari tabiatdagi barcha chuchuk va o'rta minerallashgan, sun'iy ravishda chuchuklashtirilgan hamda tozalangan suvlardan iborat bo'lib, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ishlatilayotgan va kelajakda ishlatilishi mumkin bo'lgan suv manbalari yig'indisidir. Biroq hozirgi ijtimo-iqtisodiy taraqqiyot bosqichida tabiatdagi barcha suvlardan bevosita foydalanib bo'lmaydi. Shu bilan birga "suv resurslari" tushunchasini barcha suvlar yig'indisining sinonimi deb tushunmaslik kerak. Haqiqatan ham bu kategoriya faqatgina tabiatga xos bo'lmay, balki ijtimo-iqtisodiy va iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida o'zgarib turadi.

Suv resurslari eng avvalo yer, so'ngra iqlimiy resurslar bilan birgalikda tirik organizmlar rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiyot nuqtai - nazaridan ham har qanday mamlakat xo'jaligida suv resurslarining ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Suvlar asriy (yer usti qatlamlari, qutb va baland tog' muzliklari, yirik ko'llar va shu kabilar to'plangan chuchuk suvlar) va qayta tiklanadigan (daryo oqimlari, yer osti suvlarining o'zgaruvchan va dinamik zahiralari, ko'llar hajmining bir qismi va b.) turlarga bo'linadi.

Suv resurslaridan foydalanishda asosan iqtisodiy, ekologik hamda siyosiy omillarning ahamiyati yuqori bo'lib qolmoqda. Iqtisodiy tarmoqlar doirasida olib qaratilganda qishloq xo'jaligi, ayolqsa dehqonchilik yetakchi hisoblanadi. YA'ni umumiy zabiraning o'rtaacha 80-85 foizi ushbu sohalar rivoji uchun sarf qilinadi. Bu ham hududlar bo'yicha bir-biridan keskin farq qilib, birinchidan o'sha joylarda yetishtiriladigan ekinlar farq qilsa, ikkinchidan sug'orishga ishlatiladigan suvlar miqdorining turlicha ekanligidir. Qishloq xo'jaligida suv sarfini eng ko'p talab qiladigan yo'nalish suvsiz yerlarga suv yetkazib berish hisoblanadi. Bunday yerlar bir yilda gektariga o'rtaacha 1000-30000 m3 gacha suv iste'mol qiladi [32, 33]. Yaylov yerlarga sarflanadigan suv xarajatlari uncha katta bo'lmaydi, ammo u ko'pincha yoz oylariga to'g'ri keladi. Hunday sharoitda suvning katta qismi yer osti suv manbalaridan qulduq va boshqa inshootlar yordamida olinadi. Gidroenergetika, baliq xo'jaligi va boshqa tarmoqlar suvni sarf qilmaydi. Ular asosan ularning kuchidan yoki suv hosil qilgan qulay sharoitlardan foydalanishadi.

Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar orasidagi suv taqsimotida O'zbekistonning ulushi 71,48 km³ni tashkil etadi. Mazkur mintaqada suv resurslarining notekis taqsimlanishiga hamda u bilan bog'liq muammolarining chuqurlashishiga yana bir omil, suv resurslarining hosil bo'lishi va undan foydalanish areallari bir-biridan farq qilishidir. Jumladan, regionda suv eng ko'p shakllanadigan hudud Tojikiston bo'lsa, undan foydalanish bo'yicha O'zbekiston yetakchi. Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalarida tog'lik joylarining kamligi sababli suv juda kam shakllanadi (1-jadvalga qarang). O'z navbatida Afg'onistonda suvdan iqtisodiyotda deyarli foydalanilmaydi. Suvdan foydalanishda unga bo'lgan talab va aholi soni ko'proq ta'sir qiladi hamda bu ikkalasi bir-biriga aloqador jarayonlardir.

1-jadval
Markaziy Osiyoda suv resurslarining hosil bo'lishi va undan foydalanish (foiz hisobida)

№	Respublikalar	Suv resurslarining hosil bo'lishi	Suv resurslaridan foydalanish	Suvdan foydalanish indeksi
1	Tojikiston	40	10	0,250
2	Qirg'iziston	27	7	0,259
3	Afg'oniston	19	5*10-3	0,005
4	O'zbekiston	10	45	4,500
5	Qozog'iston	2	18	9,000
6	Turkmaniston	2	20	10,00
	Jami	100	100	1,000

Manba: O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi ma'lumotlari, 2021 yil.

Suvdan foydalanishda aholi jon boshiga hisoblaganda Markaziy Osiyo davlatlarida suv resurslari o'rtacha 2800 m³ ni, shu jumladan O'zbekistonda 2600 m³, Qirg'izistonda 1900 m³, Turkmanistonda 4000 m³ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Misrda 900, Isroilda 455 va Jordaniyada 290 m³dan iborat.

Suv resurslari hududiy jihatdan notekis joylashgan bo'lib, tog'larda hosil bo'lsada, keng tarmoqli sug'orish kanallari yordamida, asosan, tekisliklarda foydalaniladi. Ayni vaqtda suv bilan bog'liq muammolarni hal qilishda mukammal tizim ishlab chiqish bo'yicha

harakatlar amalga oshirilmogda. Suv resurslarini ma'muriy boshqaruvdan havzaviy boshqaruv tamoyiliga o'tkazilishi suvni samarali boshqarish va adolati taqsimlash imkonini berdi. Hozirda mamlakatimizda 13 ta irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari (ITHB), 63 ta irrigatsiya tizimlari boshqarmalari (ITB), tuman irrigatsiya bo'limlari, suv omborlari va magistral kanallari boshqarmalari faoliyat yuritib kelmogda.

Mamlakatimiz qishloq xo'jalik geografiasining shakllanishida hududlarning yer fondi, uning tarkibi bilan bir qatorda agroiklimiy resurslar, ya'ni namlik (suv), harorat va tuproq, mehnat resurslari, ularning ish malakalari kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, respublikamizda issiq kunlar ko'p, vegetatsiya davri uzoq, binobarin, ba'zi qishloq xo'jalik mahsulotlarini bir yilda 2-3 hosilini olish mumkin. Umumiy tarzda, tuproq eroziyasi, uning shov'lanishini oldini olishda, mamlakatimiz tuproqlari ham (asosan bo'z yoki sur tuproqlar ko'p tarqalgan) agroiktsodiyot rivojlanishiga qulaylik yaratadi.

Biroq, bu "uchlikning" eng muammolisi suv resurslaridir. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, respublikamiz hududida uning suv resurslarini taxminan 10 foizi shakllanadi, xolos. Qolgan qismi muhim gidrologik manbalar, ya'ni Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon transchegaraviy xarakterga ega bo'lib, ular asosan qo'shni davlatlar - Tojikiston va Qirg'iziston hududidan boshlanadi. Shu bois, mavjud suv resurslaridan unumli foydalanish, sug'orma dehqonchilikda yangi texnologiyalarni joriy qilish, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro, kalqaro meyor va qoidalaridan kelib chiqqan holda suv resurslarini oqilona taqsimlash respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng dalzarb muammosidir.

Savol va topshiriqlar

1. Yer resurslariga ta'rif bering.
2. Yer resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyatini aytib bering.
3. Yer fondining qanaqa turlari mavjud?
4. Suv resurslarining mintaga agroiktsodiyotidagi o'rni.
5. Mintaqalarning suv resurslari bilan ta'minlanganlik holati qanday?

9-mavzu. Mintaqalarda qishloq xo'jaligining hududiy ixtisoslashuvi

Reja:

1. Qishloq xo'jaligi - makroiqtisodiyotning munim tarmog'i sifatida.
2. Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotidagi tutgan o'rni va ahamiyati.

3. Ixtisoslashuv: dehqonchilik va chorvachilik.

4. Agrar sohani rivojlantirish istiqbollari.

Tayanch tushunchalar: yer fondi, ixtisoslashuv, dehqonchilik, chorvachilik, agrar soha, zahira yerlar.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining eng qadimgi tarmoqlaridan biri. U hozirgi kunda jahon, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot tarkibida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Biroq ushbu makroiqtisodiyot tarmog'ining rivojlanishi turli mamlakatlarda turlicha kechadi; rivojlanayotgan davlatlarda qishloq xo'jaligi, xususan dehqonchilik ko'proq ekstensiv xarakterga ega bo'lsa, yetakchi mamlakatlarda u intensiv rivojlanib bormoqda. Shunga mos holda agroiqtisodiyotning samaradorligi, mehnat unumdorligi ham geografik jihatdan farqlanadi.

Odatda, qishloq xo'jaligi deganda asosan uning ikki tarkibi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik tushuniladi. Bu iqtisodiyot fani nuqtai nazardan tug'ri, ammo iqtisodiy geografik jihatdan esa uni qishloq joylar mashg'uloti, xo'jaligi ma'nosida ham e'tirof etish mumkin. Tabiiyki, qishloq joylarda ham bu tarmoq turlicha, diversifikatsiyalanib bormoqda. Masalan, bu hududlarda ham sanoat, transport, rekreatsiya, turizm, ijtimoiy sohalar keng tarqalmog'da. Demak, qishloq xo'jaligi, bir tamondan faqat dehqonchilik va chorvachilik emas, ikkinchidan, u hududiy nuqtai nazardan jahon xo'jaligi, milliy xo'jalik, mintaqaviy va mahalliy (munisipal) xo'jalikdan keyingi taksonomik birlik sanaladi. Iqtisodiyotning bunday hududiy tarkibi xuddi shunday iyerarxik ko'rinishga ega bo'lib, tizim-tarkib yondoshuviga mos keladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, shahar xo'jaligi ham o'ziga xos talqin qilinadi. U ko'proq kommunal xo'jaligi, ichki transport, maishiy sohalarni o'z ichiga oladi. Aslini olganda esa, shaharni shahar

qiluvchi asosiy tarmoq (shahar hosil qiluvchi tarmoq) eng avvalo sanoat, tashqi savdo va transport, fan kabilar hisoblanadi. Shu bilan birga, shaharlarda ham, xususan bizning sharoitimizda, qisman qishloq xo'jaligi mavjud bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi rivojlanishi va hududiy tashkil etilishining quyidagi xususiyatlari mavjud:

eng qadimgi, an'anaviy xalq mashg'uloti;

mavsumiy xarakterga ega;

qishloq xo'jaligining rivojlanishi ob-havo, iqlim sharoitlariga bog'liq;

qishloq xo'jaligining holati, o'z navbatida, sanoatga, ayniqsa yengil va oziq-ovqat sanoat rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi;

ushbu tarmoqning hududiy tashkil etilishi areal xarakterga ega (sanoat nuqta shaklida, transport chiziqsimon, tasmasimon);

qishloq xo'jaligining, odatda, mehnat unumdorligi sanoatga nisbatan past;

qishloq xo'jaligi aholini iste'mol mollari bilan, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlaydi;

qishloq xo'jaligi korxonalari uchun xom ashyo kerak emas, uning asosi agroiklimiy resurslar, ya'ni harorat, namlik va tuproq hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligining yuqoridagi xususiyatlari ushbu tarmoqning asosiy iqtisodiy va iqtisodiy geografik ko'rsatkichlarini, rivojlanishi va joylanishini belgilab beradi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning zimmasiga yalpi ichki mahsulotning 1/6 qismiga yaqini to'g'ri keladi. So'nggi yillarda respublikamizda iqtisodiyotni sanoatlashtrish dasturini amalga oshirish natijasida qishloq xo'jaligining nisbiy ko'rsatkichlari, ya'ni ulushi pasayib borish tendentsiyasiga ega. Shu asosda mamakatimiz iqtisodiyoti agrar-industrial shakldan tobora, asta-sekin industrial-agrar yo'nalish kash etmoqda.

Sobiq Ittifoq davrida respublika qishloq xo'jaligi asosan paxtachilikka ixtisoslashgan, markaziy hududlar sanoatini xom ashyo bilan ta'minlovchi monokultura ko'rinishidagi rayon edi. Mustaqillikka erishgach bu soxada tub isloxtlar o'tkazildi, qishloq xo'jaligi deyarli to'liq nodavlat sektoriga o'tkazildi, fermer va

dehqon xo'jaliklari tashkil etildi, paxta yakka hokimligiga barxam berildi, don (g'alla) mustaqilligiga erishildi va xokazo. Ayni vaqtda noto'g'ri siyosat olib borish oqibatida maydonlari keskin qisqarib ketgan uzumchilik va bog'dorchilik tarmoqlari tiklanmoqda. 2009 yilda qabul qilingan "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" Davlat dasturida qishloq joylarda agroiqtsodiyot soxasi bilan bir qatorda (transport, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya, sport kabilarini rivojlantirishga, uy-joy qurilishiga katta ahamiyat berilgan.

Qishloq xo'jaligi, yuqorida ko'rsatilgan jixatlaridan kelib chiqqan holda, yillar davomida bir xil yoki barqaror rivojlanib bormaydi. Bunga ijtimoiy-siyosiy omillar bilan birga iqlim sharoitlari ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'sish darajasi o'tgan 20 yil mobaynida umumiy yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlariga nisbatan goh past (1991,1994,1996,2005,2010 yy.), goh yuqori (asosan qolgan yillarda) bo'lgan. Demak, xuddi shu yillarda agroiqtsodiyotning milliy iqtisodiyot o'sishiga ta'siri ham har xil kuzatiladi. Ko'rilayotgan davrda sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi nisbat ham o'ziga xos. Masalan, sanoatning o'sish ko'rsatkichi 1991, 1993, 1994, 1996, 1999-2002 va 2004-2010 yillarda yoki 20 yildan 15 yilda ustuvorroq bo'lgan. Eng muhimi shundaki, xususan so'nggi 10 yilda qishloq xo'jaligining nisbiy rivojlanish darajasi sustroq kechgan (3-illova). Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotni sanoatlashtrishdan darak beradi.

Respublika qishloq xo'jaligi ikkita yirik tarmoq chorvachilik va dehqonchilikdan iborat. Qishloq xo'jaligidagi islohotlar natijasida, jami qishloq xo'jaligida chorvachilik mahsulotining hajmi 1990 yilda 36,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2014 yilda dehqon xo'jaliklarida chorva mollarining bosh soni ko'payishi hisobiga 41,0 foizga ko'tarildi. Shuningdek, go'sht yetishtirish hajmi ham sezilarli o'sdi, ya'ni ushbu davrda 50,8 ming tonnaga (tirik vazonda) (1,9 marta), sut 58,4 ming tonnaga (2 marta), tuxum 1740,2 mln donaga (3,2 marta) ko'paydi. Aksincha, paxta tolasining jami qishloq xo'jaligidagi hissasi 47,7 foizdan 11,1 foizga qisqardi. Qolgan barcha chorvachilik va dehqonchilik mahsulot turlarida mahsuldorlik va hosildorligida o'sish ro'y berdi. Masalan, donli ekin maydonlari kengayishi va hosildorligining

ortishi hisobiga donli ekinlar yetishtirish hajmi 1990 yilda 7504,3 ming tonnadan 2014 yilda 1655,6 ming tonnaga ko'paydi. Shuningdek, poliz va sabzavot ekin mahsulotlari miqdori, ya'ni kartoshka 5 marta, poliz mahsulotlari 1,2 marta, mevalar 2,6, uzum 1,3 marta oshdi.

Respublika qishloq xo'jaligida dehqonchilik muhim va yetakchi tarmoqlardan sanaladi. Dehqonchilikning yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi ulushi 2014 yilda 59,0 foizni tashkil etdi.

Dehqonchilik asosan, sug'orma va lalmikor dehqonchilikka tayaniyadi. Lalmikor dehqonchilikda (bug'doy, arpa, zig'ir, kunjut, no'xat, ozugabop ekinlar, bog'dorchilik, uzumchilik) yetishtirilgan mahsulotlar hajmiga ko'ra juda kam ulushga ega. 1990 yilda respublika bo'yicha yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 47,7 foizini paxta tolasi tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda bu raqam 39,1 foizga teng bo'ldi. Aksincha, donli ekinlar ulushi 4,1 foizdan 10,8 foizga ko'tarildi.

Paxtachilik. Paxtachilik dehqonchilikning yetakchi tarmog'i bo'lib, uning asosiy mahsuloti paxta tolasi va paxta moyi hisoblanadi. 1 t paxta xom ashyosidan o'rtacha 320-350 kg tola (3500 m.kv gazlama), 10 kg momiq, 620 kg chigit olinadi. 620 kg chigitdan esa 110 kg moy, 225 kg kunjara, 175 kg shulxa, 35 kg lint, 30 kg tuk chiqadi. Paxta ekin maydoni Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida nisbatan katta. Aksincha, Namangan, Navoiy, Samarqand viloyatlarida uning darajasi 100 ming gektarga yetmaydi. Respublikaning barcha viloyatlarida o'rta toali, Buxoro, Namangan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ingichka toali paxta ekiladi. Ko'p yillarda respublika eksportining asosiy mahsuloti paxta tolasi hisoblangan. Ammo 1990-2014 yillarda paxta tolasi umumiy eksportdagi ulushi 47,9 foizdan 1,3 foizga qisqardi.

Texnika ekinlaridan tamaki asosan Samarqand viloyatining Urgut tumanida yetishtiriladi, yalpi hosili 12307 tonna, hosildorligi 16,2 s/ga. Shuningdek, qisman Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarida ham yetishtirilgan. Yetishtirilgan tamaki Urgut tamaki fermentlash "O'z BAT" fabrikasida qayta ishlanadi. Bu fabrika "British Amerikan tobakko" kompaniyasining Samarqandda O'zbekiston bilan

hamkorlikda qurilgan korxonasidir. Urgut tumani Samarqand sigareta fabrikalarini ham tamaki xom ashyosi bilan ta'minlaydi.

Texnika ekinlaridan lavlagi ekin qishloq xo'jaligining eng qadimgi tarmoqlaridan biridir. Qand lavlagi, ozuqa manbai sifatida ekiladigan xashaki lavlagi, sabzavot sifatida ishlatiladigan qizilcha lavlagi respublikamizning deyarli barcha hududlarida ekiladi.

Bulardan tashqari O'zbekistonning eng muhim ekin bu donli ekinlar, xususan bug'doy, arpa, javdar, suli, sholi, makkajo'xori, tariq, dukkakli ekinlar, no'xat, mosh, loviya, veryong'oq, moyli don ekinlari-zig'ir, kunjut, soya, mahsar, kungaboqar va boshqa ekinlar respublikaning barcha mintaqalarda yetishtiriladi.

Bug'doy ekin qadimgi tarmoqlardan biri bo'lgan, ammo u ilgari asosan lalmikor yerlarda ekin bo'lingan. Respublikaning bug'doyga bo'lgan ehtiyoji ko'p yillarda boshqa davlatlardan keltirilgan g'alla hisobiga qondirilgan. Mustaqillik yillarida don mustaqilligiga erishildi, bug'doy ekin maydonlari kengaytirildi, sug'oriladigan yerlarga g'alla ekila boshlandi. 1990-2014 yillarda donli ekinlar hosildorligi gektariga 20,2 sentnerdan 51,7 sentnerga oshdi. Bugungi kunda donli ekinlar 1655,6 ming gektar yerga ekilmoqda, yoki jami ekin ekiladigan yerlarning 45,0 foizini egallamoqda, bundan boshqali don ekinlari 42,1 foizga teng. Bug'doy ekin maydoni 1454,8 ming gektarni tashkil etadi. Respublikada asosan bug'doyning kuzgi va bahorgi turi ekiladi.

Donli ekinlarning yalpi hosiliga ko'ra Qashqadaryo, Farg'ona, Toshkent, Samarqand, va Surxondaryo viloyatlari oldingi o'rinlarda turadi. Donli ekinlardan Respublikada 2000 yilda 3532,0 ming tonna bug'doy olingan bo'lsa, 2014 yilda ushbu raqam 6956,0 ming tonnaga yetdi. Bug'doyning yalpi hosiliga ko'ra ham yuqoridagi viloyatlar yetakchilik qilishadi. Donli ekinlardan sholi respublikaning Xorazm, Andijon, Sirdaryo, viloyatlari va Qorqalpog'iston Respublikasida asosan ekiladi. Sholi ekin maydonlari yildan-yilga qisqarib boryapti, masalan, respublikada 2000 yili 131,8 ming gektar yerga sholi ekilgan bo'lsa, 2015 yilda 69,2 ming gektarga to'g'ri keldi. Shunga mutanosib

ravishda sholi mahsuloti ham 1,4 marta kamayib ketdi. 2015 yilda mamlakat bo'yicha 244,8 ming tonna sholi olindi.

Bog'dorchilik va uzumchilik ham eng qadimgi tarmoqlardan biri bo'lib, mevalarning barcha turi, shirindan-shakar uzum navlari butun O'zbekiston bo'ylab ekligan. Uzumchilik ham bog'dorchilik bilan birga hududiy tashkil etiladi. Jumladan, uzumchilik barcha viloyatlarda mavjud, ammo Samarqand viloyatining Qo'shrabot va Nurobod tumanlarida, Toshkent viloyatining Parkent tumanida nisbatan keng yoyilgan va yaxshi yo'lga qo'yilgan. Uzum yetishtirish bo'yicha Parkent tumani nafaqat viloyatda, balki respublikada eng mashhur tumanlardandir.

Chorvachilik. Respublikada chorvachilikning barcha turi rivojlangan, ayniqsa qo'ychilik, qoramolchilik, parrandachilik, asalarichilik keng taraqqiy etgan. Chorvachilik tarmog'ida yaratilayotgan mahsulotlar jami qishloq xo'jaligi mahsulotining 40,6 foizini (2014y.) tashkil etadi. Qoramolchilik sut-go'sht yo'nalishida taraqqiy etgan bo'lib, go'sht yo'nalishidagi qoramolchilik tog' va tog' oldi mintaqalarida yo'lga qo'yilgan. Qoramollarning bosh soni O'zbekistonda 10995,2 ming bosh, sigirlarniki esa 4084,3 ming boshga yetgan. Har ikkalasining ham umumiy miqdori o'tgan yillarga nisbatan muntazam ko'payib kelmogda. Yirik shohli qoramollarning eng ko'pi Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlarida va Qoragalpog'iston Respublikasida bo'lganligi sababli ham, ushbu viloyatlar respublikada asosiy go'sht yetkazib berayotgan mintaqalar hisoblanadi. Masalan, mamlakat bo'yicha olinayotgan go'sht mahsulotining (1427,4 ming tonna) 13 foizi Samarqand viloyatiga, 11,8 foizi Toshkent viloyatiga, 11,5 foizi Qashqadaryo viloyatiga, 9,3 foizi Buxoro viloyatiga to'g'ri keladi. Qolgan viloyatlarda uning ulushi 10 foizga yetmaydi.

Qo'ychilik Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarining adir va tog' mintaqalarida rivojlangan. Qo'ychilikda uning dag'al jun va go'sht-yog' beruvchi hisori hamda jaydari qo'y zotlari, qorako'l qo'ylarini boqish va undan sifati teri olish muhim o'rin tutadi. Hisori qo'ylari respublikaning tog' va tog' oldi mintaqalarida boqiladi. Jaydari qo'ylar esa, Qoragalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Navoiy

viloyatidan tashqari qolgan barcha viloyatlarda keng tarqalgan. Jaydari qo'ylarga nisbatan Hisori qo'ylarining vazni 180-190 kggacha, yillik jun mahsulodorigi 1,0-1,2 kg. Jaydari qo'ylarida bu ko'rsatkichlar mos ravishda 45-50 kg; 2,0-2,5 kgdir.

O'zbekiston bo'yicha barcha xo'jaliklarda olinadigan yillik jun mahsuloti 34403 tonnani (2015y.) tashkil etadi. Jun ishlab chiqarish hajmi 2005-2015 yillarda respublikada 117,9 foizga o'sdi. Asosiy jun yetkazib berayotgan viloyatlarga Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Jizzax kiradi.

Qo'ychilikning qorako'lchilik tarmog'i qadimdan mavjud bo'lgan bo'lib, bu qo'ylar asosan, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlari va Qoragalpog'iston Respublikasining cho'l zonasida boqiladi. Chunki, ulardan olinadigan terining mahsulot sifati shu joyning iqlimi, harorati, suvi bilan bevosita bog'liq. Shu boisdan, respublikamizning iqlimi issiq, yaylovlarning suvi sho'r, hududi cho'lidan iborat bo'lgan viloyatlaridagina bu tarmoq yaxshi rivojlangan. Qorako'l teri olish 2000-2015 yillarda 99,9 foizga o'sgan holda, 2015 yilda respublika bo'yicha 1061307 ming dona qorako'l terisi tayyorlandi. Asosiy teri mahsulotini Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Xorazm viloyatlari dehqon xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi korxonalari yetkazib berishmogda.

Echkilar respublikaning tog' va tog' oldi mintaqalarida boqiladi va u asosan go'sht, sergaymoq va shifobaxsh sut, jun, teri hamda tivit beradi. Farg'ona vodiysida, xususan Namangan viloyatida mayin oq tivit beradigan angor echkilar boqiladi. Shuningdek, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida ham echkichilik rivojlangan. Mamlakat bo'yicha qo'y va echklarning umumiy bosh soni 18438,9 mingtani tashkil etadi. Bundan, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlari qo'y va echkilar soni ko'pligi bo'yicha yetakchi hisoblanadi.

Parrandachilik serdaromad tarmoqlardan biri bo'lib, keyingi yillarda tezlik bilan rivojlanib bormogda. Respublikaning hamma viloyatlarida tuxum, parhez go'sht beradigan parrandachilik tarmog'ining korxonalari mavjud. Samarqand, Toshkent viloyatlarida yirik broyler jo'jalarini yetishtirishga mo'ljallangan

korxonalar ishlab turibdi. Respublika bo'yicha parrandalar soni 56276,3 ming bosh bo'lib, bu ko'rsatkich 2005 yilga nisbatan 300 foizga oshdi. Parrandalar bosh soni ko'payishi oqibatida, tuxumlar soni ham 2000-2014 yilning o'zida 3,1 martaba ko'paydi. Respublikada olinayotgan tuxumning (4950,0 mln dona) eng ko'pini Toshkent (1231,7 mln dona), Samarqand viloyatlari (939,5 mln dona) yetkazib bermoqda.

Pillachilik bo'yicha respublika dunyoga mashhur davlatlardan biri.

Pillachilik tarmog'i paxtachilik bilan birga qo'shib olib boriladi. Tut ipak qurti urug'ini tayyorlash, pilla yetishtirish barcha viloyatlarda bor. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, ipak qurti boqish 4-asrda Xitoydan O'rta Osiyoga tarqalgan, 1913 yilda 4 ming tonnaga yaqin pilla yetishtirilgan bo'lsa, uning 90 foizi Farq'ona vodiysiga to'g'ri keladi.

Baliqchilik O'zbekistonning tabiiy suv havzalaridan qadimdan mavjud bo'lgan. Ilgarilari baliqning asosiy qismini Orol dengizi, Amudaryo va Sirdaryo havzalari yetkazib bergan. Orol dengizi suv sathi kamayishi evaziga sun'iy suv havzalarida baliq yetishtirish rivojlandi. Umuman mamalakatdagi ko'l va daryolarda 62 ga yaqin baliq turi yashaydi. Bularidan, zog'ora baliq, do'ngpeshona, sudak, oqcha, tobonbaliq, ilonbosh, cho'rta, qizilko'z alohida ahamiyatga ega. Yirik baliqchilik xo'jaliklari Jizzax, Toshkent, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida tashkil etilgan. Aydarko'l tizimining kengayib borishi baliqchilikning rivojlanishiga imkon berdi. Shuningdek, Toshkent viloyatidagi "Damachi" hovuz baliqchilik xo'jaligi ham baliq yetkazib berishga xizmat qilmogda.

Savol va topshiriqlar:

1. Qishloq xo'jaligi qanday xususiyatlarga ega?
2. O'zbekiston agrosanoat majmuasini tushuntirib bering.
3. Qishloq xo'jaligida islohotlar qanday kechmogda?
4. Yangi mulk shakllari to'g'risida tushuncha bering.
5. Eng muhim dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining zonal joylashish xususiyatlari.

10-mavzu. Investitsiya muhiti – mintaga iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismi sifatida

Reja:

1. Investitsiya haqida tushuncha.
2. Investitsiya – mintaga iqtisodiyotining asosi sifatida.
3. Investitsiya turlari va kiritish imkoniyatlari.
4. O'zbekiston Respublikasi xo'jaligini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.

Tayanch tushunchalar: Investitsiya, ichki investitsiya, tashqi investitsiya, mintaga.

Investitsiya — (nemischa „Investition“, lotincha „Investio“) so'zidan olingan bo'lib, asosan, ishlab chiqarishga uzoq muddatli qo'yilmalar sarfi, ya'ni xarajalar yig'indisi deb talqin etilgan. Investitsiya — foyda (daromad) olish yoki jifimoy samaraga erishish maqsadida, davlat, xuquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan extiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklardir. Ko'pchilik iqtisodiyotni tushunmaydiganlar investitsiyani qarz deb tushunadi. Biroq davlat qarzi hisoblab chiqilganda investitsiyalar hisobga olinmaydi.

Investitsiya iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamalakatida yoki chet ellarda turli tarmoklarga, jifimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish (qo'yish). Pulning vaqt (zamon)ga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi. Investitsiya Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saklab qolish yoki bo'lmasa kapital qiymatini vaqtda o'stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya investitsiya sifatida pul, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksel), yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo'lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va b. ishlatiladi. Investitsiya

investitsiya loyihalariga mablag' qo'yuvchilar — investorlar davlat kompaniya, korxona, chet ellik fuqarolar, aholi bo'lishi mumkin.

Uning quyidagi turlari mavjud: davlat investitsiyasi — davlat byudjeti va moliya manbalari hisobidan kiritiladi; chet el investitsiyasi — xorijiy davlatlar, banklar, kompaniyalar, tadbirkorlar tomonidan kiritiladi; xususiy investitsiya — xususiy, korporativ xo'jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag'lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag'lar hisobidan qo'yiladigan investitsiya qo'yilish shakliga qarab moliyaviy (portfel) va real (ishlab chiqarish) investitsiyaga bo'linadigan investitsiya Moliyaviy (portfel) investitsiya — aksiya, obligatsiya va b. qiymatli qog'ozlarni sotib olishga qo'yiladigan investitsiya; real investitsiya — moddiy investitsiya ch. (sanoat, q.x., qurilish va b.) sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzok, muddatli mablag'lar qo'yish shakllarida amalga oshiriladigan investitsiya Jahon tajribasida Investitsiyani moliyalashtirish turli usul va shakllarda, shu jumladan, korxonalarni aksiyadorlashtirish va aksiyalarni joylashtirish, byudjet mablag'lari, bank kreditlari, lizing, bevosita chet el investitsiyalari, ipoteka, byudjetdan tashqari maxsus fondlar, amortizatsiya va xo'jalik yuritish sub'yektlarining boshqa mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya

Keyingi davrda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda investitsion hamkorlik rivoj topdigan investitsiya Bunday hamkorlikning real, moliyaviy, intellektual (litsenziyalar, nou-xauni berish, hamkorlikda bajariladigan ilmiy ishlarnalar va boshqa mablag' sarflash) ko'rinishlari bor.

Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladigan investitsiya jahondagi bevosita investitsiya faol o'sib bormoqda: 1980-y. larda o'rtalarida jahon bo'yicha umumiy yillik investitsiya hajmi 450 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 1990-y. larda o'rtalariga kelib investitsiya hajmi 2 trln. dollardan oshdi.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika iqtisodiyotida tuzilmaaviy o'zgarishlarni amalga oshirishda investitsiyadan samarali foydalanilmoqda. O'zRda 1996-yildan boshlab respublika hukumati har yili davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobidan kapital

qo'yilmalar limitlari, chet el investitsiyalari va hukumat kafolati b-n olingan kreditlar hisobiga aniq qurilishlar dasturi, shuningdek, bevosita chet el investitsiya va kreditlari hisobiga qurilishlar dasturidan iborat bo'lgan Davlat investitsiya dasturini qabul qiladigan investitsiya Respublika iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda davlat byudjeti mablag'lari, chet el investitsiyalari, korxonalarining o'z mablag'lari va aholi jamg'armalari qatnashmoqda. Respublikada aholining qiymatli qog'ozlarga jamoaviy Investitsiyani amalga oshiradigan xususiy lashtirish investitsiya fondlari (XIF) va kompaniyalari tarmog'i rivoj topdigan investitsiya 2000-yilda moliyalashtirishning jami manbalari hisobidan mamlakat iqtisodiyotiga salkam 700 mlrd. so'm, shu jumladan, 810 mln. AQSH dollari investitsiyalandi. Uning 30,3% ni respublika byudjeti, 39,1% ni korxonalar va aholi mablag'lari, 7,5% ni banklar kreditlari va b. qarv mablag'lar, 21,7% ni chet el investitsiyalari va kreditlari, 1,4% ni byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari tashkil qiladigan investitsiya Respublikada investitsiya faoliyatining huquqiy bazasini yaratishda "Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (1995-yil 5 may), "Investitsiya faoliyati to'g'risida" (1998-yil 12 dek.), "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida" (1998-yil 30 apr.), "Chet el investitsiyalari to'g'risida" (1998-yil 30 apr.), "Lizing to'g'risida" (1999-yil 14 apr.), "Qiymatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" (2001-yil 30 avg.) qonunlarining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya Investitsiya faoliyatida investorlar har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti b-n bog'liq bo'lgan ko'pdan-ko'p xatarlarga duch keladilar. Shu sababli investitsiyani, ayniqsa, chet el investitsiyalarini su-g'urta qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash sohasida 1994-yilda tashkil etilgan "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi faoliyat olib boradigan investitsiya

Real investitsiya asosiy fondlar va ayilanna mablag'larga investorlar tomonidan qo'yiladigan barcha turdagi boyliklar.

Moliya investitsiyalar — qiymatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya) sotib olishga va bank depozitlariga uzok muddatga jalb qilingan qiyilmalar.

Intellektual investitsiyalar— mutaxassislarni tayyorlash, tajriba, ilmiy tekshirish, litsenziya va nou-xou berish, avtorlik huquqi va boshqalar.

Investitsiyalar kim tomonidan kiritilishiga qarab 2 turga bo'linadi:

1. Ichki investitsiyalar.
2. Tashqi investitsiyalar.

Ichki investitsiyalar — mamlakat hududida ichki investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar hisoblanadi.

Tashqi investitsiyalar — foyda olish maqsadida chet el investorlari tomonidan boshqa davlat iqtisodiyoti qo'yiladigan investitsiyalardir.

Yuqorida qayd etilganidek, mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga, globallashuv jarayoni tizimiga kirib borishi, uning eksport salohiyatining muntazam o'rtib borishi ro'y bermogda (bu haqda darslikning keyingi mavzularida batafsil ma'lumot beriladi). Bu borada, albatta, investitsiya hajmining ko'payishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa mamlakat iqtisodiyoti tarkibini tubdan o'zgartirish va uni diversifikatsiyalash eng avvalo shu omilga asoslanadi.

So'nggi yillarda respublikamiz hududlarida qulay investitsiya muhitini yaratishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu esa xususan xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb etishda muhim hisoblanadi. 2020 yilda milliy iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga 9,7 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiyalar kiritilgan. Oldingi yilga nisbatan o'sish 113,6 foizni tashkil qilgan (investitsiyaning umumiy hajmida o'sish 109,2 % bo'lgan). Jami investitsiya miqdorining $\frac{1}{4}$ qismidan ko'prog'i xorijiy investitsiyalarga to'g'ri keladi, uning 3/5 qismini esa to'g'ridan-to'g'ri jalb etilgan investitsiyalar tashkil qiladi. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bargaror o'sib borishini ta'minlash investitsiya hajmini muntazam ravishda ko'paytirib borishga bog'liq.

Investitsiya qurilishga, qurilish esa iqtisodiy o'sishga zamin yasaydi, bu esa, o'z navbatida mamlakatimiz eksport salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. 2010 yil yakunlari bo'yicha, investitsiyalar umumiy hajmining 71,6 foizi bevosita ishlab

chiqarish tarmoqlariga yo'naltirilgan. So'ngi yillarda investitsiyalarning hududiy tarkibida Toshkent shahri, Buxoro hamda Qashqadaryo viloyatlari (chet el investitsiyalarini jalb etishida) yetakchilik qilishmoqda.

Ma'lumki, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning pirovard maqsadi aholi turmush sharoiti va darajasini yaxshilash, ijtimoiy muammolarni izchil hal qilib borishdan iboratdir. Bu xususan chakana savdo, pullik xizmat, aholi daromadlarining oshib borishi katta ahamiyatga ega.

Birgina 2020 yilda chakana savdo aylanmasi 2019 yilga nisbatan 114,7 foizga ortgan. Bu davrda pullik xizmatlar hajmi 113,4 foizga o'sgan. Aholiga pullik xizmat ko'rsatishning 3/5 qismidan ko'prog'ini rasmiy sektor ta'minlaydi. Uning qolgan qismi esa yakka tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarga to'g'ri keladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq Ittifoqning parchalanishi, "gorizontal" ishlab chiqarish alohalarining buzilishi natijasida sanoat ishlab chiqarishida, ayniqsa og'ir sanoatda muvaqqat muammolar vujudga keldi. Bu muammolar iqtisodiyotni davlat rejalashtirish tizimidan bozor munosabatlarga almashtirish (o'tkazish) bilan ham bog'liq bo'ldi. Biroq shunga qaramay, bu davrda qisman xorijiy investitsiyalar asosida yirik zamonaviy korxonalar barpo etildi. Asaka avtomobil zavodi, Buxoro (Qorovulbozor) neftni qayta ishlash zavodi, Qo'ng'iro't soda zavodi, Tolmarjon IES, SHO'rtang gaz-kimyo majmuasi yuqoridagilarga misol bo'la oladi. Respublikamizning qator tuman va shaharlarida to'qimachilik korxonalari ("teks"lar) vujudga keldi, yirik korxonalar qayta ta'mirlandi.

Qurilish materiallari sanoati og'ir va, umuman sanoat majmuasining o'ziga xos tarmog'i hisoblanadi. Bu sanoat turi yangi o'zlashtirilayotgan hududlarga birinchilar qatorida kirib keladi va investitsiyalar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Chunki, qurilish bazasiziz yangi ishlab chiqarishni tashkil qilish mumkin emas. Shu ma'noda qurilish bazasi elektr energetika bilan birgalikda hududlar o'zlashtirilishining muhim infratuzilmasi, asosi bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, mazkur sanoat tarmog'i barcha hududlarda bo'lishi shart va, uchinchidan, uning xom ashyo bazasi har xil bo'lganligi muhabbi hududiy tashkil qilish imkoniyatlari keng.

Oziq-ovqat tarmog'iga investitsiya hajmi ham uncha ko'p emas, u mamlakat sanoatiga kiritilgan umumiy investitsiyaning 5,5 foiziga teng. Mustaqillik davrida mazkur sanoat tarmog'ining rivojlanishi 1993, 1997, 2002, 2005-2006 hamda 2010 yillarda nisbatan yuqoriroq bo'lgan.

Alohida ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiya hajmi makroiqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qaraganda ancha past. Qolaversa, uning ulushi yildan-yilga kamayib bormoqda. Hozirgi vaqtda agroiqtisodiyotga respublika jami investitsiya hajmining taxminan atigi 3 foizi to'g'ri keladi, xolos. Vaholanki, bu ko'rsatkich sanoatda 35-37%, transport va qurilishda 25% va hokazo. Qishloq xo'jaligiga kiritilgan mablag'ning 1/5 qismidan ko'prog'i respublika budjetidan, yarmiga yaqini bank kreditlari va zayom vositalaridan qoplanadi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi esa 14-15% atrofida.

Hozirgi paytda transport sohasida 165 ming kishi band, bu barcha iqtisodiyot sohasida band bo'lganlarning 3,7 foizini tashkil qiladi. Transportni rivojlantirish uchun ajratilgan jami investitsiya hajmi 2009 yilda 27,6 foizga teng bo'lgan (2005 yilda 15,7 %). Ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz rahbariyati transport tizimi, transport mustaqilligi va xavfsizligiga katta e'tibor qaratmoqda.

Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalar, mashina va asboblarning ko'proq keltirilishi (yaponlar uchun baliq emas, balki qarmoq muhimroq hisoblanadi) ma'qulroq. Chunki, tashqi savdo aylanmasining bunday tarkibiy nisbati kelajak ishlab chiqarish uchun mustahkam zamin yasaydi. Shu nuqtai nazardan iste'mol mollari, xususan yengil va oziq-ovqat mahsulotlarini o'zimizda, hech bo'lmaganida mahalliy ehtiyojni qondirish darajasida rivojlanishi talab etiladi. Aytish joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat, jumladan ishlab chiqarishni mahalliydoshlashtirish ("lokalizatsiya"), investitsiya siyosati hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlanishi ham aynan shu maqsadlarni ko'zlaydi.

Mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda chet el investitsiyalarining jalb qilinishi, mintaqalarda qulay investitsiya muhitini shakllantirish katta ahamiyatga ega. 2010 yil ma'lumotlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston

Respublikasi jami eksportining 13,7 foizini bergan. To'g'ri, bu borada ularning importdagi ulushi ancha yuqori – 40,8 %.

Albatta real voqeilikda barcha hududlarning mamlakat tashqi savdosini rivojlanishi, uning investitsiya va eksport salohiyatini oshirishdagi ishtirokini mutlaqo bir darajada qilish qiyin va bu hech qachon bo'lmaydi. Biroq, asosiy yukni faqat 2 yoki 3 mintaqaga "tortishini" ham jolibiy baholab bo'lmaydi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar eksportini yana yuqorida qayd etilgan hududlar, ya'ni Toshkent shahri va viloyati, Andijon bergan. Jami 1794 mln AQSH dollari, shundan Andijon viloyati – 543, Toshkent shahri – 441, Toshkent viloyati 418 mln dollar. Import jami 2010 yilda 3591 mln AQSH dollari hajmida bo'lgan, uning 1635 mln dollari Toshkent shahriga, 1396 mln dollar Andijon viloyatiga, 186 mln dollar Toshkent va 126 mln dollar Samarqand viloyatlariga to'g'ri kelgan. Ayni paytda eksportda Sirdaryo, Jizzax va Xorazm, importda Jizzax, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surhondaryo viloyatining hisssasi nihoyatda past. Binobarin, eng avvalo mazkur viloyatlar investitsiya muhitini faollashtirish, bu borada jozibadorligini oshirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan transport va boshqa infratuzilma sohalarning rivojlanishi ham muhim ahamiyatga ega.

Savol va topshiriqlar

1. Investitsiya haqida tushuncha.
2. Investitsiya – mintaqaviy iqtisodiyotning asosi sifatida.
3. Investitsiya turlari va kiritish imkoniyatlari.
4. O'zbekiston Respublikasi xo'jaligini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.

1.1-mavzu. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat, ahamiyati va uni amalga oshirish yo'llari

Reja:

1. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari.
2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar.
3. O'zbekistonda mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari.

Tayanch tushunchalar: *mintaqaviy iqtisodiy siyosat, xorijiy tajribalar, hududiy tajfovutlar, xorijiy mamlakatlarda.*

Ma'lumki, har qanday siyosat, subyektning obyektgacha bo'lgan munosabatini bildiradi va u muayyan prinsip (tamoyil) va metod (usullar) majmuasidan tarkib topadi. Agar uni alohida shaxs yoki rahbar misolida emas, davlat darajasida ko'radigan bo'lsak, u holda siyosat, eng avvalo, ikki yo'nalishda bo'ladi. Chunonchi, davlatning tashqi siyosati—bu uning jahon hamjamiyatidagi boshqa suveren davlatlar bilan munosabati, jahon siyosiy xaritasi va geotuzilmasidagi o'rnidir. Mazkur siyosat o'z mohiyatiga ko'ra an'anaviy, haqiqiy yoki «siyosiy siyosat» hisoblanadi va u bilan maxsus fan—siyosatshunoslik shug'ullanadi.

O'z navbatida tashqi siyosat turli yo'nalishlardan iborat. U, avvalambor, boshqa davlatlar bilan tinch-totuv yashash, iqtisodiy, madaniy, fan-texnika, global ekologik muammolarni hal qilishdagi xalqaro aloqalarni o'z ichiga oladi.

Tashqi siyosatning bir ko'rinishi—geografik siyosat, ya'ni geosiyosatdir. Bu siyosatning mazmunini ham ikki xil talqin qilish mumkin: avvalgi reaksiya ma'noda va hozirgi to'g'ri mazmunda. Birinchisi, ko'proq /arb mamlakatlarida alohida oqim sifatida, asosan nemis, ingliz va shved olimlari (Fridrix Ratsel, Rudolf Chellen, Karl Xausxafer, Alfred Mexen, Xelford Makinder va b.) tomonidan yaratilgan bo'lib, u o'ta reaksiya, o'zga davlatlar va millatlarni kamsitish, ularning hududlariga tahdid-tajovuz qilish, bosib olishni anglatadi. Aytish joizki, aynan ana shunday geosiyosat mamlakatlar o'rtasidagi nizolar, jangu-jadallarga sababchi bo'lgan: nemis fashizmining ikkinchi jahon urushini boshlashi ham g'oyaviy jihatdan reaksiya geosiyosatiga asoslangan edi.

Yer yuzining turli qismlarida mavjud bo'lgan hududiy kelishmovchiliklar asosida turli davlatlarning birinchi yo'nalishdagi

geosiyosati yotadi. Masalan, yaqinda sobiq Yugoslaviya hududidagi janjallar, Isroil-Falastin munosabati, Panjob va Kashmir, Tog'li qorabog', Checheniston kabi juda ko'p muammoli hududlar shular jumlasidandir.

Geosiyosatning hozirgi zamon, to'g'ri ma'nosi u yoki bu davlatning jahonning boshqa mamlakatlari, eng avvalo qo'shni davlatlar bilan tinch-totuv yashash, ular bilan turli sohalarida hamkorlik qilishni bildiradi. Shuningdek, bu yerda mamlakatning jahon okeaniga va bozoriga arzon, qulay, beg'araz va beqarat yo'llar orqali chiqishi ham nazarda tutiladi. Aynan shu ma'nodagi geosiyosat respublikamiz Prezidenti I.Karimov tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu haqda Prezidentning ko'pgina asarlari va, xususan, uning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (T.: O'zbekiston, 1997) kitobi katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarda geosiyosat bilan birgalikda geostrategiya masalalariga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, u asosan Yer yuzining turli qismlarini, jumladan O'rta Osiyo va qozog'iston mintaqasining jahon iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini, geografik mavqei anglatadi.

Demak, qat'iy va uzil-kesil, bir ma'noda kelishib olish kerak: hozirgi geosiyosat bu avvalgi hududiy siyosatdan tubdan farq qiladi va u davlatlarning tashqi munosabatini bildiradi. Bunday siyosat o'z navbatida turli tarmoq-soha siyosatlaridan tashkil topadi.

Mamlakatning geografik mazmunda ichki siyosatini mintaqaviy siyosat shaklida qabul qilgan ma'qulroq. Garchi «geos»-yer, hudud, mintaqaga atamasiga to'g'ri kelsada, uning aynan shu ko'rinishi to'g'riroqdir. Sababi-davlatning bunday siyosatini hududiy siyosat darajasida talqin qilish ba'zan kishilar ongiga singib qolgan tushumovchiliklarga, noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatining alohida, mustaqil mamlakati maqomida, boshqa davlatlarning ham suverenligini e'tirof etadi, ularning hudud va chegaralarini dahlisizligini hurmat qiladi. Ayni vaqtda u o'zining yagona geosiyosiy tizimi, ma'kon sifatida yaxlitligini har qanday yovuzlardan himoya etadi va o'zgarlar tomonidan hurmat qilinishini talab qiladi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, mamlakat geotizimining mustahkamligi, faolligi eng avvalo uning ichki qismlarining o'zaro aloqalari, ma'muriy-hududiy tuzilmasining to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liq. Ichki bargarorlik har qanday tizim-sistemaning mustaqil faoliyat ko'rsatishini, boshqalardan o'zini saqlash qobiliyatining garovidir. Shu nuqtai nazardan mamlakat ichida hududiy mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish, rayon va viloyatlar orasida sog'lom raqobat muhiti, faol iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, yagona geoiqtisodiy makonni vujudga keltirish va uni mustahkamlash, turli hududiy bosqichdagi bozorlarni (mahalliy, mintaqaviy, mintaqalararo, milliy bozor) shakllantirish O'zbekiston Respublikasining hozirgi o'tish davridagi nihoyatda dolzarb vazifalaridir. Chunki, tizim-tarkib (sistema-struktura) qoidasiga muvofiq, butun alohida qismlardan tashkil topadi, qismlar, ya'ni mintaqalar esa butunlik, mamlakat geosiyosiy va geoiqtisodiy yaxlitligini ta'minlaydi.

Mamlakatning ichki siyosati ham ikki xilda bo'ladi: sohaviy, ya'ni tarmoqlar va hududiy yoki integral. Birinchisiga ijtimoiy, iqtisodiy, fan-texnika, demografik kabi siyosatlar kiradi va ular ham o'z navbatida alohida qismlardan, «siyosatlardan» tashkil topadi. Masalan, iqtisodiy siyosatda mamlakatimizning yoqilg'i-energetika, oziq-ovqat va yo'l (transport) mustaqilligini ta'minlash, ijtimoiy siyosatda-aholini ijtimoiy muhofaza qilish, bandlik siyosati, yoshlar va qariyalarga davlatning munosabati, demografik siyosatda oila, aholining tabiiy va migratsiya harakati bilan bog'liq masalalarni ajratish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, tizim yoki sistemaning ichki jihat, ya'ni uning tarmog yoki komponent hamda hududiy tomonlari borligidek, biz ko'rayotgan siyosatlar ham xuddi shunday xususiyatga ega. Zero har qanday hodisa yoki voqe'lik, albatta qayerdadir mavjuddir, rivojlanish, taraqqiyot ham faqat ma'lum davrdagina emas, balki muayyan hududda sodir bo'ladi.

Shu jihatdan yondoshganda, yuqorida keltirilgan sohaviy siyosatlar o'z navbatida hududiy taalluqlikka ega, ya'ni ular ham turli mintaqalarda turlicha amalga oshiriladi. Demak, biz bu yerda tarmog va hududiy tizimlarning (siyosatlarning) o'zaro aloqadorligi va bir-birlariga o'tib turishini guvohi bo'lamiz.

Mintaqaviy siyosatning eng asosiy maqsadi mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirib berishdir. Ammo ko'zda tutilgan maqsadlarga eng avvalo iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish asosida erishiladi. Binobarin, har qanday mintaqaviy siyosat bu hududiy iqtisodiy siyosatdir, iqtisodiy siyosat esa keng ma'nodagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdir.

Ma'lumki, mintaqaviy iqtisodiyot fani asosan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni o'rganadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish esa mamlakat milliy iqtisodiyotining umumiy holati, strategik vazifalari bilan belgilanadi. Jumladan, o'tish davrining iqtisodiyoti bu davrni mumkin qadar tezroq va beshikast bosib o'tish, bozor iqtisodiyotining mustahkam ishlab chiqarish, huquqiy va ma'naviy asoslarini yaratishni talab qiladi.

O'tish davrida har qanday mamlakat eng avvalo iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlariga ustuvor ahamiyat qaratadi. Bu davrda ayniqsa energetika, don va yo'l mustaqilligini ta'minlash zarur. Aynan ana shu makroiqtisodiy muammolar O'zbekistonning hozirgi kuni uchun o'ta muhimdir.

Bozor munosabatlarga o'tish turli mamlakatlarda o'ziga xos bo'lib, barcha davlatlarga mos yagona andoza yo'q. Bu o'ta murakkab jarayon bo'lib, u nafaqat bevosita iqtisodiyot tizimining o'zi, balki ichki va tashqi vaziyat, ijtimoiy va ekologik holatning qulayligi, aholining yangi munosabatlarga tayyorligi, ma'naviyati va moslashuvi kabi omillarga ham bog'liq.

O'tish davri chindan ham oraliq davrdir; dialektik nuqtai nazardan bunday sharoitda yangilikning qiyinchilik bilan kirib kelishi, eskilikning ma'lum darajada saqlanib turishi, ular o'rtasidagi «kurash» bilan bir vaqtda sodir bo'ladi. Bu davrning yana boshqa murakkab jihat shundan iboratki, davlat ilgariyidek qat'iy va adresli rejalashtirishni tashkil etmaydi, chunki endi mulk faqat uning tasarrufida emas. Binobarin, bu davrda davlatning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga bo'lgan munosabati keskin o'zgaradi, u bu jarayonga bevosita emas, ko'proq bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, ta'kidlash joizki, davlat o'z funksiyasining shakli va mexanizmini o'zgartirgan holda har qanday sharoitda ham asosiy jihatchi, tashkilotchi bo'lib qolaveradi. Bu O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatning bozor munosabatlariga o'tish davriga tegishli besh tamoyillaridan biridir.

Davlatning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi roli, shuningdek, ayrim xo'jalik tarmoqlarining o'tish davrida bevosita uning qaramog'ida goliishi bilan asoslanadi. Bundan tashqari, faqat davlat strategik vazifalar, xalqaro munosabatlar va ichki mintaqaviy siyosatni amalga oshiradi. Ammo, shu bilan birga, o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishda ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qo'yish xavfi tug'iladi.

Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Hududlarga erkinlik berilishi ayni vaqtda ularning xo'jalik tizimini o'zicha, nazoratsiz rivojlanishi, mintaqaviy iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotga muvofiqlashmaslik xavfi;
- Hududiy mehnat taqsimotini yaxshi boshqarmaslik oqibatida mintaqalarda iqtisodiyot samaradorligining pasayishi;
- Ichki rayonlar va mintaqalararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanmasligi, turli darajadagi bozorlar shakllanishining qiyinlashuvi;
- Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarning saqlanib qolishi;
- Tabiiy resurslardan shoshma-shoshartlik bilan noto'g'ri foydalanish, ekologik muammolarning yuzaga kelishi va keskinlashuvi;
- Ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishda nisbiy afzallik (D.Rikardo) qonunining buzilishi;

▪ Ishlab chiqarishning noto'g'ri regionlashuvi, eksport-import jarayonini amalga oshirishdagi ba'zi qiyinchiliklar va h.k.

Tabiiyki, yuqoridagi kamchiliklar davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir qiladi. Zero, to'g'ri boshqarilmagan va tashkil qilinmagan demokratiya beboshlikka olib kelishi mumkin. Xuddi shunday, hududlar rivojlanishi to'g'ri tartibga solinmasa, boshqarilmasa mintaqalarda erkin raqobat muhiti, ochiq iqtisodiy munosabatlar to'laqonli vujudga kelmaydi; bunday sharoitda «regional xudbinlik» alomatlari paydo bo'lish ehtimoli saqlanib qoladi.

Demak, o'tish davri iqtisodiyoti, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil qilishning davlat tomonidan ta'atbga solib borilishi obyektiv qonuniyatdir. Ushbu vazifa eng avvalo davlatning mintaqaviy siyosati orqali amalga oshiriladi.

Mintaqaviy siyosatning zaruriyati bir vaqtning o'zida barcha hududlar iqtisodiyotini bir darajada rivojlantirib bo'lmagligidan kelib chiqadi. Binobarin, mintaqaviy siyosat rivojlanishi mumkin va mamlakat uchun muhim bo'lgan ustuvor yo'nalish va tarmoqlarga qaratiladi. Shu mazmunda u mintaqaviy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, amaliy (konstruktiv) yo'nalishi hisoblanadi; mintaqaviy siyosat hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi vaziyatni dinamik holda muvofiqlashirish va harqarorlashirishga harakat qiladi.

Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadi quyidagilar:

- Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni yumshatish va qisqartirish;
- Mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish asosida mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- Mintaqalar yordamida mamlakatning eksport salohiyatini ko'tarish, iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash;
- Joylardagi ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish;
- Shahar va qishloq aholi manzilgohlarini rivojlantirish, urbanizatsiya hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish va boshqarish;

- Ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil etish;
- Aholi bandligini yaxshilash va h.k.

Yuqoridagi strategik maqsadlarga turli yo'llar yordamida erishiladi. Buning uchun avvalambor hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini mutloq ko'rinishida tenglashtirish g'oyasidan voz kechish talab qilinadi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish, ochiq iqtisodiyot yuritish, qulay investitsiya muhiti yaratish lozim. Xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilgan holda o'zaro manfaatli qo'shma korxonalar qurish, turli yo'nalishdagi erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirish hududlar rivojlanishiga katta turtki beradi.

Mintaqaviy siyosat alohida hududlarni tanlab olish asosida amalga oshiriladi, natijada iqtisodiy landshaft qutbiylashadi, o'sish

qutb va markazlari vujudga keladi. Har xil omil va sharoitlarni atroflicha tahlil qilish va rivojlanish imkoniyatlarini baholash orqali saralab olingan u yoki bu hudud iqtisodiyoti yuksalgandan so'ng navbat mamlakatning boshqa hududiga o'tadi. Natijada, iqtisodiy rivojlanish ham hududiy sikllik yoki davriylik, «geografik uzun to'liqlar» xususiyatiga ega bo'ladi. Shu sababdan, ma'lum muddatda tanlangan hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga urg'u berilishi boshqa hududni kamitish, intizozlarini cheklashni anglatmaydi. Chunki, keyinchalik bu hududga ham xuddi shunday e'tibor beriladi. Ammo mintaqaviy siyosat hududlarning o'zlarini ham faolligini nazarda tutadi. Shuning uchun mahalliy hokimiyatning bu borada izlanuvchan, tadbirkor bo'lishi talab etiladi.

Mintaqaviy siyosat o'z mohiyatiga ko'ra tashqi siyosatdan (geosiyosatdan) farq qilib, u mamlakatning ichki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning darajalari ham har xil. Masalan, mamlakat ichkarisiga nisbatan 2 darajadagi siyosat ajratiladi: davlatning mintaqaviy siyosati, ya'ni mamlakat hokimiyatining turli hududlarga (jumladan, viloyatlarga) nisbatan tutgan siyosati hamda mintaqalarning o'zini siyosati-viloyat hokimiyatining qishloq, tuman va shaharlar rivojlanishiga munosabati. Har qanday sharoitda ham ushbu siyosatni yurgazuvchi yuridik tashkilot respublika va viloyatlar hokimiyati hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni hududiy jihatdan yanada yuqoriroq yoki quyiroq bosqichda ko'rish mumkin. Chunonchi, qishloq tumani hokimligining ham o'zining ichki siyosati bo'ladi. Ayni vaqtda davlat darajasidan yuqorida turgan davlatlararo mintaqaviy siyosat ham mavjud. Bunda mintaga sifatida alohida davlatlar yoki qo'shni mamlakatlarning tutash hududlari nazarda tutiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi miqyosida ana shunday mintaqaviy siyosat olib boriladi. Kelajakda xuddi shunday darajadagi mintaqaviy siyosat boshqa hududiy iqtisodiy ittifoqlar darajasida ham qo'llanilishi mumkin.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonda mintaqaviy siyosat amalda yo'q edi. Ba'zi hududlarning jadatroq rivojlanishi ko'proq «Butunittifoq» manfaatlarini ko'zlab olib borilardi. Jumladan, Mirzacho'l yoki qarshi dashtlarini o'zlashtirib, paxtachilikni yanada

rivojlantirish, Buxoro, qashqadaryo tabiiy gaz, Navoiy viloyati oltin konlarini qazib olish aynan shu maqsadda bajarilgan.

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, mintaqaviy siyosatga tegishli ilmiy tadqiqotlar ilgari ham olib borilgan. Sobiq Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish bo'yicha Kengash (SOPS) Respublika hududlar imkoniyatlarini atroflicha tadqiq qilish, hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantirish konsepsiyalarini yaratgan. Dastavval Farg'ona vodiysi, so'ngra Buxoro-Navoiy, Angren-Olmaliq, qashqadaryo va quyi Amudaryo mintaqalari maxsus o'rganilib, bu hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning bosh sxemalari tuzilgan. Olib borilgan ishlar natijasida o'sha davrda ittifoqda mashhur bo'lgan mintaqalar kompleks muammolarini o'rganish ilmiy yo'nalishi shakllangan.

Hozirgi bozor munosabatlarga o'tish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash davrida mintaqaviy siyosatning amaliy ahamiyati yanada kuchaymoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha makroiqtisodiy barqarorlik 1996 yildan beri kuzatilmog'da; ba'zi viloyatlar, masalan, Andijon, Buxoro, Xorazm va boshqalar sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib bormog'da. Ayni vaqtda iqtisodiy salohiyati katta bo'lgan hududlar (Farg'ona, Samarqand, Navoiy viloyatlari) bu barqarorlikka kechroq erishishdi.

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda Asaka va Samarqand avtomobilsozlik, qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodlari, ko'pgina viloyatlarda qurilgan to'qimachilik korxonalari va boshqalarning ahamiyati katta. Ammo, barcha qo'shma korxonalar ham samarali faoliyat ko'rsatishmayapti. Jumladan, mustaqillik yillarida barpo etilgan o'ndan ortiq to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash muhim masala hisoblanadi.

Sanoatning boshqa tarmoqlaridagi vaziyat ham bir xil emas: chunonchi, Navoiy, Zarafshon, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatlarida mahsulot ishlab chiqarish samarali, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ham chet el sarmoyalari bilan qayta jilhozlangandan so'ng mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, Surxondaryoda Xo'jakon osh tuzi, Gullistonda farmatsevtika, Sho'rtan va Muborakda gaz- kimyo

majmualari, qo'ng'irotda soda zavodi kabi qator yangi korxonalar qurilib, respublikaning turli rayonlarida joylashtirilmoqda.

qishloq xo'jalik sohasida ham strukturaviy (tarkibiy) o'zgarishlar sodir bo'lmogda, paxta maydonlarini qisman qisqartirish asosida g'allachilikka katta e'tibor berilmoqda. Bu esa qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ammo, e'latish lozinki, agrosahada hozircha qator muammolar mavjud; ba'zi yillari ob-havoning noqulay kelishi tufayli bug'doy, sholi, paxta hosilining kamayishi ham uchray turadi. Uning ustiga, tuproqning iklilamchi sho'rtlanishi natijasida anchagina ekin maydonlari qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib qolmoqda. Mazkur holat agrosanoat majmu, qayta ishlash sanoatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Transport sohasidagi o'zgarishlar ham mintaqaviy va yo'l mustaqilligini ta'minlash siyosati doirasida olib borilmoqda. Jumladan, /uzor-Boysun-qumqo'rg'on, Uchquduq-Nukus temir yo'llari hamda Angren-Pop avtomobil yo'llarining qurilishi va kengaytirilishi mamlakat xo'jaligining hududiy tarkibida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

Respublika rahbariyati ayniqsa qishloq joylarga katta e'tibor qaratmoqda-ki, bu ham bo'lsa mintaqaviy siyosatning o'ziga xos bir ko'rinishidir. Darhaqiqat, modomiki mamlakat iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi, aholisining 2/3 qismining ko'prog'i qishloqlarda yashar ekan, bu joylarda jiddiy o'zgarishlarga erishmay turib strategik vazifalarni hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun qishloq joylarga sanoatni olib kirish, qishloq infrastrukturasini rivojlantirish, mehnat resurslari bandligini va aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish eng muhim muammolardan sanaladi.

Albatta, bundan boshqa muammolar ham mavjud. Chunonchi, ilgari hududiy mehnat taqsimoti, gorizontal iqtisodiy aloqalar buzilganligi oqibatida ko'pgina og'ir sanoat korxonalari faoliyati yaxshi emas, mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining anchagina qismi mujassamlashgan avvalgi yirik sanoat markazlarining (Chirchiq, Angren, Marg'ilon, Bekobod va b.) rivojlanishi sustroq. Ayni chog'da ichki mehnat taqsimoti keng ko'lamda yo'lga qo'yilmagan, ishlab chiqarishni noto'g'ri hududiy tashkil etilganligi

sababi turli mintaqalarda ijtimoiy va ekologik muammolar biroz keskinlashgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mintaqaviy siyosat turli hududlarda turlicha olib boriladi: ba'zi iqtisodiy rivojlanishi to'xtab qolgan yoki sekinlashgan (masalan, Angren-Olmaliq sanoat rayoni) depressiv rayonlar xo'jaligi harakatga keltirilishi, aholisi zich agrosanoat rayonlarda (Farg'ona vodiysi) ish o'rinlarini ko'paytirish, ekologik tanglik vujudga kelgan Orol bo'yi kabi rayonlarda esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni to'g'ri tashkil qilish talab qilinadi.

Shunday qilib, mintaqaviy siyosatni amalga oshirish ishlab chiqarish kuchlarini u yoki bu hududda ustuvorroq rivojlantirish demakdir. Binobarin, mazkur siyosatning zaminida sanoat, qishloq xo'jaligi, aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini joylashtirish yotadi, chunki joylashtirish rivojlantirishning hududiy tomoni, in'ikosidir.

Respublika milliy iqtisodiyoti to'la va mustahkam shakllanib borgan sari uning mintaqaviy siyosati nafaqat viloyatlarga, balki boshqa «muammoli» rayonlarga ham qaratiladi. Jumladan, hozirgi kunda Orolbo'yi mintaqasining ekologik holatini yaxshilash, bu katta hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Kelajakda alohida darvo havzalari, voha va vodiylar, tog' yoki cho'l hududlari ham davlatning mintaqaviy siyosatini obyekt sifatida ko'rinishi mumkin.

Sobiq Ittifoq parchalanib, yangi mustaqil mamlakatlar paydo bo'lishi bilan ilgari chegaralar davlat chegarasiga aylanib qoldi. Shu munosabat bilan chegaraga yaqin yoki o'ziga xos geografik o'ringa ega bo'lgan qishloq tumanlari (masalan, So'x, Farg'ona, Bo'stonliq, Olot, Urgut, qo'rg'ontepa, Shovot, Sartosiyo va b.) ham viloyat va mamlakatning mintaqaviy siyosatida alohida e'tiborga ega bo'ladi.

Xullas, mintaqaviy siyosat ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda navbatma-navbatchilikni, «erkin hududiy raqobat va musobaqani» nazarda tutadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy makoni va tarmoqlar tarkibida doimiy o'zgarishlar bilan birga sodir bo'ladigan dialektik jarayondir.

Savol va topshiriqlar:

1. Geosiyosat va mintaqaviy siyosatning o'zaro farqlari, ularning ichki tuzilishi nimalardan iborat?
2. Mintaqaviy siyosatning mohiyat va asosiy maqsadi nima?
3. O'tish davrining ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishga qanday ta'siri bor?
4. O'zingiz yashayotgan viloyat doirasida Siz qanday mintaqaviy siyosat olib borgan bo'lar edingiz?

12-mavzu. Mintaqalarning tashqi iqtisodiy aloqalari va eksportni ko'paytirish yo'llari

Reja:

1. Jahon hamjamiyati bilan tashqi iqtisodiy aloqalar.
2. Shanxay hamkorlik tashkiloti – xavfsizlik va hamkorlik Eurovi.
3. Mintaqalarda tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish yo'llari.
4. Hamkorlikka asoslangan siyosat.

Tayanch ibora: Jahon hamjamiyati, tashqi iqtisodiy aloqalar, SHHT, hamkorlik, siyosat, eksport, integratsiya

O'zbekiston mustaqil rivojlanish yo'liga tushganidan buyin o'tgan tarixan qisqa davr mobaynida uni suveren davlat sifatida qaror topirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O'zbekiston 165 davlat tomonidan tan olingan, 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

Bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alaridagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirmoqda, eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmogda. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ruyxatdan o'tgan, hukumatlararo 24 ta tashkilot va 13 ta nohukumat tashkiloti ishlab turibdi. O'tgan yillar mobaynida respublika ko'plab juda muhim xalqaro konvensiyalarga qo'shildi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillardayoq tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shakllantirish yuzasidan ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmogda:

o'zaro manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligiga erishish;
teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

halqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

tashqi aloqalarni ham ikki, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

Tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyati rivojlantirish xavfsizlik va barqarorlik kafolati hisoblanadi. Hozir dunyo O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz. Bu esa respublikamizning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolat bo'lib, kapital sarflash, dunyo miqyosida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan tobora e'tiborni tortayotganligida ham yaqqol namoyon bo'lmog'da.

Jahon hamjamiyati bilan keng ko'lamda integratsiyalashgan zamonaviy demokratik davlatni qurishdan iborat strategik vazifani hal qilish ekanimiz, bugungi kunda ushbu hamjamiyat faoliyatining o'zi serqirra bo'lib borayotganligini juda yaxshi tushunamiz.

Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birkuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda dunyo miqyosi va mintaq ko'lamida integratsiya jarayonlariga qatnasha-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Bir sub'ekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi, BMT faoliyatidagi ishtiroki jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi haqida gapirganimizda, eng avvalo, biz ushbu jamiat faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz. 2005 yil 2 martda O'zbekiston BMTga a'zo bo'lganligiga o'n to'rt yil to'ldi. Bunday obro'li xalqaro tashkilot ichidagi ishtirokimiz Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratish imkoniyatidir.

Hozirgi paytda umumiy xavfsizlik muammosiga aloqador xalqaro tashkilotlar g'oyat xilma-xil bo'lishiga qaramay, faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga xizmat qiladigan, nizolarning oldini olishga qaratilgan diplomatiyadan tortib to tinchlik o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo'lgan hamma vositalarga ega.

O'zbekistonning tashabbusi bilan BMT rahnomiligida 1995 yili Toshkentda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan xalqaro seminar muvaffaqiyatli o'tdi. Unda 20 ta xalqaro tashkilot va 30 dan ortiq mamlakat, shu jumladan, AQSH, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa davlatlarning diplomati korpusi hamda hukumat vakillari ishtirok etishdi.

Shu o'rinda BMTning integratsiya sohasidagi imkoniyatlari g'oyat ulkanligi va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bu imkoniyatlarning tashkil etuvchilari hisoblanishini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston mazkur tashkilotlar bilan bugungi kunning o'zidayoq samarali hamkorlikni rivojlantirmog'da. BMT doirasida jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv bo'yicha uning ixtisoslashgan muassasalari – YUNESKO, jahon sog'likni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNKDAT, YUNISEF va boshqalar bilan keng hamkorlik qilinmog'da.

O'zbekistonning mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorligi rivojlanmog'da. Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning tarkibiy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. Bular orasida Yevropa ittifoqi alohida o'rin tutadi. 1996 yilda Yevropa ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha muhim ishlar amalga oshirildi. Fevral oyida Yevropa ittifoqi kengashi sherikchilik va hamkorlik to'g'risida bitim tuzish yuzasidan O'zbekiston bilan Tashqi ishlar vazirligi darajasida muzokaralar boshlash haqida qaror qabul qildi, iyul oyida esa bitim imzolandi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiyotining Yevropa yo'nalishi ancha kengaydi. Ushbu yo'nalish Yevropa qit'asidagi mamlakatlar bilan hamkorlik qilishni o'z ichiga oladi. Bu qit'aning o'ziga xos integratsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmog'da.

Yevropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlik O'zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlashga qo'shilgan yana bir hisssadir. Chunki, bu sherikchilik iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalar bilan bir qatorda siyosiy sohani ham nazarda tutadi. Bu hujjat hamkorlik qilishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab beradi. O'zbekiston, Yevropa Ittifoqi va unga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy negizini vujudga keltiradi, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar oshadi, muntazam siyosiy muloqot uchun institutsional asos yaratadi.

Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXXT) bilan samarali xamkorlik qilyotganligimiz EXXT bilan birgalikda amalga oshirilayotgan tadbirlarda va bu tashkilot rahbarlarining O'zbekistonga tashrifi ko'zga tashlanmoqda.

Hozirda mamlakatimiz bilan NATOdek xalqaro tashkilot o'rtasida xam o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud deb aytish mumkin.

Bizningcha, o'z tarkibiga demokratik davlatlarni birlashtirib turgan NATO faqat Yevropa qit'asidagina emas, balki o'zining siyosiy usqurmasini mustahkamlash va «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi hisobiga Evroosiyo mintaqasida xam tinchlik o'rnatuvchi omil bo'lishi mumkin. O'zbekiston «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturiga 1995 yil iyul oyida qo'shilgan. Bu dasturdagi ishtirokimizga mustaqilligimiz va suverenitetimizni mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlaridan bahramand bo'lish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarimizni kengaytirish nuqtai nazaridan qaraymiz.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilichida Yevropa imkoniyatlari milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan hayotiy zaruradir. Yevropa va butun g'arb yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbai, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlarining ramzidir. Bularning barchasi xavfsizligi ta'minlangan va barqaror rivojlanayotgan, yuksak darajada taraqqiy etgan va zamonaviy demokratik davlat bo'lish maqsadida yangilanish va taraqqiyotni strategik vazifa qilib olgan yosh O'zbekiston davlati uchun nihoyatda muhimdir.

O'zbekiston o'zining tashqi aloqalarini ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish har qaysi tomonning manfaatlarini yanada aniqroq hisobga olish, bir-birimizni yaqindan tanish, uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikka mustahkam zamin hozirlash, shu tariqa barqarorlik va xavfsizlik uchun mustahkam negiz yaratish imkonini beradi. O'zbekiston er yuzining turli chekkalarida ishonchli va manfaatdor sheriklarga ega ekanligi ma'lum. Ularning doirasi muntazam kengayib bormoqda.

AQSH bilan ikki tomonlama munosabatlrimiz davlatlararo aloqalarning g'oyat muhim yo'nalishlari bo'yicha izchil va sobitqadamlik bilan rivojlanib bormoqda.

So'nggi yillarda Yevropadagi ko'pgina mamlakatlar - Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Gretsiya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya va boshqa mamlakatlar bilan bevosita, ilklta tomonlama munosabatlrimiz ancha kengaydi va mustahkamlandi.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari - Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vetnam, Malayziya, Hindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustahkamlanib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Keyingi vaqtlarda Yaponiya mintaqamizning murakkab muammolarini, xavfsizlik va barqarorlikka, tinchlikka erishish, atrof-muhit muhofazasi masalalarini hal qilishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan mustaqil iqtisodiy integratsiyalashuvi ham mustixkamlanib bormoqda. Bu yillarda MDH mamlakatlari ikki va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng huquqli sherikchilik asosida o'zaro hamkorlik qilishlari uchun keng imkoniyatlar mavjudligi tasdiqlandi. Bunday hamkorlikka Hamdo'stlik mamlakatlarining hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'langanligina emas, balki, tarixiy ildizlar, madaniy va ma'rifiy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynidagi xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo'lmoqda.

Mamlakatlarimiz, xalqlarimizning yaqinlashuvi - tabiiy kechayotgan jarayon.

MDH doirasidagi munosabatlarda erkin savdo zonasi barpo etish, a'zo mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish masalalari yanada dolzarblashmoqda. Hamdo'stlik doirasida tashkil etilgan tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirish hamda tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi omillarga qarshi hamkorlikda kurashishni kuchaytirishga oid masalalar ham shular sirasiga kiradi.

Markaziy Osiyodagi integratsiya hududiy birlik, kommunikatsiyalar, iqtisodiyotning asosiy va etakchi tarmoqlari mustarakligi, suv xo'jaligi va energetika ob'ektlarini birga ishlatish, energiya zahiralari bilan ta'minlash ehtiyoji taqozo etgan ob'ektiv zaruriyatdir. Bir-biriga chirmashib ketgan umumiy teran tomlarlarga ega bo'lgan xalqlarning madaniy, til va ma'naviy birligi esa ularni yanada yaqinlashtiruvchi omillardandir.

Bu mintaqaga muayyan bir shaklda hamma vaqt integratsiya bo'lib kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari mustaqillikka erishganlaridan keyin birgalikda kuch-g'ayrat sarflab, o'z kelajaklarini qurishlari zarurligini qayta his etdilar. Toshkentda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston prezidentlari tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasining yagona iqtisodiy makonini tashkil etish haqidagi Shartnomaning imzolaniishi shu yo'lidagi amaliy qadam bo'ldi.

Biz o'zimizning tashqi mudofaa siyosatlarimizni uyg'unlashtirishga ham bevosita yaqinlashdik. Yagona iqtisodiy makon tashkil etish to'g'risidagi shartnomada qatnashuvchi mamlakatlar mudofaa vazirlari kengashining nizomi tasdiqlandi.

Zamonni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va ishonch olg'a harakatlantiradi. Hozirgi dunyoda xavfsizlik va barqarorlik faqat harbiy-siyosiy jihatlarinigina nazarda tutib qolmaydi. Iqtisodiy, ekologik va madaniy jabhalar ham juda muhim bo'lib, xoh mintaqaga, xoh butun sayyoramiz bo'lsin – bizning tinch va gullab-yashnayotgan umumiy uyimiz ana shulardan tashkil topadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) tuzilganiga ham ko'p bo'lgani yo'q. Lekin 2001 yildan buyon o'tgan qisqa vaqt davomida u o'zining samaradorligini to'la namoyon etdi va jahon hamjamiyatining e'tiboriga tushdi. 2002 yili Sankt-Peterburg shahrida tashkilotning asosiy ta'sis hujjati – xartiasi qabul qilindi.

2004 yildan Pekinda uning Kotibiyati, Toshkentda esa Mintaqaviy aktsiiterror tuzilmasi (MAT) doimiy faoliyat ko'rsata boshladi.

SHHT asosiy vazifalari xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash hamda savdo iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdir. Shu yo'nalishdagi hamkorlik izchil rivojlantirilmogda. 2020 yilgacha bo'lgan davrda ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni ko'zda tutuvchi dastur qabul qilingan, terrorchilik, ekstremizm va ayirmachilikka qarshi birgalikda kurash to'g'risida bitim imzolangan.

Yurtboshimiz o'z nutqida sammit ishtirokchilariga murojaat qilgan ekan, kun tartibiga qo'yilgan masalalar haqida to'xtalib, quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tdi: - «O'ylaymanki, Toshkent sammiti SHHTning tashkiliy jihatdan shakllanishi va avval tuzilgan tashkiliy tuzilmalar va institutlarni aniq ma'no-mazmun bilan to'ldirishdagi yakuniy bosqich sifatida tarixda qoladi».

Toshkentda Mintaqaviy antiterror markazi tuzildi. O'tgan davr mobaynida bu masala bo'yicha uch bor yig'ilish o'tkazgan O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirlari kengashi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni izchil bajarmogda, SHHTning Muvofiqlashtiruvchilar kengashi tezkor, o'ta muhim ishlarni amalga oshirmogda.

Ushbu sammit arafasida SHHTga a'zo mamlakatlar xavfsizlik kengashlari kotiblarining uchrashuvi hamda iqtisodiyot va savdo vazirlarining majlisi samarali o'tganini alohida qayd etish zarur. Bularning barchasi haqida gapirganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'tgan davrda bajarilgan jami ishlar SHHT mamlakatlari, birinchi galda, Rossiya va Xitoy rahbarlarining Shanxay hamkorlik tashkiloti o'z zimmasiga shu mintaqada yashovchi xalqlar xavfsizligi va barqarorligi hamda faravonligini ta'minlash mas'uliyatini olishga qodir bo'lgan nufuzli xalqaro tashkilotga aylantirishga qaratilgan qat'iy irodasi va azmu shijoati tufayli amalga oshirildi.

SHHT faoliyati istiqboli va samaradorligi ko'p jihatdan BMT xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari bo'lmish ana shu ikki etakchi davlat – Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasining faol ishtiroki va hamkorlikdagi harakatlarga bog'liq. «Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari har biri o'ziga xos tarixiy, etnik-madaniy jildizlarga, diniy va ijtimoiy turmush tarziga, o'z mentalitetiga ega

bo'lgan mamlakatlar va xalqlar yashaydigan mintaga ekanini doimo yodda tutish muhim O'zbekiston Prezidenti - ularning har biri vazmin, juda e'tibor bilan, ta'bir joiz bo'lsa, hurmat-ehtram bilan yondashishni talab qiladi-dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

O'zbekiston SHHTning ustuvor vazifasi sifatida e'lon qilingan xalqaro terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va g'iyohvand moddalar savdosiga qarshi murosasiz kurashni so'zsiz qo'llab-quvvatlashini ta'kidadi.

Mintaqaviy antiterror tuzilmaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha O'zbekiston bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarini ishga soladi, deb ishonitirib aytmoqchiman,-dedi mamlakatimiz rahbari.

O'zbekiston tomoni sammit yig'ilishida Markaziy Osiyo hududi orqali o'tadigan yirik transport-kommunikatsiya loyihalari, transport yo'laklari va yo'nalishlari borasida ilgari surilgan g'oya va takliflarni qo'llab-quvvatlashini ta'kidadi. Bu g'oya va takliflar o'z navbatida SHHTga a'zo davlatlar bilan Yevropa Ittifoqi, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytiruvchi omilga aylanishi mumkinligiga e'tiborni qaratadi.

Afg'onistonni mintaqaviy muammolarni echishga jalb etish, mamlakatni tinchlik yo'li bilan qayta tiklash jarayonida zarur yordamni ko'rsatish maqsadida SHHT davlatlarining Afg'onistonga ko'maklashish bo'yicha o'zaro kelishilgan, aniq qo'shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan hamkorlik dasturini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida uslubiy ishlab chiqarilgan va barcha unsurlari moslashtirilgan bir butun va ixcham tuzum zarur. Eksportga yo'naltirilgan marketing esa ana shunday talablarga to'la javob beradi.

Marketingning hozirgi zamon konsepsiyasi uzoq rivojlanishni jarayonini boshidan kechirgan. U ishlab chiqarishning sotishga alohida yondashuvi sifatida XX asr boshida, yirik ko'lami ishlab chiqarish shakllanganda, raqobat keskin kuchayganda ajralib chiqqan. Ammo marketing iqtisodiy faoliyatning tizimi sifatida o'z ichiga ko'proq tushunchalarni oladi. Marketing bir tomondan, bozorni, talab, did va ehtiyojni har taraflama mukammal o'rganishni,

ishlab chiqarishni ushbu talablarga yo'naltirishni, mahsulotlarni aniq iste'molga mo'ljallagan holda ishlab chiqarishni, boshqa tomondan, bozorda mavjud talab, ehtiyoj va iste'molchilar afzalliklarining shakllanishiga faol ta'sir etishni ko'zda tutadi.

Marketing haqida birinchi marta rasmiy ravishda 1957 yilda, o'sha paytdagi «Jeneral elektrik»ning Prezidenti Jek Makkerterik Amerika marketing assotsiatsiyasi majlisida gapirgan. U, marketing - integratsiyalashgan, iste'molchiga yo'naltirilgan va biznes falsafasining foydasi ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Hozirgi vaqtda «marketing» tushunchasini talqin qilishda ancha katta ziddiyatlar mavjud. Ko'pgina xorijiy mutaxassislar bu tushuncha kengaytirilishi va o'z ishiga no-tadbirdkorlik faoliyatini ham olishi kerak, deb hisoblaydilar. Boshqalar marketingni oldi-soldi bilan bog'lashni ko'zda tutadilar. Amerika marketing assotsiatsiyasining faol arboblardan, AQShdagi Shimoli - G'arbiy universitetning marketing bo'yicha professori F.Kotler yozishicha, «marketing - kishilik faoliyatining almashuv vositasida zarurat va ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan turi».

Ma'lumki, halqaro marketingdagi tadqiqotlar tashqi bozor faoliyatining barcha jabhalarini o'z ichiga oladi. Marketing tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari esa quyidagilardan iborat:

Bozorni va sotishni tadqiq qilish:

Masalan, raqobatchilar to'g'risida axborot olish.

Mahsulotni tadqiq qilish:

Har xil qadoqlash turlarini sinab ko'rish va tadqiq qilish.

Talab va taklifni tadqiq qilish:

Mahsulot bahosi bilan unga bo'lgan talab o'rtasidagi bogliqlikni tadqiq qilish.

Mahsulot haqida iste'molchilarga ma'lumot berish:

Reklamanning turli variantlarini sinab ko'rish.

Mahsulotni xaridorlarga etkazish.

Tashqi bozorni tadqiq qilish esa, O'zbekiston Respublikasi korxonalarining xorijiy bozordagi strategik liniyasini ishlab chiqish uchun, ayniqsa, yangi tovarlarni ishlab chiqarish va ularni bozorlarga kiritishda hammadan ham zarurroq masaladir.

Agarda sanoat inqilobi davrida korxonalar iqtisodiyotining asosiy yo'nalishi ishlab chiqirishga qaratilgan

bo'lsa, hozirgi vaqtda sharoit tubdan o'zgarib, asosiy e'tibor xalqaro marketingga, tashqi bozorga va iste'molchiga qaratilgan. Demak, yaqin o'tmishda «oldin tovar, keyin esa bozor turadi» degan bo'lsak, endilikda esa, eng avvalo iste'molchining xohishi bo'lishi lozim vaagarda korxona o'z tovarini tashqi bozorda joylashtirishni va sotishni hamda foyda olishni xohlasa, u albatta bunday halqaro bozor sharoitlariga va talablariga moslashishi kerak. Korxonaning o'sish va kengayish siyosati asosini esa tashqi bozor uchun xizmat qilish, jahon konyunkturasini yanada chuqurroq o'rganish, uni ishiga kirib, xorij bozorlarini egallash hosil qiladi, desak hech ham mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Tashqi bozordagi sotish siyosati ahamiyatli. Marketing faoliyati jarayonida sotish muammosi dastlabki bosqichdavoq hal qilinadi. Shuning uchun sotish siyosati amaliy faoliyatning shakllari va uslublarini tanlashni, sotish siyosatini ishlab chiqish vaasoslash esaaniq tovar va tovarlar guruhiga nasbatan quyidagi masalalarni hal qilishni ko'zda tutadi:

maqsadli bozor yoki uning bo'g'inini tanlash;

kerakli moliyaviy xarajatlarni belgilash;

bozorga chiqish tartibi va vaqtini tanlash;

sotishni rag'batlantirish shakllari va uslublarini belgilash.

Sotish tizimini tanlash korxona tarkibida tashqi bozorlarda mahsulotlarni sotish bilan mashg'ul bo'lgan bo'linmalar mavjud bo'lishini taqazo qiladi. Tashqi bozorlarda sotish tizimi quyidagi ko'rinishlarda namoyon qilinishi mumkin:

chet ellarda savdo uylari yoki filiallar;

firma vakillari;

xorijdagi dillerlar;

hamkorlikdagi sotish faoliyati;

boshqa firmalarning sotish tizimidan foydalanish.

Sotishni rag'batlantirish shakllari va kerakli xarajatlarni aniqlash eng samarali vositalarni ko'zda tutadi. Bu vositalarga avvalo quyidagilarni kiritish kerak:

reklama faoliyati;

tovar belgisidan foydalanish;

sotilgan mahsulotlarga texnik xizmat ko'rsatish.

Tashqi bozordagi raqobat muhitini hisobgaolish kerak. Garvard universiteti (AQSH) xodimlari tomonidan olib borilgan marketing izlanishlari shuni ko'rsatadiki, o'z raqobatshtilaridan bozorga muayyan tovar olib chiqishda bir yilga kech qolgan firmalarni ko'zda tutilgan foydani 50 foizdan ajralib qoladi.

Marketing tadqiqotlarining muhim jihatlaridan yana biri tovarning raqobat qobiliyatini aniqlashdir. Bu qobiliyat faqat tovarlarni bir-biriga taqqoslash orqali aniqlanadi.

Asosiy raqobatchilar bo'yicha bozorni sigmentlash xalqaro marketingning muhim unsuridir. U kabi sigmentlash firmaga tijorat zararni keltiradigan marketing strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, «Kontrol deyta» firmasi AmerikaEHM bozorining 70 foizini nazorat qiluvchi EHM raqobatchilari tazyiqiga qaramay, dinamik tarzda rivojlanmoqda. Firmaning yutuqlari siri shundaki, u faoliyatining raqobatchilar hisobgaolmagan bozor ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirgan.

Hulosa qilib shuni aytish kerakki, marketing tovarlari ko'plab kardi qilish quvvatidan ortiq darajada ishlab chiqarish, iqtisodiy inqirozlar zaminida, taklifning talabdan ustunligi sharoitida paydo bo'lgan. Demak, tovarlarni ular ombor va do'konlarda turib qolmasligi uchun tezkor sotishni tashkil etish lozim. Bunga bozor va kardi ehtiyojini chuqurroq bilish orqali erishish mumkin. Shu bois ekspordagi qiyinchiliklarni tezkor bartaraf etish uchun marketingdan to'laroq foydalanmoq kerak. Marketing yordamida mamlakatdagi qo'shma korxona yoki boshqa korxonalarni joylashtirish o'rnini ham aniqlash mumkin. Bu strategik masala hisoblanib, korxonaning tashqi bozor ta'sirida rivojlanishiga olib kecladi.

Mustaqillik e'lon qilinib, milliy valyuta joriy etilgach, O'zbekiston sobiq sho'ro davridagi xom ashyo resurslari va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bir yoqlama, samarasiz iqtisodiy aloqalarini to'xtatishi zarur edi. Bunday sharoitda samarasiz, tanazzulga yuz tutgan iqtisodiy aloqalardan voz kechib, jahon bozoriga chiqish O'zbekiston uchun iqtisodiy inqirozni engib o'tishning yagona yo'li edi.

O'sha davrda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning sa'y-harakatlari tufayli mamlakat xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarini,

avvalambor, G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlari, AQSH, Yaponiya va iqtisodiy jadal rivojlanayotgan boshqa davlatlar bilan kengaytirishga qaratildi. Bu siyosat biron-bir mamlakatga qarshi yo'naltirilmagan edi. U iqtisodiyotimiz uchun nisbatan qulay savdo sharoiti yaratishga, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda tuzilma viy o'zgarishlar qilishga imkon beradigan mutanosib xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishga qaratilgan edi.

Hamkorlikka asoslangan tashqi iqtisodiy siyosatga quyidagi tamoyillar asos qilinib olingan: mafkuvaviy qarashlardan qat'i nazar, tashqi munosabatlarda ochiqlik, teng huquqlik va o'zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; to'la ishonch negizida ham ichki tomonlama, ham ko'r tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish; o'zining milliy davlat manfaatlarini har tomonlama hisobga olish; umume'tirof qilingan xalqaro huquq meyorlariga rioya qilish va xalqaro andozalarga izchillik bilan o'tish.

2014 yil yanvar-iyunida O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi hajmi 21 277,5 mln. AQSH dollarini (o'tgan yilning yanvar-iyuni bilan solishtirganda o'sish 0,6 foizni tashkil etdi), shu jumladan, MDN davlatlari bo'yicha – 9 784,9 mln. AQSH dollari va boshqa mamlakatlar bo'yicha – 11 492,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi umumiy hajmida tovarlar va xizmatlar hajmi 11 098 mln. AQSH dollarini, import hajmlari esa 10 179,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Importni eksport bilan qorlash foizi 109 foizni tashkil etdi. Tashqi savdoning ijobiy saldos 918,5 mln. AQSH dollari miqdorini, shu jumladan MDN davlatlari bilan – 1915,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Ayni paytda boshqa mamlakatlar bilan 997,2 mln. AQSH dollari miqdorida salbiy saldo shakllandi.

2011-2014 yillarning yanvar-sentabrda respublika tashqi savdo aylanmalari quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.

MDN davlatlariga boshqa mamlakatlar kesimida tashqi savdo tarkibi da quyidagi tamoyilku zatilmoqda:

-Tashqi savdo aylanmasida xorijiy davlatlar ulushi 2013 iylanvar-sentabrda 56,6 foizdan joriy iylning xudayshu davrida 54 foizga tushdi. Tegishincha, MDN davlatlar ulushi 43,4 foizdan 46 foizgacha usdi;

-Tashqi savdo aylanmasida boshqa davlatlar ulushining pasayishiga asosan shu davlatlar ga Uzbekiston eksport ulushining 2013 iylanvar-sentabrda 51,4 foizdan 2014 iylanvar-sentabrda 47,3 foizgacha kamayishiga binoiyladi;

-Import tarkibi da sezilarli uszgarish rui berdi - korijiy mamlakatlar dan import ulushi 2013 iylanvar-sentabrda 62,4 foizdan 2014 iylanvar-sentabrda 61,3 foizga usgaradi.

Tashqi bozorda narxlar koniunkturasining notaqbul sharoiti va hamkor davlatlardagi iste'molchilar talabi o'zgarishi boyladi r uuzaga kelayotgan ayni paytda mahalliy ishlab chiqaruvchi-eksportlarimizning manfaatini himoya qilish maqsadida o'tgan davr mobaynida mahsulotlarning raqobabardoshligini oshirish bo'yicha samarali ishlohtlar amalio'tga tabdiq etildi. Bundan tashqari, eksport qilinaotgan mahalliy mahsulotimizning nomenklaturasi va hajmini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Natijada yulk avtomobillari, avtobuslar, polietilen, gazlama, ammiakli selitra, iste'mol sodasi va boshqa ko'plab mahsulotlarning eksporti o'sdi.

Qolaversa, yil boshidan eksport faoliyatiga 322 ta yangi korxonalar jalb etilib, 332 mln. AQSH dollarilik mahsulot eksport qilinishiga erishildi. 143 yangi turdagi mahsulotlar 172,2 mln. AQSH dollarilik shartnoma asosida yetkazib berildi. «Cobak», «Gentra» va ular uchun ehtiyot qismlari, radiatorlar, avtomobil o'rindiqlarini taylash/sovutish tizimi va tashqi bozorda xaridorgir boshqa mahsulotlar eksporti amalga oshirildi.

Eksport tarkibi da energiya tashuvchilar va neft mahsulotlari (2013 yil yanvar-sentabrda 34 foiz bilan solishtirganda 2014 yil yanvar-sentabrda 31,9 foiz), xizmatlar (16,6 foiz va 20,2 foiz), oziq-ovqat mahsulotlari (11 foiz va 10,6 foiz) uydori ulushiga ega

2014 iyl yanvar-sentabrda import hajmi 2013 iylning yanvar-sentabri bilan solishtirganda 0,9 foizga oshdi. Import tarkibi da mashina va uskunalar (2013 iyl yanvar-sentabrda 44,6 foiz bilan solishtirganda 2014 iyl yanvar-sentabrda 40 foiz), kimevii mahsulotlar va undan

тайёрланган буюмлар (14,4 фоиз ва 16,3 фоиз), озик-овкат товарлари (9,7 фоиз ва 10,9 фоиз) юкори улушга эга.

Hududiy tashqi savdo aylanmasi. 2014 yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi hajmi 7 776,6 mln. AQSH dollariga teng bo'ldi. Bu esa O'zbekiston Respublikasidagi jami tashqi savdo aylanmasining 36,5 foizini tashkil qilishini anglatadi. Shuningdek, Toshkent (12,5 foiz) va Andijon (9,1 foiz) viloyatlari ham bu borada sezilarli yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Tashqi savdo mamakatlara rivojlantirilishi O'zbekistonga uning tarmoqlar bo'yicha yo'nalishini ham ancha takomillashtirish imkonini berdi, eksportda xom ashyo resurslari, avvalo, paxta tolasi miqdori kamaydi va tayyor mahsulot hajmi ortdi. Importda oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol mollari hajmi qisqardi hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tuzilma viy qayta qurish uchun zarur mashina va uskunalar, zamonaviy texnologiyalar salmog'i keskin o'sdi.

2014 yilda 200 dan ortiq yangi turdagi mahsulotlar eksporti amalga oshirildi, jumladan «Kobalt» va «Djentra» avtomobil modellari, shtampovarka komponentlari, radiatorlar, shamollatish tizimlari, uglearnmoniy tuzlari, polakrilamid, ammoniy xlorid, natriy nitrat, magniy xlorat defolianti, ammoniy ozuqa fosfatlari, fitochoylar, tibbiy idishlar, emal idishlar, argon, elektr isitish choysablari, avtomobil o'rindiqlari, uyinchoglar, polimer materiallardan turli xil buyumlar va tashqi bozorda talab mavjud bo'lgan boshqa mahsulotlar.

O'zbekiston-Rossiya azaldan yirik iqtisodiy hamkorlardan biridir. O'zbekiston – Rossiya munosabatlarida savdo-iqtisodiy hamkorlik asosiy o'rin tutadi. 2013-2017 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik dasturi, 2015-2019 yillarda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga oid hukumatlararo bitimga muvofiq bu sohada alogalar izchil taraqqiy etmoqda.

Rossiyada qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab yuqori. O'zbekiston bu sohada ulkan salohiyatga ega. Davlatimiz rahbarining shu yil 12 apreldagi "Me va-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada yanada keng imkoniyatlar yaratdi.

«Vinnm Bill Dan» kompaniyasi yirik «Toshkensut» birlashmasi aksiyalarining 77 %ini xarid qilish hakida shartnoma imzoladi. Ushbu hujjatda sut mahsulotlarini qayta ishlash va meva shartblari ishlab chiqaruvchi qo'shma korxona tuzish uchun 20 mln. dollar surmoya kiritish ko'zda tutilgan.

So'nggi paytlarda Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning kengayishi iqtisodiy sharoit va o'zoro manfaatlarni ifodalovchi tabiiy jarayonga aylandi.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati nimaga asoslangan?
2. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati qanday rivojlanmoqda?
3. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati SHHT davlatlari o'rtasida qaysi davlatda yaxshi rivojlangan?
4. Rivojlangan davlatlar orasida savdo-sotiq qaysi davlatlar bilan yaxshi o'rnatilgan?
5. Kelajakda ustuvor iqtisodiy sherikchilik qaysi davlatlar bilan amal qiladi?
6. SHHT tashkilotining maqsadi nimalardan iborat?
7. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda O'zbekiston Respublikasi paxta majmuasi qanday eksport salohiyatiga ega?
8. Eksportni rivojlantirish va jahondagi raqobatbardoshlikni oshirish ko'rsatkichlari salohiyati-chi?
9. Jahon paxta tolasi bozorlaridagi dinamik o'zgarishlar sharoitida o'zbek paxta tolasi qayo darajada raqobatbardosh?
10. O'zbekiston Respublikasining Jahon hamjamiyati bilan hamkorligi haqida nimalarni bilasiz?

13-mavzu. Mintaqalarda atrof-muhitni muhofaza qilish

Reja:

1. Atmosfera havosini muhofaza qilish va uning resurslaridan foydalanish.
 2. Suv resurslaridan samarali foydalanish va uni muhofaza qilish.
 3. Yer resurslaridan samarali foydalanish va uni muhofaza qilish.
 4. Biologik resurslaridan samarali foydalanish va muhofaza qilish.
- Tayanch tushunchalar:** *atmosfera havosi, suv resurslari, yer resurslari, biologik resurslar, muhofaza qilish, yerni baholash, samarali foydalanish*

Atmosfera so'zi yunoncha tildan olingan bo'lib ("atmos" - bug', sfera - qobiq, shar) ya'ni havo qobiqi degan ma'noni anglatib, biosferada hayot mavjudligini ta'minlovchi asosiy manbalardan biridir. Atmosfera erni gazli qismi bo'lib, u erni huddi qobiqqa yoki obalochkaga o'xshab o'rab turadi. U deyarli barcha gazlarni aralashmasidan tashkil topgan. Shuning uchun ham bu havo deyishadi. Uning asosini azot va kislorod tashkil etib, uning miqdoriy ko'rsatkichi 4:1 ga teng.

Atmosfera-yer kurtasining tashqi qobiqi, uning barcha tabiiy jarayonlardagi ahamiyati nihoyatda katta. U avvalo Er sathining umumiy issiqlik rejimini bir maromda saqlaydi, koinotdan keladigan turli zararli osmon jismlari va ular ta'siridan asraydi. Atmosfera sirtkulyatsiyasi mahalliy iqlim sharoitlariga ta'sir etadi va u orqali daryolarning suv rejimi, tuproq-o'simlik sharoitlariga, shuningdek relef hosil bo'lish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Havo-Erda hayotning vujudga kelishida zaruriy omil.

Atmosferaning gaz tarkibi quyidagicha (hajm bo'yicha foiz hisobida) azot-78,09, kislorod-20,95, argon-0,93, uglerod ikki oksidi- 0,03, neon-0,00018. Atmosferada shuningdek suv bug'lari mavjud. Atmosferaning tarkibiga insonning xo'jalik faoliyati borgan sari ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda.

Atmosferaning ifloslanishi – zararli moddalarning atmosfera kirib borib, uning tarkibini o'zgartiradigan aralashmalar.

Atmosferadagi aralashmalar – atmosferaning doimiy tarkibiga kirmagan va tarqoq holdagi moddalardir. Bu aralashmalarni tarkibiga qarab birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Birlamchi aralashmalar - atmosferada o'zining fizikaviy va kimyaviy tarkibini o'zgartirmaydi. Ikkilamchi aralashma esa – atmosferada o'zining tarkibini o'zgartiradi.

Atmosferani ifloslanishi organizmga ta'siriga qarab kimyoviy va fizikaviy bo'ladi. Kimyaviy ta'sir deganda kimyaviy moddalar va ularning har xil birlamlari tushuniladi. Fizikaviyga esa – radioaktiv nurlanishlar, issiqlikni chiqishi, shovqin, elektromagnit to'lqinlari va boshqalar.

Atmosfera havosini ifloslanishi – atrof – muhitni zararlantishga olib keladiga gazlarni aralashmasidir.

Atmosfera havosini ifloslantiruvchi tabiiy manbalarga quyidagilar kiradi: chang bo'ronlari, o'rmonlarni yonishi, vulqonlarni otilishi va boshqalar kiradi.

Antropogen ifloslanishni asosiy sabablari ishlab chiqarish korxonalaridan chiqadigan chiqindi va avtotransportlardan chiqadigan chiqindilardir.

Havoni ifloslashtirishda avtomobil transportining hisssasi juda ham yuqori. Hozirgi vaqtda dunyoda 800 mln. dan ziyod avtomobillar mavjud bo'lib, ularning 80 mln. tasi yuk, taxminan 1 mln. tasi avtobuslardan iborat.

Agar kam miqdordagi zararli modda atrof – muhitga salbiyko'rsatib, lekin insonga zarari bo'lmasa, u holda uni atrof – muhitga ta'sirini olgan holda PDKsi belgilanadi. Ba'zi zararli moddalarga PDK o'rnatilmagan. U holda bundaymoddalarga atmosfera e'tkazgan zarariga qarab mo'ljall qilib olinadi. (OBUV – orientir bezopasniy uroven vestestv). OBUV – qisqa vaqti gigienik normativ bo'lib, uni hisob kitob qilish natijasida miqdori belgilanadi. Asosan uni ishlab chiqarish korxonalar atrofida qo'llaniladi.

Atmosfera chiqarilayotgan sanoat chiqindilarini tozalash katta amaliy ahamiyatga ega. O'zbekiston hukumati 2015 yilda

mamlakat sanoat sohasi korxonalarining ekologik dasturlari uchun 250 million dollar yo'naltiradi. "Ushbu loyihalar paxta tozalash, kimyo, metallurgiya sohasi korxonalarini belgilangan ekologik talab va normalarga muvofiq tarzda qayta qurilantirishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston hukumati atrof-muhitni muhofaza qilish tabiiy va biologik resurslardan ogilona foydalanish bo'yicha 2015 yilga mo'ljallangan 14ta hududiy dasturni ma'qullagan. Hududiy dasturlar umumiy hisobda 690ta ekologik tadbirni o'z ichiga olgan. Xususan, baliqchilik sohasi salohiyatini oshirish, asalarichilik bo'yicha fermalarni tashkil etish, yovvoyi hayvonlar uchun yangi qo'riqxonalar yaratish ko'zda tutilgan.

Sanoat revolyutsiyasi tufayli inson tabiatga ta'sirini juda kuchaytirdi. Ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tubdan o'zgardi, tabiiy resurslardan foydalanish xajmi keskin ortib ketdi.

Buning ustiga yer sharida kislorodning asosiy manbai hisoblangan o'rmonlar maydoni yil sayin 125 ming km.ga qisqarmogda. Inson sayyoramiz yashil boyligi-o'rmonlarni 50 foizdan ortig'ini kesib bo'ldi. Yevropa mamlakatlarida o'rmonlarning 85-95 foizi kesib yuborilgan bo'lsa, AQShda o'rmonlar maydoni qadimgi 900 mln. gadan 260 mln. gaga qisqardi. Hozir Hindistonning 18 foiz hududi o'rmon bilan qoplangan bo'lsa, XXI asrda bu ko'rsatkich atiga 9 foizni tashkil etadi.

Inson xo'jalik faoliyati natijasida atmosfera yiliga faqat turli yoqilg'ilar yoqish hisobiga 22 mlrd. t. Karbonad angidrid, 200 mln. t.dan ortiq, uglerod oksidi, 160 mln. t. sulfat oksidi, 50 mln. t. azot oksidi, yana shuncha uglevodlar, 250 mln. t. Turli kimyoviy zarrachalar - aerorozlar hamda 300 ming t. qo'rg'oshin chiqarilmogda.

O'rmonlarning betartib kesib yuborilishi oqibatida keyingi 80-90 yil mobaynida dunyo bo'yicha sug'oriladigan yerlarning chorak qismi eroziyaga uchrab (AQShda "eroziyaga uchragan" yerlar 50 foizga yaqinlashdi) qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqsiz holga kelgan bo'lsa, suv eroziyasi tufayli yiliga 24 -10 t. Tuproqlarning unumdor qismi yuvilmogda.

Eroziyaning muqarrar rivojlanishi evaziga, keyingi asr mobaynida 2. mlrd. ga. yer yaroqsizlandi, yiliga 200-300 ming ga.

yer sho'rlanish va botqoqlashish evaziga qishloq xo'jalik ahamiyatini yo'qotmogda.

Hozir inson yerdagi barcha kimyoviy elementlardan foydalanishdan tashqari yangilarini ham kashf etdi (XIX asrgacha 28 ta, XIX asrda esa 50 ta XX asr boshlarida 59 ta kimyoviy elementdan foydalgan). Yillik energiyaga bo'lgan ehtiyoj 15 mlrd. t. Shartli yoqilg'i hisobiga qondirilmogda. Yer qat'ridan yiliga 5 mlrd. t. ko'mir, 3 mlrd. t. neft va gaz kondensati, 700 mln. t. Temir rudasi, bir necha o'n million tonnalar fosfat va kaliy tuzlari, boksid, marganets rudasi, million tonnalar mis, kaliy, qo'rg'oshin, asbest, flkyurit, minglab tonnalar oltin, toriy va boshqa qazilma boyliklar olinmogda. Agar mineral resurslardan foydalanish u tarzda davom etadigan bo'lsa, mutaxassislar hisobi bo'yicha alyumin 550, ko'mir 500, temir 250, qalay 23, qo'rg'oshin esa 19 yilga yetishi mumkin. Umuman 2500 yilga borib, barcha metallar zahirasi batomom tugaydi, degan boshoratlar mavjud.

Endi tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yo'nalishi faqat ilmiy asosda tabiatni, umuman biosferani saqlashga qaratilmog'i darkor. Inson biosferaning vazifasini yengillashtirishga yordam berishi lozim -, deb yozadi akademik S.S.Shvars- aks holda u vayron bo'ladi va Erda hayot yo'qoladi. Inson aslo bunga yo'l qo'ymasligi kerak. Ammo vujudga kelgan ekologik muammolarni bartaraf etish o'ta dolzarb, murakkab, serqitira, jumladan: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy va ilmiy masaladir. Uni ilmiy asosini yaratishda ekologiya fanining ahamiyati beqiyosdir.

2. Suv resurslaridan samarali foydalanish va uni muhofaza qilish

Qurug iqlim sharoitida suvning ahamiyati beqiyos ulug'vor, axir bekorga aytilmagan ku: "suv bor joyda hayot bor" deb. Darhaqiqat suv Er kurrasini miqyosida ulkan ahamiyat kasb etadi, suv sayyoramizning gidrosfera qobig'ini tashkil qilgan holda boshqa qobiqlar bilan mustahkam o'zaro aloqada, bog'liqlikda mavjuddir. Markaziy Osiyo yoki Orol dengizi hududi ulkan bekiq (okeanga chiqmaydigan) havza bo'lib, tog'li qismida vujudga kelgan suv oqimi butunlay xalq ho'jaligi sohalarida sarflanadi. Suv taqchil bo'lgan bu o'lkada ishlab chiqarishni rivojlantirish suv resurslariga juda bog'liq.

O'zbekiston suv resurslarini Orol dengizi havzasi miqyosida o'rganish joiz. Chunki, respublika hududini ikki yirik daryo: Amudaryo va Sirdaryo kesib o'tgan, ularning suv olish havzalari Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizimi tog'larida joylashgan. O'zbekistonda eng yirik daryo Amudaryo hisoblanadi. Uning tog' qismida suv oluvchi havzasi 227 ming km², uning havzasidan har yili o'rta 79 km³ suv oqib o'tadi. Shundan respublika hududida taxminan 6 km³ (7,5 foiz) suv oqimi vujudga keladi. Sirdaryoning tog'li qismidagi suv oluvchi havzasi maydoni 150 ming km², ushbu havzada har yili o'rta 38 km³ suv oqib o'tadi. Shundan taxminan 4 km³ (qariyb 10 foiz) suv O'zbekistonda vujudga keladi. Qirg'iziston va Janubiy Qozog'istondagi berk botiqlarining suv oqimi 10,2 km³ ni tashkil qiladi. Orol dengizining o'rta yillik suv hajmi 126,9 km³.

O'zbekiston va unga qo'shni mamlakatlarning aksariyati Orol dengizining ichki drenaj basseynida joylashgan bo'lib, transchegaraviy suv resurslarini baham ko'rishadi. Chuchuk suvning taqchilligi hozirda eng katta ekologik muammo hisoblanadi va kelajakda muammo bo'lib qoladi, chunki suv hosildorligi past sho'rlangan eirlarni qishloq xo'jaligi mahsulotini olish maqsadida sug'orish uchun hal qiluvchi resurs hisoblanadi. Drenaj kollektorlar suvini daryolarga oqizish va suv tozalash tizimlarining samarasizligi suv resurslari sifati pasayishiga va suv sho'rtligi ortib borishiga olib kelmoqda.

Suv resurslaridan foydalanish jihatidan O'zbekistonning tabiiy sharoiti ancha noqulay. Markaziy Osiyo gidrografiya tarmog'ida suv havzalari va resurslar juda notekis joylashgan. Suv resurslarining faqat taxminan 10 foizi mamlakatda hosil bo'lishi tufayli O'zbekiston qo'shni mamlakatlardan oqib kiradigan suvga yuqori darajada bog'liq. Ekologik imkoniyatlarni hisobga olmay suv resurslaridan foydalanish ham suv sifati yomonlashgani va ichimlik suvi bilan ta'minlashda tang vaziyatga olib keldi.

Yer usti suv resurslarining eng ko'p miqdori (90 foizga yaqin) qo'shni mamlakatlarning tog'li hududlarida hosil bo'ladi. Ichki suv resurslari ko'l, yer osti suv resurslari, daryolar va muzliklar suv resurslaridan iborat. Yirik va kichik daryolar, shuningdek yer osti suvi O'zbekistondagi qimmatli suv resurslarining asosiy tarqibiy qismlari hisoblanadi.

Vaxsh va Panj daryolari qo'shilib hosil bo'ladigan Amudaryo hamda Norin va Qoradaryo va Toshkent yaqinida Chirchiq daryosi qo'shilib, hosil bo'ladigan Sirdaryo bosh daryolar hisoblanadi. Amudaryo basseyni Surxondaryo, Qashqadaryo va Zarafshonlarni qamrab oladi, ammo faqat Qashqadaryo va Sherobod daryolari butunligicha O'zbekiston hududida joylashgan. Bosh daryolarga qo'shimcha O'zbekistonda 17,7 mingdan ortiq tabiiy suv oqimlari mavjud. Sathi 700.000 ga bo'lgan Amudaryo deltasi tabiiy suv-botqoqlik tizimini tashkil qilib Orol dengizi inqirozi tufayli sezilarli darajada o'zgardi.

Daryolar - O'zbekistonning suv resurslari qo'shni Tojikiston va Qirg'iziston bilan uzviy bog'langan. Ichki va O'zbekiston hududini kesib o'tuvchi transchegaraviy daryolar yillik yuza suv resurslari 99,5 km³ ga teng bo'lib, uning faqat 12,2 km³ qismi mamlakatimiz mintaqalarida hosil bo'ladi.

Orol dengizi va uning qirg'oq zonasi transchegara suv oqimlarining yillik miqdori bilan ta'minlanadi, bunda 14,5 km³/yil miqdordan kam bo'lmagan limit suv olinadi. Bu miqdor Amudaryo uchun 10 km³/yil miqdordan va Sirdaryo uchun 4,5 km³/yil dan tashkil topgan. Muzliklar - O'zbekiston Respublikasi hududida Surxondaryo, Qashqadaryo, Piskom daryolarining yuqori qismida umumiy muzlash maydoni 141,54 kv.km. bo'lgan 486 ta tog' muzligi mavjud. Ularning zahirasi suvga bo'lgan ehtiyojni qondira olmaydi.

Ko'llar - O'zbekiston hududida umumiy maydoni 8785 kvadrat km. ni tashkil etgan 505 ta ko'l bor. Aksariyatining yuza maydoni 1 kv.km. dan kam kichik havzalar bo'lgan bu ko'llar ulushiga ko'llar umumiy sonining 95 foizi va umumiy maydonining faqatgina 3 foizi to'g'ri keladi. Keyingi 20 yil davomida tekislik ko'llari rejimida antropogen omillar salmog'i oshdi. Tabiiy rejimda to'ynadigan ko'llar umumiy soni keskin kamayishi va sug'oriladigan dehqonchilik hududlari chekkalari bo'ylab havzalarning yangi turi - irrigatsiya - tashlama ko'llar vujudga kelishi kuzatilmoqda. Misol uchun, Arnasoy botig'ida Chordara suv omboridan tashlangan suvlar hamda Mirzacho'l kollektor - zovur suvlaridan Aydarko'l hosil bo'ldi. Undagi suv hajmi 45 km. kubdan iborat.

O'zbekistondagi jami tabiiy yer osti suvi zahiralari 24,35 km³ ga teng, deb chamanlanadi. Ushbu miqdordan 20,79 km³ to'rtlamchi

qatlama, 2,92 km³ yuqori pilotsen-to'rtlamchi qatlama va 0,46 km³ yuqori bo'r qatlamida joylashgan. Chuchuk yer osti suvi asosan Farg'ona vodiysida (34,5 foiz) va Toshkent (25,7 foiz), Samarqand (18 foiz), Surxondaryo (9 foiz) va Qashqadaryo (5,5 foiz) viloyatlarida jamlangan, qolgan esa sho'rtang yoki sho'r bo'lib ularni ishlatish imkoniyati kam. Qolgan hududlardagi chuchuk suv jami 7 foizni tashkil qiladi.

Yer osti suvi zahiralari aholiga etkaziladigan ichimlik suvining 80 foizini ta'minlab beradi. Umuman, mavjud yer osti chuchuk suv zahiralari aholining ichimlik suviga bo'lgan talabini qondiradi. Biroq, shuni aytish lozimki, oxirgi bir necha yil davomida yer osti suvining sifati yomonlashib bormoqda, oqibatta ichimlik suvi manbai sifatida foydalanib bo'ladigan yer osti suvi zahirasikamayib bormoqda.

Sug'orish tizimlarining samaradorligi 2010 yilda 0,70 va 2025 yilga borib 0,75 yetishi kerak. Suvdan foydalanish usullarining samaradorligi yaqin kelajakda o'rtaacha 0,69 ga va 2025 yilga borib 0,74 ga yetishi rejalashtirilgan.

"Bargaror rivojlanish – jamiyat taraqqiyotining eng muhim zamonaviy tamoyillaridan biri. Unga binoan jamiyatning eng muhim maqsadi – rivojlanishning uzluksizligini, uning bargaror xarakterini ta'minlashdir. Bargaror rivojlanish o'z ichiga iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa komponentlarni gamrab oladi va nafaqat hozirgi kunda yashovchilar, balki kelajak avlodlarning munosib turmush darajasini ta'minlashni ko'zda tutadi".

Bargaror rivojlanishni ta'minlashga jiddiy ta'sir etuvchi omillardan biri suv tanqisligi muammosidir.

Suv resurslarining dunyo miqyosida notekis taqsimlanganligi ko'pgina mintaqalarda suv tanqisligi muammosi kelib chiqishiga sabab bo'lmog'da. Xususan, Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotida muhim hisoblangan Sirdaryo va Amudaryo Qirg'iziston va Tojikistonning tog'li hududlarida shakllanadi. Mintaqaning bu ikki yirik transchegaraviy daryolaridan biri – Sirdaryo Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston, Qozog'iston Respublikalarining janubidan, ikkinchisi – Amudaryo esa Tojikiston, Afg'onistonning shimolidan, Turkmaniston, O'zbekiston Respublikalari hududidan oqib o'tadi. Sirdaryo havzasining ko'p yillik o'rtaacha oqimi 36 mlrd.m³ ni, Amudaryoniki esa 78 mlrd.m³ ni

tashkil etadi. O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida yiliga o'rtaacha 52 mlrd. m³ suv ishlatiladi. Shundan 22 mlrd. m³ Sirdaryo havzasiga, qolgan qismi Amudaryo havzasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Sirdaryo havzasida 6,3 mlrd.m³, Amudaryo havzasida 5,1 mlrd. m³ suv resurslari O'zbekiston hududida shakllanadi, qolgan katta qismi yuqorida qayd etilgan transchegaraviy daryolardan olinadi.

Yozda olingan elektroenergiya Markaziy Osiyo elektro – energetika tizimi orqali O'zbekistonning Farg'ona va Janubiy Qozog'iston mintaqasidagi iste'molchilarga etkaziladi. Qirg'istonda qish mavsumidagi issiqlik va elektroenergiyaga bo'lgan ehtiyojlar O'zbekiston va Qozog'istondan keltiriladigan yoqilg'i hisobiga qoplanardi.

Bu davlatlar mustaqillikka erishgandan so'ng yuqoridagi kelishuvni bajarish murakkablasha boshladi. Iste'molchilar yonilg'i istish tarmog'idan gidroenergiya istish tarmog'iga o'ta boshladilar. Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarning yuqori oqimidagi davlatlar qish davrida suv oqimini elektroenergiya olish uchun oshirib, yoz oylarida esa suv zahirasini to'plash maqsadida qisqartira boshladilar.

Sirdaryo havzasidagi bunday tendensiyaning salbiy oqibatlari daryoning quyi va o'rta oqimida o'zani ochilib qolishiga olib kelmoqda. Bu esa tabiat komponentlarining suvga bo'lgan ehtiyojlari qondirilmasiligi sabab bo'lmog'da, aholi va ishlab chiqarishda suv tanqisligini keltirib chiqarmoqda. Tabiatning suvga bo'lgan talabi qondirilmasiligi o'simlik va hayvonot olami qirilib ketishiga olib kelmoqda, aholi va ishlab chiqarishda suv tanqisligi esa bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni vujudga keltirmog'da.

2013-2017 yillarda sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish Davlat dasturini amalga oshirish doirasida joriy yilning birinchi choragida 190 kilometr dan ortiq kollektor, 3 vertikal drenajli quduq, 6 kuzatuv qudug'i va 23,8 kilometr yopiq kollektor-drenaj tarmog'ini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. Natijada 2015 yilning birinchi choragida asosiy va oraliq ekin maydonlarining 126,2 ming gektariga sabzavot, 65,6 ming gektariga kartoshka va 4,7 ming gektariga poliz ekinlari ekildi. 4,9 ming gektar maydonda yangi

intensiv bog'lar, 4,5 ming gektar erda tokzorlar, 169,9 gektar maydonda 305 issiqxona yaratildi. 11,1 ming gektar maydondagi bog' va 4,4 ming gektar tokzorlar rekonstruksiya qilindi.

Biroq mintaqalarda bu borada muammolar mavjud. Jumladan, sho'rlangan erlar jami sug'oriladigan maydonlarning 40 – 45 foizini tashkil etmoqda.

2014 – 2017 yillar davomida tomchilatib sug'orish tizimining joriy etilishi bo'yicha ma'lumot 48 – jadvalda keltirilgan. 2014 yilda jami respublika bo'yicha 7858 gektar maydon, jumladan Samarkand viloyatida 2014 yilda 840 gektar, Qashqadaryo viloyatida 800 gektar, Namangan viloyatida 600 gektar, Surxondaryo viloyatida 560 gektar yer maydonida tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan bo'lsa, 2017 yilda respublika bo'yicha jami 5700 gektar yer maydoni, jumladan Samarkand viloyatida 2017 yilda 950 gektar, Qashqadaryo viloyatida 920 gektar, Namangan viloyatida 680 gektar, Surxondaryo viloyatida 630 gektar yer maydoni tomchilatib sug'orish tizimi joriy etish ko'zda tutilgan.

Yer resurslaridan samarali foydalanish va uni muhofaza qilish

Yer insonning behabo boyligi, er o'simliklar dunyosi bilan birgalikda insonni oziq-ovqat bilan ta'minlaydi, kiyintiradi, qurilish materiallari va tibbiy ashyolar bilan ta'minlaydi va b. Shuning uchun ona-erini muhofaza qilish har bir kishining muqaddas burchidir.

Qurug' iqlim sharoitida sug'oriladigan erlar beqiyos ahamiyatga ega. Obikor erlar Respublikada yer maydonining 10% qismini egallagan holda o'simlikshunoslik bo'yicha etishtiriladigan barcha mahsulotning 95%ini etkazib beradi.

Yerning sifati, qo'shimcha ravishda, topografik, tarkibiy, qishloq xo'jaligi va mineral elementlarni; iqlim; toza suv va havoning mavjudligi va nihoyat tinch, osuda, xavfsiz, estetik ko'rinishga ega bo'lgan atrof-muhit xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligida yer ishlab chiqarishning asosiy vosti hisoblanadi. Yer bo'lmasa dehqonchilik mahsulotlarini ham, chorvachilik mahsulotlarini ham yetishtirib bo'lmaydi. Odam ishlab chiqarish jarayonida tuproqqa, erga, o'tloqqa, yaylovga va hokazolarga ta'sir qilar ekan, tuproqning unumdorligini oshirish

uchun zarur shart – sharoitlar yaratadi, er mehnat predmeti sifatida maydonga chiqadi. Shu bilan birga erning tabiiy xossalari – fizik, mexanik, kimyoviy va biologik xossalardan foydalaniladi. Shuning uchun yer mehnat quroli sifatida ham, mehnat vostiati sifatida ham maydonga chiqadi. U holda ham, bu harda ham u qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishning asosiy va hech narsa bilan almashitirib bo'lmaydigan vostiati, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish negizi hisoblanadi. Ishlab chiqarish vostiatiidan to'g'ri foydalanish tufayli erning hosildorligi ortadi, bu esa qishloq xo'jaligini yanada yuksaltirishni ta'minlaydi.

Ishlab chiqaruvchi kuch tez rivojlanib borganda barcha eski mashinalar yanada foydalibroq mashinalar bilan almashitirilishi, ya'ni eski mashinalar ishlab chiqarishdan butunlay chiqarib tashlanishi kerak. Er esa, aksincha, agar unga to'g'ri munosabatda bo'linsa, xamisha yaxshilanib boradi. Erning unumdorligi kapital, mehnat va ilmi qo'llanishi bilan cheksiz darajada ortadi.

Yerdan ratsional foydalanish butun xalqning va avvalo qishloq xo'jaligidagi barcha xodimlarning eng muhim vazifasidir. Bu vazifa eng kam mehnat va ishlab chiqarish vostiatarini sarflagan holda har gektar erdan ko'proq yuqori sifati mahsulot olishdan iborat. Mamlakatimizda er moddiy farovonlikni oshirishning eng muhim manbai, shuning uchun ham hukumatimiz tabiatni asrashni kuchaytirish hamda er va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash tadbirlarini qonun yo'li bilan mustahkamlab ko'rgan. Respublika 44797,7 ming gektar yer fondiga ega, shundan barcha qishloq xo'jalik erlari 27987 ming gektar, shu jumladan, sug'orishga yaroqli erlar 5 mln. gektar, sug'oriladigan erlar maydoni 4238,6 ming gektar, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlarning umumiy maydoni salkam 32 mln. gektar, ekladigan erlar 4090,2 ming gektar, xaydaladigan erlar 4474,5 ming gektar.

Respublika yer fondining asosiy qismi 62 foizga yaqini qishloq xo'jalik er turlari to'ialariga mansub, qolgan qismi fuqarolar erlari – tomorga 1 foiz, o'rmon va to'qayzorlar 3,2 foiz va qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan erlar 34,2 foiz. Er davlat mulkidir. Davlat yer fondini to'g'ri taqsimlash va undan reja asosida foydalanishni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasida yagona davlat yer fondi sostaviga quyidagilar kiradi:

qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar; sanoat, transport, kon sanoati va qishloq xo'jaligi korxonalariga mansub bo'lmagan muassasa va tashkilotlar foydalanayotgan yerlar; shahar va shahar tipidagi posyolkalar joylashgan yerlar; davlatning zahira yerlari.

Yer fondining ancha qismi foydalanish uchun qishloq xo'jalik korxonasi va turli jamoat muassasalariga berilgan. Qolgan qismida o'rmon xo'jaligi va boshqa davlat xo'jaliklari ish yuritadilar. Bulardan bevosita davlatning o'zi foydalanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida yerni yaxshilashning asosiy yo'li qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchillik bilan intensivlashtirish, qishloq xo'jaligi oborotidagi erlarni yaxshilashdan iboratdir.

Qishloq xo'jaligi erlaridan foydalanish darajasini yanada ko'tarishda irrigatsiya g'oyat katta rol o'ynaydi. Yer maydonlarini doimo yaxshi holatda saqlash va uning mahsuldorligini oshirishda shamol va suv yer eroziyasiga qarshi kurash muhim tadbirlardan hisoblanadi. Tuproq yer eroziyasiga qarshi kurashda yagona va ilmiy jihatdan asoslangan tadbiriy choralaridan foydalanish ma'qul. Bu tadbiriy choralar sistemasiga almashlab ekishni joriy qilish, ixota daraxzorlarini barpo etish kabi asosiy omillar kiradi. Eng oddiy va samarali agrotexnika tadbirlaridan er haydash, ekin va qishloq xo'jalik ekinlarini qiyalik joylarda ko'ndalangiga ekish suv eroziyasi keltirayotgan zararni bir necha bor kamaytiradi. Respublika qishloq xo'jaligi korxonalari qishloq xo'jaligida foydalanadigan yer maydonlari umumiy struktura sostavida yaylovlar 50 foizdan ziyodroq salmoqni egallaydi. Yaylovlar, deyarli, cho'l va yarim sahro zonalarida joylashgan bo'lib, ulardan qo'ychilikni, ayniqsa, qorako'lchilikni hamda echkichilikni rivojlantirish uchun foydalaniladi. Cho'l yaylovlarining talaygina qismi sug'orishning asosiy rezervidir, shundan 6 mln. gektar maydonda sug'orish imkoniyatlari mavjud. Yaylovlarni yaxshi parvarish qilish, ularni yaylov oborotiga kiritish va qo'shimcha ravishda o't urug'larini ekish hisobiga yuqori sifatli va arzon em - xashak olishga erishish mumkin.

Ilmiy jihatdan asoslangan dehqonchilik sistemasini yuritish erdan ratsional foydalanishning asosiy negizidir. Tuproq unumdorligini og'ishmay oshira borish va kam mehnat, mablag'

harajat qilib yuqori hosilolish dehqonchilik tizimining asosiy shartidir.

Yerning ko'p qismini bir necha faoliyat turiga moslashtirilishi mumkin. Xatto ki kimsasiz va o'tib bo'lmaydigan botqoqliklar mavjud yerlar raqobatlashuvchilar yoki tabiatni saqlab qoluvchilar orasida taqsimlanishi mumkindir. Ehtimoldagi foydalanishning meyoriy davriyligi yerlardan foydalanishning makonga oid modellari ko'rib chiqayotib, biz alohida birlik yoki aniq faoliyat turi nuqtai nazaridan boshqa fikrlay olmaymiz, balki analizning boshqa turi - ko'p faoliyatli rayonlashtirish yoki tuman darajasiga qarab intilishimiz kerak.¹

4. Biologik resurslaridan samarali foydalanish va muhofaza qilish

Tabiiy resurslar orasida biologik boyliklar alohida ahamiyatga ega. Chunki, ular tugallanmaydigan resurslar bo'lib mahsulotlarni cheksiz muddatda beradi. O'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati nihoyatda katta. O'simliklarning tuproqni eroziya va deflyatsiyaga qarshi barqarorligini oshirishda bosh omil, deb baho berilsa mubolag'a bo'lmasa kerak.

O'zbekistonning barcha mintaqalari o'simlik va hayvonot resurslariga boy. Respublikada o'simliklarning 120 oilasiga mansub bo'lgan 3700 turi, O'zbekiston faunasida sutemizuvchilarning 97, sudralib yuruvchilarning 57, qushlarning 410 turi mavjud.

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar orasida o'rmon resurslarini hosil qiluvchi o'rmon o'simliklari ko'pchilikni tashkil etadi. O'simlik resurslari ham hayvon resurslari singari tugaydigan, lekin tiklanadigan resurslari hisoblanadi. Ulardan turli xil maqsadlarda foydalaniladi. Masalan: o'rmondan qurilishdan tashqari, smola, skipidar, bo'yoqlar, lak ekstraktlar, elim, mebel, selluloza, qog'oz, spirt va h.k.lar olinadi.

Jahon o'rmon resurslari 2ta ko'rsatkich bilan ifodalanadi:

¹Hoover, Edgar Malone, Giarratani, Frank. AN INTRODUCTION TO REGIONAL ECONOMICS. An introduction to regional economics. 2014/part 6/71p.

1. Egallagan maydoni (jahondagi barcha o'rmonzorlar 4,2mlrd ga ni tashkil etadi yoki 40 mln.km² ya'ni jahon yer fondini 30% ini tashkil etadi).

2. Yog'och zahirasi bilan (jami yog'och zahirasi 350mlrd m³), yog'ochning sifatiga ko'ra. Doim o'sib turganligi sababli yog'och zahirasi har yili 5,5 mlrd m³ ko'payadi. Shunday ekan, kelajakda yog'och muammosi bo'lmaydigandek tuyuladi. Aslida unday emas. Chunki yog'och qadimdan qurilish va ishlov berish material sifatida foydalanib kelingan va hozirda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Chunki yog'ochdan XIX-asrning o'rtalarida 4,5-5 ming xil mahsulot olingan bo'lsa, hozirda 20 ming xil mahsulot ishlanadi. Hozirgi vaqtda ham yog'ochga talab doimiy oshib bormoqda.

Dehqonchilik paydo bo'lgan neolit davridan boshlab minglab yillar davomida o'rmonlar ekin ekish uchun yo'qotib borildi. Ayniqsa keyingi 200 yil davomida quruqlikdagi o'rmonlar maydoni 2 barobarga kamaydi va u havfli tus oldi.

Shimoliy o'rmon mintaqasi mo'tadil va qisman subtropik iqlim mintaqasida joylashgan. Dunyodagi butun o'rmon maydonining yarmi va yog'och zahirasining deyarli yarmi shu mintaqaga to'g'ri keladi.

Asosiy o'rmon kesish ishlari, ayniqsa, yog'ochi yaxshi sifatli igna bargli daraxtlarni kesish shu mintaqada olib boriladi. Daraxt kesish jadal olib borilayotganligiga qaramay o'rmonlarni tiklash va daraxt ekish ishlari tufayli AQSH, Kanada, Finlyandiya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda va umuman shimoliy o'rmon mintaqasida o'rmonlar maydoni kamayayotgani yo'q. Biroq Rossiya daraxtni kesish uni ekishga qaraganda ko'proq bo'lyapti.

Yana bir boylik Dunyo okeani tagidagi mineral resurslardir. Materik sayyozligidan qazib olinadigan resurslar orasida neft va gaz katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik hisoblarga qaraganda bu boyliklar butun jahon zahirasining yarmidan ortig'i materik sayyozligida joylashgan. Shuning uchun 5 ta Arktika davlatlari (Rossiya, Kanada, AQSH, Norvegiya, Daniya) Shimoliy Muz okeani havzasini bo'lib olish shartnomasini 2008-yil may oyida Grenlandiyani Gotxob shaxrida imzoladi. Dunyo okeanining bundan keyingi boyligi energetika resurslari. Bu boylik juda katta. Olimlarning hisobiga ko'ra sayyoraimzdagi suv qalqishining umumiy qudrati 1-6 mlrd kVt

ga teng. 1mlrd kVt qudrat Er yuzidagi barcha daryolar energiyasidan ortiq.

Suvning ko'tarilishi bilan bog'liq yirik elektr stansiyalarni 25ta joyda qurish mumkinligi aniqlangan. Rossiya, AQSH, Fransiya, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya eng katta suv qalqishi energiya resurslariga egadir. Bu mamlakatlarda suv ko'tarilishining balandligi 10-15 m ga etadigan sohillar bor. Masalan: Fandi qo'ltig'i (19m gacha), Penjina qo'ltiqchasi (14m), Kandalachka (12m). Dengiz suvlarining qalqishi hisobiga ishlaydigan elektr stansiyalari qurilgan bo'lib, ularni QES (PES) deyiladi. QESlar hozirda jahonning 5 mamlakatida mavjud bo'lib, ular: Rossiya, AQSH, Fransiya, Kanada, Xitoy.

Dunyo okeanining yana bir boyligi biologik resurslardir. Bular suvda yashovchi hayvonlar va o'simliklardir. Bu resurslardan foydalanish akvakultura va marikultura usullarida qadimdan Xitoyda rivojlangan. Okeanlarning biologik moddalari umumiy miqdori 35mlrd.t. hisoblanadi, ular 140 ming tur mavjudotdan iborat bo'lib, shundan 130 000 turi hayvonot turlariga, 10 000 turi o'simlik turlariga to'g'ri keladi. Ular hammasi birgalikda er biomassasini 5,5 % ini tashkil etadi. Norvegiya, Bering, Yapon, dengizlari dunyodagi eng maxsuldor dengizlar hisoblanadi. Biroq okeanlardagi ko'pgina organizmlar muhofazaga muhtoj.

Agroiqlim resurslari atmosfera havosining aktiv (+100 S) haroratlari yig'indisiga qarab baholanadi. Agroiqlimiy resurslarning taqsimlanishiga kenglik zonalligi va vertikal mintaqalanish xal qiluvchi ta'sir qiladi.

Agroiqlim resurslari-yer sharida issiqlik, yorug'lik va namlikning taqsimlanishiga bog'liq.

Agroiqlim resurslaridan issiqlik alohida o'rin tutadi. Issiqlik va yorug'lik ekvatoridan har ikkala qutb tomon kamaya boradi. Natijada er sharida 7 ta agroiqlim mintaqasi shakllangan. Ulardan tropik mintaqadan tashqari qolgan 3 ta mintaq 2 martadan takrorlanadi.

1. Tropik mintaq. Afrika eng issiq materik bo'lib, chekka shimoliy, chekka janubiy va baland tog'li qismlaridan qolgan barcha qismlarida 1sm.kv. joyga 80000 dan ortiq issiqlik tushadi, sovuq oying o'rta haroratlar yig'indisi +150 dan yuqori. Bu joylar tropik mintaqaga mansub bo'lib, dunyoda tropik kengliklar

oraliqlari (Amazoniya past tekisligi, Markaziy Afrika, Arabiston, Hindiston, Hindixitoy yarim orollari, Malayya arxipelagi va Avstraliyaning shimoli) kiradi. Bu mintaqada issiqsevar qisqa kunli o'simliklar o'sadi. Ekvator atrofiga kunning uzunligi har doim 12 soat, shimoliy va janubiy tropiklarda esa 13 soat 13 minut. Vegetatsiya davri uzluksiz davom etadi.

2. Subtropik mintaqaga tropik mintaqadan shimolda va janubda tarqalgan bo'lib, bu mintaqaga Afrikaning chekka shimoli va janubi, janubiy Amerikaning janubi, Meksikaning shimoli-AQShning janubi, Yevropaning O'rta Dengiz bo'ylari, O'rta Sharq, O'rta Osiyo, Taklamakon cho'li, Sharqiy Xitoy, Avstraliyaning janubi kiradi.

Subtropik mintaqaga odatda Shimoliy va Janubiy tropik chizig'idan shimoldagi va janubdagi hududlar kiradi. Bu mintaqada haroratlar yig'indisi 4000-8000 ga to'g'ri keladi. Yillik sovuq oying o'rtacha temperatura yig'indisi +50 +150. Issiqsevar o'simliklar yetishtiriladi. Vegetatsiya davri uzog 210-310 kun. Kunning uzunligi 13,30-15,30 soat.

3. Mo'tadil mintaqaga katta maydonlarni egallaganligi sababli 2 mintaqachaga: mo'tadil mintaqacha va sovuq- mo'tadil mintaqachaga bo'linadi. Mo'tadil mintaqaga asosan shimoliy yarim sharda joylashgan.

1) Mo'tadil mintaqachaga AQSH ning shimoli - Kanadaning janubi, butun O'rta Yevropa, Belarus, Ukraina, Volga bo'yi, Kavkaz, Qozog'iston, Xitoyning markazi va shimoliy qismi, Koreya yarim oroli, Yaponiyaning shimoli kiradi. Bu mintaqada yilning sovuq oying o'rtacha temperaturasi-100S. Yillik haroratlar yig'indisi 1 sm2 joyga 2200-4000 ni tashkil etadi. Kunning uzunligi 16-17 soat. Bu mintaqachada kunning uzunligi o'rtacha va uzun bo'lgan o'simliklar (bug'doy, makka, qand lavlagi, kungaboqar, janubida esa paxta, eryleng'og, uzum) yetishtiriladi.

2) Mo'tadil mintaqacha shimolida 650 shimoliy kenglikdacha sovuq mo'tadil mintaqacha egallagan. Bu mintaqachaga Kanadaning katta qismi, Shimoliy Yevropa, Rossiyaning katta qismi kiradi. Yilning sovuq oying o'rtacha temperaturasi yig'indisi -250gacha. Yillik temperatura yig'indisi 1000-22000. Kunning uzunligi 19-23 soatgacha. Bu mintaqachada uzun kunli o'simliklar zig'ir, kartoshka,

malina, chershnika, brusnika o'sadi. Bu mintaqachaning barcha qismlarida namlik ko'effitsienti 1 dan ortiq.

4. Sovuq mintaqaga 600 shimoliy kenglikdan shimoli ayrim joylarda 500shimoliy kenglikdan shimoli (Labrador yarim orolida) asosan shimoliy qutb doirasidagi hududlar kiradi. Bu mintaqaning janubida havo temperaturasining yig'indisi 400-10000 shimolida esa 4000 ni tashkil etadi. Eng sovuq oying o'rtacha temperaturasi -250 dan -400 gacha. Vegetatsiya davri 1-1,5 oy. "Oq tunlar" bo'ladi. Namlik ko'effitsienti 1 dan yuqori bo'lgan hududlarga Amazoniya, Kongo, Gang-Braxnaputra havzasi, Janubi-Sharqiy Osiyo, Madagaskar, shuningdek sovuq mo'tadil mintaqacha kiradi. Cho'l, chalocho'l va baland tog'li territoriyalarda namlik ko'effitsienti 1 dan kam. Namlik ko'effitsienti yog'in va parlanish orasidagi nisbatdan kelib chiqadi. Masalan:

Yog'in 500 mm-bug'lanish 500 mm namlik ko'effitsienti =1 (yetarli).

Yog'in 500 mm- bug'lanish 400 mm namlik ko'effitsienti = 1,2(ortiqcha).

Yog'in 500mm-bug'lanish 600 mm namlik ko'effitsienti = 0,8 (kam).

Quyosh - kosmik resurslar - kelajak resursidir.

Quyosh - yirik termoyadro reaktori, Erdagi butun hayotning manbai, butun energetika resurslarining manbaidir. Quyoshning atrofiga temperatura +60000, markazida esa +20mln0S. Quyosh energiyasi bitmas tuganmas boylikdir.

Quyosh da H2 ning geliyga aylanishi natijasida radiatsiya ajralib chiqadi. Quyosh nuri erga 8,5 minutda etib keladi. Quyosh diametri Er diametridan 109 marta katta. Quyosh energiyasining 1/10 qismi ishga solinsa 30 000 ta Dnepro GES beradigan energiyani beradi.

Faqat Toshkent shahriga 1 yilda tushadigan Quyosh energiyasi 37 mln tonna ko'mir energiyasiga teng. O'zbekiston territoriyasi 3000 soatdan ortiq Quyosh nuri bilan yoritiladi. Quyosh 10 - 15 mlrd yildan so'ng so'na boshlaydi. Ungacha 150 mln inson avlodi almashinadi.

Rekreatsion resurslar - bu dam olish va turizm resurslaridir. "Rekreatsiya" so'zi lotincha "tiklanish" bo'lib, dam olishning,

kishining ma'naviy va jismoniy kuchlarini tiklaydi. Rekreatsioon resurslar istirohat, turizm va shifolanish maqsadlarida bo'ladi. Ular 2 xil bo'ladi:

1. Tabiiy rekreatsioon resurslarga: dengiz sohillari (Qrim, Sochi), daryo bo'yari (Niagara, Ganga), o'rmonlar, tog'li rayonlar (Alp tog'lari, Shohimardon) kabilar kiradi.

2- Madaniy-tarixiy rekreatsioon resurslar bo'lib, bularga tarixiy, arxeologik, me'morchilik, san'at yodgorliklari kiradi. Masalan: VDNH, Krem, Ermitaj, Rim, Akripol, Misr ehromlari, Toj Mahal, Xiva, Paleontologiya muzeyi (Moskva), Buyuk Xitoy devori, Vavilon, Sherdor, Go'ri Amir, Oqsaroy va h.k.

Xalqaro turizmdan tushadigan daromadning 14 % i AQSH ga, 6 % i Ispaniyaga, 6 % i Fransiya, 6 % i Italiyaga, 4 % i Buyuk Britaniyaga, 3 % i Avstriyaga, 61 % i boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi

Ma'lumki, Er yuzasi umumiy maydonining 29 foizdan ortig'ri quruqlik, qolgan qismi dengiz va okeanlarga to'g'ri keladi. Ishlov beriladigan yer maydonlari bor yo'g'i 11 foizni tashkil qilib, ular inson uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining 88 foizini yetishtirib beradi. Ammo so'nggi paytlarda iqtisodiy maqsad, manfaatlar yer fondi tuzilmasini tobora o'zgartirib yubormoqda. Xususan, bir tomondan foydalanish uchun yaroqli bo'lgan erlarni kengaytirishga harakat qilinayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan erdan samarali foydalanmaslik natijasida uning buzilishi va eroziya jarayonlari kuchaymoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, yiliga o'rtacha 6-7 million gektar maydonlar eroziya jarayonlari bois qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqsiz holga kelmogda. Bundan tashqari, sanoat va transport infratuzilmasi sohasida amalga oshirilayotgan qurilishlar, yer osti boyliklarini qazib olish jarayonida hosil bo'layotgan karer va tuproq uyumlari jadal sur'atlar bilan qishloq xo'jaligi ekin erlarini qisqartirmoqda. Shundan kelib chiqib, er muammolariga dunyo hamjamiyatining e'tiborini qaratish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 2009 yildan 22 aprel kunini Xalqaro Ona-Er kuni deb e'lon qildi.

Mustaqil O'zbekiston mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish va, ayniqsa, Orol fojiasini yumshatish maqsadida keng ko'lamdagi sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. Jumladan, qishloq

xo'jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish va suv resurslaridan foydalanishning havza prinsipiga o'tildi. Suvdan foydalanishda tejankor texnologiyalar keng joriy etilib, qat'iy normalar belgilandi. Bu sohadagi huquqiy baza muntazam takomillashtirib borilmoqda. Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash, Amudaryo deltasida lokal hovuzlarni yaratish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktabrdagi Farmoniga muvofiq, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish, erlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning umumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirishga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliylashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi tashkil etildi.

«2008-2012 yillar davrida sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash» Davlat dasturi hamda «2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish» Davlat dasturi ishlab chiqilib, qabul qilindi. Mazkur dasturlarda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2008 yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1,5 million gektar sug'oriladigan erning meliorativ holati yaxshilandi, yer osti suvlari yuqori bo'lgan maydonlar qariyb 10 foizga yoki 415 ming gektarga qisqardi, kuchli va o'rtacha sho'rtlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi.

Muxtasar aytganda, mamlakatimizda er va suv resurslarini asrash borasida amalga oshirilayotgan ishlarining ko'lam ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sohalarida barqaror rivojlanishni ta'minlab, har bir fuqaroning musaffo atrof-muhida farovon yashashga bo'lgan huquqi mustahkamlanishiga xizmat qiladi. O'rni kelganda ta'kidlash joizki, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi saylovoldi Platformasida yurtimiz tabiatiga, boy tabiiy resurslariga nisbatan asrab-avaylab munosabatda bo'lishni, ulardan hozirgi va kelgusi avlodlar manfaati yo'lida oqilona foydalanilishini, shuningdek,

ekologik xavfsizlikni ta'minlashga ko'maklashish vazifalari belgilangan. Bu kabi maqsad-vazifalarning amaldagi ijrosini ta'minlashda partiya guruhlarining faol ishtiroki talab etiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Atmosferani ifloslantiruvchi manbalar to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Tabiiy ifloslanishdan antropogen ifloslanishni farqi nimada?
3. Iqlim o'zgarishining sabablari nimalar.
4. O'rta Osiyoning suv resurslarini o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Yer resurslarini iqtisodiy baholash va uning asosiy ko'rsatkichlarini aytng.
6. Yerning ifloslanishi, eroziyasi sabablarini va ularni oldini olish tadbirlarini ko'rsating.
7. Biologik resurslar to'g'risida tushuncha bering.

Annotatsiya

Mazkur o'quv qo'llanmada mintaqaviy iqtisodiyot asoslarining nazariy masalalari, jumladan, hozirgi zamon mazmuni, tadqiqot obyekti va predmeti, shakllanishi hamda rivojlanish xususiyatlari, uning ichki tuzilishi, tadqiqot usullari yoritilgan. Ma'lumki, "Mintaqaviy iqtisodiyot asoslari" fani oliy ta'lim tizimida yuqori malakali geograf va iqtisodchilarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. U talabalarda bevosita sanoat, ya'ni ishlab chiqarish bilan bog'liq yoki ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning mazmuni, zamonaviy tuzilishi, maqsad va vazifalari, ilmiy va amaliy ahamiyatiga doir bilimlarni shakllantiradi. Ushbu fanni o'qitishning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini bozor munosabatlariga asoslangan holda to'g'ri tashkil etishda yangi ilmiy g'oya va tushunchalar hamda qonuniyatlardan, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish sohasida jahon tajribalarida erishilgan yutuqlardan unumli foydalanish zarurligi bilan belgilanadi.

Ushbu qo'llanmada tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlari, sanoat tarmoqlari, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashish xususiyatlari haqida umumiy tushunchalar, fanning tarkibiy tuzilishi: ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, tog'-kon sanoati, yog'ilg'i sanoati, elektro-energetika

majmui, metallurgiya majmuasi, mashinasozlik majmuasi, kimyo majmuasi, yengil sanoat majmuasi, oziq-ovqat sanoati, hududiy modelar; qishloq xo'jaligi; dehqonchilik, chorvachilik to'g'risida dastlabki bilimlar berilgan.

Glossariy

Akselerator	iqtsodiyotda iste'molchilik sarf-xarajalar hajmio'zgarishi bilan yuzaga keladigan kapital qo'yilmalar hajmi o'zgarishini tavsif etuvchi ko'rsatgich. Akselerasiya prinsipining mohiyati shundan iboratki, iqtisodiyotda iste'molchilik xarajatlari dinamikasi investitsiyalar hajmi dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi: iste'molchilik xarajalarining sezirarli o'sishi investitsion faollikni yuzaga keltiradi, rag'batlantiradi va aksincha.
Aktivlar	iqtsodiy faoliyat subyektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlari qiymati.
Amortizasiya	foydalanish jarayonida asbob-uskunalar qiymatining eskirgani sayin mahsulot hisobiga o'tkazish jarayoni. Asosiy jamg'armalar iste'mol narxini to'la yoki qisman tiklash uchun amortizasiya orqali amalga oshiriladigan narxini to'latishi zarur. Asosiy jamg'armalar sarfini qoplash uchun ularga ketgan sarflarni tayyorlanayotgan mahsulotga singdirib borish asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasini tashkil etadi. Asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasi mahsulot tannarxini o'z ichiga oladi.
Alternativ variantlardan tanlov	Bu korxona tashkilotlarga asosiy jamg'armalarning moddiy va ma'naviy sarfini qoplash uchun mahsulotlarni sotish orqali mablag' tulashtirish imkonini beradi. tanlab olingan variant alternativ variantdan voz kechish evaziga amalga oshirilishini taqozo etuvchi qaror qabul qilish zarurati. Makroiqtisodiy atamalar doirasida iqtisodiy atamalar siyosatning chora-tadbirlar ishlab chiqish jarayonida u yoki bu g'oyalarning tanlov-muammolarini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, ishsizlikning o'sishi va inflyatsiya jadalligi, foydalaning o'sishi yoki ish xaqining oshishi orasidagi tanlov muammosi.
Asosiy fondlar ularning bahosi	Asosiy turli xo'jalik subyektlari va fuqarolarning pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birlashtirish va ishlatish.
Asosiy narx	xalq xo'jaligini rivojlantirish va statistik hisob olib borishda indekslarni hisoblash va to'lashgacha hisoblangan narx.
Budjet taqchilligi	davlat budjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.
Band aholi	ijtimoiy ishlab chiqarishning fuqarolik sektorida band bo'lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan belgilangan normalarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi.
Bandlik darajasi	bandlar umumiy sonining mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga nisbati.
Bank krediti	daromad (%) ko'rinishida foyda olish uchun bank tomonidan qarzga pul berish.
Belgilangan almashuv kursi	milliy valyutaning chet el valyutalariga nisbatan an'anaviy tarzda belgilanadigan qiymati va o'zgarmas tizim.
Budjet soliq siyosati	budjet siyosatida davlat o'z istagi bilan budjet xarajatlari va daromadlarini shakllantirgan holda 3 xil budjet siyosati yuritadi. Budjet xarajatlari, transfer xarajatlari shaklidagi xarajalar. Daromadlar esa uch manbadan kelishi mumkin: soliqlardan, xazina tomonidan, chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar sotilishidan va budjet tomonidan ma'lum qismini markaz tomonidan bank emissiyasi hisobiga yopishidan. Shunga ko'ra, davlat xarajalar va daromadlarni boshqarish orqali budjet siyosatini yuritadi.
Bozor munosabati	bozordagi talab va takliflarning miqdoran va tarkibiy jihatdan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqadi.
Bank rezervlari	bankda saqlanayotgan naqd pullar, markaziy bankda saqlanayotgan foizsiz depozitlar.

Baho, narx	tovar qiymatining puldagi ifodasi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni va foydani ko'rsatadi.
Bozor narxi	iqtsodiyotda jami talablarga ko'ra o'zgarmas holda qoluvchi narxlar.
Giperinflatsiya	haddan tashqari inflatsiya, narxning shiddat bilan o'sishi, pul qadrlining g'oyat tez pasayishi, pul topishga intilishning minimal darajaga kelishi bilan xarakterlanadi.
Davlat budjeti	asosan davlat (viloyat, shahar, tuman, muassasa, tashkilot va boshqalar) ning ma'lum muddatdagi (yil, kvartal, oy) daromadlari va xarajatlarning pul hisobi.
Devalvasiya	mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi.
Deflyatsiya	inflatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish; davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul-kredit tadbirlarini qo'llash bilan amalga oshiriladi.
Depozitlar	omonatga asrab qo'yilgan: 1) bank va omonat kassalariga qo'yilgan omonatlar; 2) bank daftardagi yozuvlar; 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatbaho qog'ozlar (aksiya va obligatsiya).
Dividend	hissadorlik jamiyatlari foydasining bir qismi bo'lib, aksiyaning soni va turiga qarab har yili hissadorlar orasida taqsimlanadi.
Diskont	markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan qarzlarga qo'yiladigan foiz.
Daromad	ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foyda)
Yopiq iqtisodiyot	tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo- iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lmaydigan iqtisodiyot.
Jami band aholi	band bo'lgan aholi va harbiy xizmatchilar.
Ishsizlik	aholining iqtisodiy faol qismi ish topa olmastligi, mehnat rezerviga aylanishi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi

real va potensial yalpi milliy mahsulotning o'sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oralig'lariga xos bo'lgan ishsizlik darajasi. U iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida ham hisoblanishi mumkin. Shuningdek, NARU (natural rate of unemployment) atamasi ishsizlikning o'smaydigan darajasi ko'rsatkichi tarzida ham qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich ijtimoiy jihatdan nisbatan neytral bo'lib, inflatsiyaning turg'un, barqaror darajalari hamda real va potensial yalpi milliy mahsulot (YAMM) mos tushgan holatidagi ishsizlik darajasini aks ettiradi.

pul, qiymat shaklidagi ish haqi.

Import

mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtini tejashga, xalq xo'jaligi, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.

Investitsiya

ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Investitsiylarning moliyaviy va real turlari mavjud. ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narx darajasining foizda o'zgarishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Акрамов З.М. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy geografyasi. O'quv dasturi. -Т., 1992.
2. Аксенов И.Д. Единая транспортная система. -М., 1991.
3. Asanov G.R. Sotsial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug'ati. -Т., 1990.
4. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jurg'rofiyasi. -Т., 1994.
5. Ahmedov E., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi (qisqacha ma'lumotlari) -Т., 1996.
6. Бабурин В.Л., Мазуров Ю.Л. Географические основы управления. -М., 2000.
7. Bekmurov N., Yo'ldoshev Y., Yusupov Y. va boshqalar. Vozor iqtisodiyoti nazariyasi. -Т., 1993.
8. Бутов В.И., Игнатов В.Г., Кетова Н.П. Основы региональной экономики. Ростов-на Дону, 2000.
9. Вавилова Е.В. Экономическая география и регионалистика. -М., 2000.
10. Гладкий Ю.Н., Чистобаев А.И. Основы региональной политики. Санкт-Петербург, 1998.
11. Грамотеева М.И. Эффективность территориальной организации производства. -М., 1979.
12. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. -М., 2000.
13. Зиядуллаев С.К. Региональные проблемы экономики Узбекистана. -Т., 1986.
14. Игнатов В.Г., Бутов В.И. Регионоведение (методология, политика, экономика, право). Ростов-на Дону, 1998.
15. Ларина Н.И., Кисельников А.А. Региональная политика в странах руночной экономики. Учебное пособие. -М., 1998.
16. Леш А. Географическое размещение хозяйства. -М., 1959.
17. Липец Ю.Г., Пуляркин В.А., Шлихтер С.Б. География мирового хозяйства. -М., 1999.
18. Калашникова Т.М. Экономико-географическое районирование. -М., 1999.
19. Каргажанов З.К., Баймиряев К.М. Экономический механизм природопользования. Алматы, 2000.
20. Кистанов В.В. Территориальная организация производства. -М., 1981.
21. Колосовский Н.Н. Теория экономического районирования. -М., Мусль, 1969.
22. Nabiyev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. -Т., 2000.
23. Некрасов Н.Н. Региональная экономика. -М., 1972.
24. Olimjonov O.O., Bahromov A.U., Sulmonov U.S. va boshqalar. O'zbekiston hududlari mustaqillik yillarida. -Т., 1996.
25. Пространственная структура мирового хозяйства. -М., 1999.
26. Ратанова М.П. Экономические основы общественного производства. Смоленск, 1999.
27. Региональная экономика. Под ред. Т.Г. Морозовой. -М., 1998.
28. Региональная экономика. Под ред. М.В. Степанова. -М., 2000.
29. Регионоведение. Под ред. проф. Т.Г. Морозовой, Учебное пособие. -М., 1998.
30. Родоман Б.Б. Территориальные ареалы и сети. -М., 1999.
31. Рўзиев. Сурхондарё вилояти. Термиз, 1996.
32. Спиридонова И.А. Мировая экономика. Учебное пособие. -М., 2001.
33. Садиқов А. Формирование и развитие региональных агропромышленных комплексов. -Т., 1989.
34. Soliyev A.S. va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot. -Т.: Universitet, 2003.
35. Soliyev A.S., Mahamadaliev R.Y. Iqtisodiy geografiya asoslari. -Т., 1996.
36. Soliyev A.S., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning pazari va amaliy masalalari. -Т., 1999.
37. Soliyev A.S., O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy siyosati. Mat'uzalari matn. -Т., 2000.
38. To'xliyev N., O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. -Т., 1998.
39. Туҳлиев Н., Таксанов А. Национальная экономическая модель Узбекистана. -Т., 2000.
40. Toshkentboyev A., Nasirov U. Jizzax viloyati. -Т.,

O'zbekiston, 1996.

41. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi. -T., 1996.

42. Узбекистан за годы независимости. Экономический обзор за 1991-1996 гг. -Т., 1996.

43. Ульджабаев К.У. Экономическая реформа на железнодорожном транспорте. -Т., 1999.

44. Снєп V.A. Bozor sharoitida mintaqaning tarmoq taraqqiyoti. -T., 1997.

45. Gulomov S., Ubaydullayeva R., Ahmedov E. Mustaqil O'zbekiston. -T., 1999.

46. Hakimova M., Xo'jayev X., Mahmudov B. Xalqaro iqtisodiy munosabatlار. -T., 1997.

47. Hakimova M., Makroiqtisodiyot. -T., 1997.

Mundarija

Kiritish.....	3
1-mavzu. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.....	5
2-mavzu. Mintaqalar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning nazariy asoslari.....	12
3-mavzu. Mintaqalar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlar, tamoyillari va omillari.....	17
4-mavzu. Mintaqalar aholisi va mehnat resurslari.....	32
5-mavzu. Mintaqalarning mineral xom-ashyo resurslari.....	48
6-mavzu. Mintaqalarda ishlab chiqarish infratuzilmasi.....	54
7-mavzu. Mintaqalarda sanoat tarmog'ini rivojlantirishning hududiy jihatlari.....	68
8-mavzu. Mintaqalarda yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish.....	80
9-mavzu. Mintaqalarda qishloq xo'jaligining hududiy ixtisoslashuvi.....	87
10-mavzu. Investitsiya muhiti - mintaqe iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismi sifatida.....	95
11-mavzu. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat, ahamiyati va uni amalga oshirish yo'llari.....	102
12-mavzu. Mintaqalarning tashqi iqtisodiy aloqalari va eksportni ko'paytirish yo'llari.....	113
13-mavzu. Mintaqalarda atrof-muhitni muhofaza qilish.....	128
Glossariy.....	148
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yihati.....	152

I.A.Namozov, F.A.Do'smanov

MINTAQAVIY IQTISODIYOT ASOSLARI
(O'QUV-QO'LLANMA)

Muharrir:	X. Taxiroy
Tehnik muharrir:	S. Melikuziya
Musahhib:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й
Bichimi 60x84¹/₁₆ "Cambria" garniturası, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 9,75. Adadi
100 dona. Buyurtma № 1814182

Yangi chirchiq prints MCHJda chop etildi.